

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

Koshanova Nilufar Maxsudovna

«MA'NAVIY TARBIYANING TARIXIY ASOSLARI»

MONOGRAFIYA

Chirchiq-2023

UO’K 355.233(575.1)
KBK:86.372.24-67

Koshanova N.M.

Ma’naviy tarbiyaning tarixiy asoslari [monografiya]/N.M.Koshanova. Toshkent, “Lesson Press” MCHJ nashriyoti. 2023. 98 b.

Mazkur monografiyada xalqimizning ko’p asrlik ma’naviy-axloqiy tarbiya borasidagi qarashlari, miloddan avvalgi I ming yillikdan-milodiy XV asrgacha ta’limiy shart-sharoitlar, maorif rivoji, ma’naviy-axloqiy qarashlarning tarixiy takomillashuv jarayoni va ushbu g’oyalarning komil inson tarbiyalashdagi didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Ajdodlarimizning 3 ming yil avvalgi nikoh munosabatlari va oila ma’naviyati, farzand tarbiyasi bo’yicha boy pedagogik merosi, “Avesto” manbasi asosida tahlil qilingan. VIII asr boshlarida Islom dini mafkurasining Markaziy Osiyo mintaqasida mustahkamlana boshlashi, Islom manbalarida ma’naviy-axloqiy yo’l yo’riqlar, musulmon diniy-axloqiy mezonlarida poklik, hallollik, insonparvarlik, vatanparvarlik, vijdon, imon, rostgo’ylik, mehnatsevarlik kabi axloqning asosiy kategoriyalari va tamoyillariga ustuvor o’rin berilganligi tahlil qilingan.

Islom dinining kirib kelishi asosida yuzaga kelgan ijobiy ma’naviy muhit, markazlashgan davlatning yuzaga kelishi, arab tilinining xalqaro muomila va ilm tili sifatida namoyon bo’lishining ilm- fan va xalq ma’naviyatining yuksalishidagi ahamiyati o’rganilgan.

Ma’sul muharrir:

Gafforova Gulchehra G’ulamjanovna –falsafa fanlari doktori (DSc), professor;

Taqrizchilar:

N.A.Nazarov –Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, siyosiy fanlar doktori (DSc).

J.N. Abduraxmonova-Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

Chirchiq davlat peadgogik universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2023 yil -oktyabrdagi –sonli majlisi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Koshanova N.A.

ISBN: 978-9910-05-017-6

“Lesson Press” MCHJ nashriyoti 2023y

SO'Z BOSHI

Mazkur monografiyada O'zbek xalqining antik davrdan (miloddan avvalgi I ming yillikdan) -to islom dini tarqalgan davrgacha bo'lgan ta'lim -tarbiyaga oid pedagogik g'oyalari va qarashlari "Avesto" va Islom manbalaridagi tarbiyaviy usullar va tamoyillar asosida o'rganilgan.

Asrlar silsilasidan bizgacha yetib kelgan ajdodlarimizning ma'naviy tarbiya borasidagi ilmiy-ma'naviy merosi "Avesto" va Islom diniy manbalari tahlil qilingan holda, barkamol avlod tarbiyalashdagi ijobiy xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, Zardushtiylik va Islomdagi axloqiy tushuncha, axloqiy g'oya va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati yoritilgan holda, "Avesto" pandnomasining pedagogik mohiyati, Islom mafkurasining ijtimoiy ehtiyoj sifatida namoyon bo'lishi, uning pedagogik nazariy asoslarining shakllanishi, hamda ma'naviy-axloqiy g'oyalarning rivojlanish davri o'rganilgan. Shu bilan birga Zardushtiylik va Islom mafkuralaridagi ma'naviy-axloqiy tamoyillarning komil inson tarbiyalashdagi didaktik imkoniyatlari tahlil qilinib, insonlarda poklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi axloqiy kategoriylarning ulug'lanishi, hamda unga berilgan diniy rag'batlarning inson kamolatidagi ahamiyati o'rganilgan.

Ushbu monografiyada, asosan, Markaziy Osiyo xalqlari pedagogikasining tarixiy tadriji, jumladan, miloddan avvalgi I ming yillikda tarqalgan Zardushtiylikning muqaddas manbasi Avestodagi bola tarbiyasidagi qarashlarning xalq pedagogikasining rivojlanishidagi o'rni, Islom dinining Markaziy Osiyoda tarqalishi asosida islom pedagogik qarashlarining Markaziy Osiyoga kirib kelishi, dinning yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishdagi ahamiyati, Sharq Rennsans davrida yashagan mutafakkirlarning ma'naviy-axloqiy qarashlari o'rganilgan.

KIRISH

Har bir millat va xalq farzandi o'z kelajagi poydevorini mustahkam barpo etishda o'z ajdodlari bosib o'tgan o'tmishi va kechmishlarini tahlil qilishi lozim. Zero, tarix buyuk murabbiylik xususiyatiga ega bo'lib, u bizni bugungi tinch va osuda davrning qadriga yetishimiz va farovon, to'kin hayotimiz uchun shukronalik tuyg'ularini his qilishimizga undaydi. Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida barkamol avlodni tarbiyalash masalasi yetakchi masala bo'lib, har bir davrda o'ziga xos yondashuvlar va tendensiyalar hukmron bo'lgan. Ammo ming yillar o'tgan bo'lsada, ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan pedagogik qarashlar shu darajada qimmatliki, ular hozirgi shiddatkor, davr uchun ham ahamiyatlidir. Bu borada preidentimiz **Sh.Mirziyoyev** ***“Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi”***, -deya haqli fikrni aytgan edilar.

Insoniyat jamiyatida tub islohatlar va o'zgarishlar yuz berayotgani hozirgi globallashuv sharoitida ta'lim jarayonini isloh qilish, insonparvarlashtirish, jamiyatni ma'naviy yuksaltirish asosiy muommolardan hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotini taminlashda zamon talablariga mos, ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashuvchan, mas'uliyatli, huquqiy madaniyatli, keng tafakkurli, sog'lom e'tiqodli, ma'rifatli avlodni tarbiyalash, ularda ijtimoiy fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalaga aylanib bormoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini inobatga olib, ushbu yo'nalishdagi ustuvor yondashuvlarni takomillashtirish, strategik maqsad va vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini talab qiladi. Mamlakat yoshlarini ma'nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori, salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo'llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Axloqiy tarbiyani xalqona izohlaydigan bo'lsak, inson uchun beshikdan to lahadgacha zaruriy va uning hayotida ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy extiyojdir. Shu boisdan axloq masalasi ta'lim tizimida ming yillar davomida markaziy o'rinni egallagan muommalardan biri sifatida qaraladi. Tarbiya mavsumiy, ma'lum bir vaqtga mo'ljallangan ish emas, balki jamiyat va davlat ahamiyatiga molik kechiktirib bo'lmas, uzluksiz davom etadigan jarayon va strategik masaladir. Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'sirida amalga oshiriladigan dinamik tizim sifatida qaraladi. Tarbiya jarayoni ta'lim muassasasi pedagogik faoliyatining yadrosidir¹.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach ajdodlarimiz tarixini haqqoniy yoritishga katta e'tibor qaratildi. 1998-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov bir guruh tarixchilar bilan uchrashuvda ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlagan holda, ularga muhim topshiriqlar bergan edi. Bugungi kunda ham mazkur siyosatning davomchisi hisoblangan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy fanlarni rivojlantirish zarurligi to'g'risida fikr bildirib, 2021-yil 19-yanvar kuni bo'lib o'tgan uchrashuvda O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilishi to'g'risida bayonot berdi².

Bugungi kunda ta'lim sohasiga kundan-kunga yangi innovasiya va interfaol usullar kirib kelmoqda, ammo shu bilan birga o'qitish va tarbiyalashning asrlar davomida to'plangan ijobiy tajribalarini unutmaslik maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrdan to arablar bosqiniga qadar bo'lgan tarixi, ta'lim amaliyoti va pedagogik tafakkur muommolarini, o'z ijobiy ahamiyatini yo'qotmagan ajdodlarimizning insonparvar, umuminsoniy qadriyatlarga boy pedagogik merosini o'rganish hozirgi davrda ham katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda ma'naviy merosimini asrab avaylash borasidagi islohatlar keng qamrovda amalga oshirilmoqda. Jumladan, dunyoning eng qadimiy

² <https://daryo.uz/2021/01/20/shavkat-mirziyoyev-ijtimoiy-gumanitar-fanlar-rivoji-zamondan-ortda-qolmoqda/>

dinlaridan hisoblangan Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”ning jahon madaniyati va dinlar tarixida tutgan o‘rnini hisobga olgan holda Yunesko bosh konferensiyasining 1999 yil noyabr oyida Parijda o‘tkazilgan 30-sessiyasida “Avesto”yaratilganligining 2700 yilligini 2001 yilda nishonlash haqidagi qarori qabul qilindi va keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga dinga va diniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgartirildi. Islom Akademiyasining tashkil qilinishi, islomiy manbalarning qayta tahrir qilinishi, vijdon, din va e’tiqod erkinligining ta’minlanishi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Shaxsni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda islom pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanishning ijobiy samaradorligi bo‘yicha dunyo olimlari samarali ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan va olib bormoqdalar. Mahalliy **K.I.Najmiddinova** o‘z tadqiqotlarida Markaziy Osiyoda tarbiya va oilaviy tarbiya borasidagi manbalarni 7 bosqichga bo‘lib o‘rganadi. Shundan 1-bosqichga Markaziy Osiyoda Zardushtiylik dini tarqalgan qadimiy davrdan-islomgacha bo‘lgan davrni kiritadi³. Islomda ta’lim va tarbiya masalasi, islom dinining pedagogik mazmuni xorijiy olimlardan **L.Bulatov, M.Gurgueva, M.Dongo, D.Dobrobodev, N.Ermakov, L.Mets, S.Yaminova, F.Mustafo, M.Bukay, A.Kugaybalar tomonidan tahlil qilingan. G.Taychinov, V.T.Lixachyov, G.R.Baltanova** va boshqalar tadqiqotlarida yosh avlodning ma’naviy kamolotida dinning tarbiyaviy salohiyatidan unumli foydalanish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Diniy -madaniy an’analardan tarbiviy vosita sifatida foydalanish masalalari **A.Mets, R.Rozental, A.Massel, V.F.Afanasev, G.N.Volkov, Z.G.Nigmatov, Ya.I.Xanbikov** va boshqalar tomonidan tahlil qilingan. **Z.Mirtursunov, I.Xusanxodjaev, M.Sobirov, A.G‘aniev, M.Orifiylar** ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlarni tizimlashtirishga uringanlar. Zardushtiylik dini taniqli rus olimlarining bir necha avlodlari **V.I.Abaev, V.V. Bartold, E.E.Bertele, I.S. Braginskiy, B.G.G‘ofurov, E.A. Grantovske, I.S. Braginskiy, I.S.Dkanov, A.O.Makolevskiy, V.G.Lukononin** kabilar tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

³ K.U. Najmiddinova. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madanitning o‘rni. Monografiya.Toshkent. “Adolat”.2016.-B.6.(224)

Zardushtiylikning falsafiy-axloqiy muommolari xorijiy tadqiqotchilardan **G.S.Neyberg, B.Rassel, M.Genri, V.B.Hen** va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lib, hind olimlaridan **F. Bode, P.Sanjan, J.Tavadia, N.Taraporevalar** Zardushtiylik axloqi muommolari tadqiq etganlar. Turk ilohiyotshunos olimi **Abdurahmon Qoya** o'zining "Islom axloqi" asarida islom axloqining mohiyati, uning inson kamolotidagi o'rni va ahamiyatiga to'xtaladi. Shu o'rinda **I.M. Steblin-Kamenskiy** tarjimasidagi "Avesto", Tanlangan madhiyalar" asari bizga Markaziy Osiyo xalqlari ilk ajdodlarining pedagogik qarashlari haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi⁴. **O.M.Chunakovning** "Solihlarning yo'l va yo'llarini o'rganish" asari qadimgi paxlaviy tilida yozilgan bo'lib, saqlanib qolingani yigirmata matnida islomgacha bo'lgan pedagogik tafakkurga oid ko'plab muhim ma'lumotlar keltirilgan⁵. Zardushtiylar orasida yashab ularning hayot tarzini o'rgangan mashhur ingliz olimi M.Boys "Zardushtiylar. E'tiqod va urf-odatlar" asarida zardushtiylik dini izdoshlarining e'tiqodlari va marosimlariga keng to'xtalgan bo'lsada, pedagogik masalalarga yetarlicha ahamiyat qaratmaganligini ko'rishimiz mumkin. Zardushtiylikning davridagi ta'lim va tarbiya masalalariga bir qator rus tadqiqotchilari, jumladan, B.A.Ranova⁶, V.A.Vsilenko⁷, M.C.Асимова⁸, A.F.Leonev⁹ va boshqalar to'xtalib o'tishgan. Eronlik olim A.Bexzon o'zining "Islomgacha bo'lgan Eronda ta'limga nazar" asarida islomdan oldingi davr pedagogik tafakkuri masalasiga batafsilroq to'xtalgan holda, zardushtiylardagi bola tarbiyasining ayrim shakllari,

⁴ Авеста.Избранные гимны.(Пер.с авест.и коммент.проф.И.М.Сте-блин-Каменского. Душанбе.:Ддиб,1990.~ 176с.

⁵ Низами Арузи Самарканда.Собрание редкостей или Четыре беседы.М. :Изд.вост.лит.,1963.- 173с.

⁶ Струве В.В.Восстание в Маргиане при Дарии1. М.,1949.

⁷ Гафуров Б.,Прохоров Н. Таджикиский народ в борьбе за свободу и независимость своей Родины.Госиздат при (Ж Тадж.ССР.Сталинабад, 1944. 212с.

⁸ Бартольд В.В.История культурной жизни 1Уркестана.Соч.Т.11, ч.1,М.:ИВЛ,1963.-657с.

⁹ Максуд К.М.Назидание воспитывает несовершеннолетних /"Оиузгор",1992,№6 (на тадж.яз.).15С.Макдиси Дж.Суннитское возрождение.Мусульманский мир.(950-1150).М.: "Наука",1981.

usullari va maqsad va vazifalari haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi¹⁰. Islomgacha bo'lgan davrdagi tarbiyaviy qarashlarni o'rganishda xorijiy olimlardan E.Braun, A.Kristinsen, A.Altekar, B.Lazsberger, A.Arberi, R.Fray va boshqalarning tadqiqot ishlarini alohida qayd qilishimiz lozim. E.Braun Zardushtiylikdagi pedagogik g'oyalarga to'xtalib o'tsada, islomgacha bo'lgan davr adabiy yodgorligining axloqiy ahamiyatini yetarlicha ochib bera olmaydi. Ammo Zardushtiylik va islom dinlaridagi tarbiya masalasi qiyosan kam tadqiq qilingan.

¹⁰ Асад Бежан.Чашмандози тарбият дар Эрони пеш аз ислом. (Взгляд на воспитание доисламского Ирана) .Тегеран,1315С(1937), на персидском языке.- 172с.

I BOB. “AVESTO”DAGI TARBIYAVIY QARASHLAR VA ULARNING KOMIL INSONNI TARBIYALASHDAGI O’RNI

- ❖ Din - ma’naviy-ruhiy tarbiyalashda muhim omil
- ❖ Zardushtiylik mafkurasining barkamol avlod tarbiyalashdagi ahamiyati
- ❖ Zardushtiylikda komil inson masalasi va “Avesto” pandnomalarning pedagogik mohiyati
- ❖ Zardushtiylik dinida poklik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik hamda oila muqaddasligining ulug’lanishi

I.1. DIN-MA’NAVIY-RUHIY TARBIYALASHDA MUHIM OMIL

Bugungi globallashuv sharoitida turli mazmun va shakldagi mafkuraviy tahdidlarning kuchayib borishi insoniyatni kelajak avlod tarbiyasida yanada sergak bo‘lishga da’vat qilmoqda. Yoshlarimizda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, vatanga muxabbat ruhida tarbiyalash jamiyatimizning, hukumatimizning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O’sib kelayotgan yosh avlodning o’zligini tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg’onishini ta’minlash mamlakat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev “Bolalarimizni birovlarining qo’liga berib qo’ymasdan, ularni o’zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko’proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muommolarini yechish uchun amalaiy ko’mak berishimiz lozim. Mazkur vazifalarni bajarishda asrlar davomida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimiz boy merosiga tayanamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa endi hayotga kirib kelayotgan og’il-qizlarning amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana ulug’ allomamiz nima deb yozganlar **“Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo’lishi, baxtli bo’lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo’lishi yoki zaif bo’lib xorlikga tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tiboridan qolib, o’zgalarga tobe**

va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalalikdan olgan tarbiyalariga bog'liq", -deya ta'kidlab o'tdilar¹¹.

Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli beqiyos. Tarbiyaning, ma'rifiy ishlarning maqsadi kishilarni mavjud sharoitlar va vaziyatlarga moslashtirish emas, balki taraqqiyot, istiqbol uchun faollikga safarbar etish, ya'ni jamiyat talablariga mos avlodni tarbiyalash hisoblanadi. Har qanday tarbiyadan ko'zlangan maqsad ko'lami jihatdan kengroq, ahamiyati jihatdan muhimroq bo'ladi. Bu maqsadlar turli falsafiy, diniy-orifiy qarashlarda, ijtimoiy, siyosiy ta'limotlar, mafkuraviy g'oyalar tizimida namoyon bo'ladi. Tadqiqotchi olimlar insoniyat hayotida ilk tarbiyaviy qarashlar qachon va qaerda shakllangan degan masalada deyarli bir xil, ya'ni dastlabki stixiyali qarashlar odamzodning shakllanish davridan boshlangan degan fikrni ta'kidlashmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir millat, hamda elatda u qanday shakl mazmunda bo'lmasin insoniyat hayoti ibtidosidan boshlab tarbiyaviy qarashlar paydo bo'lgan. Dastlabki tarbiyaviy qarashlar alifbo yaratilishiga qadar xalq donishmandligi sifatida avloddan avlodga yetkazilgan. O'zbek xalqining pedagogik tafakkuri inson haqidagi falsafiy, diniy, axloqiy va boshqa ta'limotlarning tarkibiy qismi bo'lib, dastlab mustaqil bilim sohasi sifatida mavjud bo'lmagan. Jamiyat taraqqiyotining umumiy tarixiy jarayoni, ishlab chiqaruvchi kuchlar, ishlab chiqarish munosabatlari, fan va ta'lim, xalq ma'naviy hayotining rivojlanishi bilan bevosita uzviy bog'liqdir.

Pedagogik qarashlar muayyan bir tarixiy davrda shakllangani va rivojlangani sababli tarixiy jihatdan o'rganish ahamiyatli hisoblanadi. Tarbiyaning tarixiy asoslari haqida so'z yuritganda, diniy qadriyatlar va xalq pedagogkasiga oid manbalar muhim ahamiyatga ega.

Dinning paydo bo'lishi va rivojlanishini ilmiy asoslarda o'rganish quyidagilarga ajratiladi: a) ob'ektivlik; b) muayyan tarixiy sharoitni hisobga olish;

¹¹ "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021 ISSN 2181-063X
530 <http://oac.dsml-qf.uz/>

v) ilmiylik; g) qiyosiylik; d) umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liqlik; f) din mavjudligini, umuman gnoseologik, ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik sabablarni hisobga olishni taqozo qiladi. Insonlar e’tiqodini, shu jumladan diniy ongning shakllanishiga xizmat qiladigan vosita bilim va g‘oyalardir. Inson e’tiqodsiz, g‘oyasiz, tafakkursiz yashay olmaydi. Din bu- insonlarni ma’rifatga boshlovchi, undagi hayvoniy nafsni cheklovchi, jamiyatni harakatga keltiruvchi, tartibga soluvchi, unga hayotda ishonch va umid bag‘ishlovchi kuchli mafkura, shu bilan birga inson uchun kuchli ta’sirga ega ijtimoiy ehtiyoj hamdir. Din - xudo yoki xudolar, g‘ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. Din muayyan ta’limotlar, his-tuyg‘ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlar orqali namoyon bo‘ladigan, olam yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o‘ziga xos usuli. Mahalliy etnologlarimizdan **A.Ashirov** dinga shunday ta’rif beradi: **“Din, tarix, falsafa, qadriyatlar, urf-odat va shu muazzam daraxtning shoxlari, xalq ijodi, dunyoqarashi, fikriy kashfiyotlari esa uning ildizidir”**¹². Mashhur ingliz faylasufi **K.Douson** **“Din tarix uchun kalitdir va agar biz madaniyatning o‘zini anglamas ekanmiz madaniyatning o‘zini tushuna olmaymiz”**, -degan edilar. Bunda olim dinning ham va axloqning ham ob’ekti inson ekanligi, ularning talablari hamisha bir-biriga mos tushishini ta’kidlaydi. Dinni yaxlit tizim sifatida qaraydigan bo‘lsak, uning mohiyati axloqiy me’yorlardan iborat. Ammo axloq bilan dinning farqi shundaki, axloq normalari erkin, dindan mustaqil e’tiqodlarga asoslanadi. Axloq qoidalariga rioya qilmaslik esa vijdon azobi, uyat hissi, jamiyat oldida javobgarlik bilan ta’minlanadi. Ammo diniy qoidalar ma’lum bir din doirasida qabul qilinib, unga amal qilish o‘sha dinga e’tiqod qiluvchilarga majburiy hisoblanadi. Din insoniyat hayotining tarkibiy qismi bo‘lib, muqaddas kitoblarida belgilangan axloqiy me’yorlari orqali inson hayotini uning faoliyatini tartibga soladi. Dinda ma’lum bir zararli oqibatga olib keluvchi harakat **“tabu” yoki “gunoh”** tarzida talqin etiladi. Axloqda esa ma’lum bir axloqiy normaning bajarilishi yoki ta’qiqning amalga oshirilishi ilohiy emas, ijtimoiy mazmunga ega.

¹² А.Аширов.Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари.Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси босмахонаси.Тошкент-2007.-Б.276.

Dinning jamiyat hayotida dunyoqarashni shakllantiruvchi, kompensatorlik, integrativ, kommunikativ, legitimlik kabi funksiyalari insonni boshqarishda, uning harakatlarini tartibga solishda va hayvondan farqli ravishda ma'naviylashishida muhim omil hisoblanadi. Din ming yillar davomida insoniyat hayotining hamma tomonlari bilan chambarchas bog'lanib uning turmush tarziga aylangan. Diniy qadriyatlar insonlarda insof, iymon, vijdon, birovlarining haqqiga hiyonat qilmaslik, o'g'rilik qilishdan tiyilish, halol va haromni farqlash, insonparvarlik, hayr-ehsonli bo'lish kabi fazilatlarni shakllantiradi. Milliy va diniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi esa inson va jamiyatning ma'naviy jamlanishiga xizmat qiladi. Xalq pedagogikasining shakllanishida din eng muhim omillardan hisoblandi. Har bir dinda nikoh va oila masalasi, nasl davomiyligi va farzandlar tarbiyasi masalasi e'tirof qilingan, hamda o'zaro munosabatlarning me'yorlari ishlab chiqilgan. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalq pedagogikasining ahamiyati xususida mashhur nemis faylasufi I.Kant **“Tarbiya shunday san'atki, uning ijrosi ko'plab avlodlar tomonidan takomillashtirilib borilmog'i lozim”, har qaysi avlod o'zidan oldin o'tgan avlod bilimi bilan qurollanib, shunday bir tarbiyani vujudga keltira olishi mumkunki, toki u insonning barcha tabiiy qobiliyatlarini proporsional tarzda maqsadga muvofiq ravishda rivojlantira borib, butun insoniyatni o'z orzu, maqsadlari sari yetaklay olsin**”¹³, - deya haqli fikrni aytgan edilar. Kant tarbiyani inson zimmasidagi eng qiyin vazifa sifatida ko'rsatadi. Insonda tushunish, ong tarbiyaga bog'liq va tarbiya o'z navbatida tushunish va ongga bog'liqligi sababli, ma'lum bir avlod o'z bilim va tajribalarini keyingi avlodga yetkazishi, u ham uni davom ettirib, kelasi avlodga oshirsa, ana shundagina tarbiya astari to'g'risida haqiqiy tushuncha paydo bo'lishini ta'kidlaydi. Kant insoniyatning ikkita ixtirosi: boshqarish va tarbiya san'atini eng og'ir ish, ya'ni shu kungacha bahsga sabab bo'lib kelayotganligini ta'kidlagan holda, insonni tarbiyalash inson o'zini-o'zi boshqarishga tayyor bo'lguncha davom etishi lozim deydi. O'tmishdagi pedagogik an'alariga

¹³ И. Кант. Педагогика тўғрисида. М. Акбаров таржимаси. “Niso-Pligraf”/Тошкент. 2013.-Б.34.(232)

qiziqish o'z-o'zini anglashning o'sishi, yangi tarixiy sharoitlarda ta'limning eng samarali shakl va usullarini qayta tiklashga intilish bilan bog'liq. Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik madaniyatining boy merosi uni o'rganish zarurati pedagogik meros tarixini yoritishning rasmiy talablari bilan emas, balki yosh avlodni ta'lim amaliyoti, ajdodlari ijtimoiy tajribalari bilan tanishtirish, ularda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik qarashlarini o'rganishning markaziy muommalaridan biri pedagogik bilimlarning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixidir. Markaziy Osiyo xalqlari ta'lim-tarbiya amaliyoti, pedagogik tafakkuri ibtidoiy davridayoq vujudga kelgan bo'lib, islom dini paydo bo'lgunga qadar uzoq va mashaqqatli taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan.

Arxeologik materiallar va tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, O'rta Osiyoga islom kirib kelguncha ajdodlarimiz zardushtiylik, shomonizm, buddizm, xristianlik kabi ko'plab dinlarga e'tiqod qilganlar. Ota-bobolarimiz islomgacha bo'lgan davrda asosan Zardushtiylik diniga e'tiqod qilganligi bizga ma'lum. Islom dini kirib kelishiga qaramay mazkur dinlar bilan bog'liq marosim va urf-odatlarni butkul yo'qolmagan. Etnolog olimlarimizning fikricha, hozirgi kunda xalqimiz hayotida islom, zardushtiylik va boshqa idtidoiy dinlar bilan bog'liq an'ana, marosimlari sinkretlashgan tarzda saqlanib kelinmoqda. Mahalliy etnolog olimlarimizdan A.Ashirov¹⁴ mahalliy aholi hayoti, turmush tarzida dinlarning qorishuvini tizimli o'rganligini alohida e'tirof qilishimiz darkor.

Antik davr mutafakkiri Aristotel axloqning jamiyat hayotidagi ahamiyati to'g'risida shunday degan edi: "Tabiat inson qo'liga qurol - aqliy va axloqiy kuch bergan, ammo u shu qurolni teskari tomonga ham ishlatishi mumkin. Shu sababli axloqiy tayanchlari bo'lmagan odam, eng insofsiz va yovvoyi, o'zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudot bo'lib qoladi". Mutafakkir axloqsiz insonni hayvondan farqli tomoni yo'qligiga sha'ma qiladi. Aristotel insonning jismoniy va ruhiy holatidagi bog'liqlikni asoslashga harakat qiladi. Yunon mutafakkirlaridan

¹⁴ A.Ashirov. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi bosmaxonasi. Toshkent-2007. -B.276.

Suqrot, Demokrit va Aflotunlar ham axloq masalasiga alohida to'xtalganlar. Jumladan, Suqrot yunon olimlari ichida axloqning bilim bilan bog'liqligini ta'kidlab, "Mard bo'lish uchun, mardlik haqidagi bilimlarni egallash kerak", "Qanoatli bo'lish uchun hissiyotlarga yo'l qo'ymaslik kerak", "Adolatli bo'lish uchun, bировlarga qanday yaxshilik qilishni o'rganish kerak", - deya ta'lim beradi. Aflotun yaxshilik g'oyasi haqida fikr yuritib, yaxshilik g'oyasida go'zallik, me'yor, haqiqat kabi tushunchalar uyg'unlashgan bo'lishini bayon qiladi. U ta'lim va tarbiya insonning butun hayoti davomida davom etadigan uzluksiz jarayon ekanligini ta'kidlagan holda, inson hayoti ritm va uyg'unlikga muhtojligini ta'kidlaydi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning jamiyat hayotidagi o'rnini yuksaltirish, yosh avlodni eng ilg'or an'analar va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash muhim. Barcha mamlakatlarda yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash vazifasi o'z mohiyatiga ko'ra murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, nazariy va amaliy yondashuvni talab qiladi. Shuni inobatga olib, avvalo "ma'naviyat" va "tarbiya" tushunchalarining mohiyatini aniqlashimiz zarur, deb hisoblaymiz. Ma'lumki, ma'naviyat har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalaydi. Ayni paytda o'z vataniga cheksiz mehr-muhabbat tuyg'usini singdirib, yoshlarda chinakam vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalaydi. Ularni o'zining buyuk kelajagining eng ezgu bunyodkorlik ishlarida faol ishtirok etishga undaydi. "Ma'naviyat" (arabcha "manaviyat" ma'nolar majmui) insonlarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy g'oyalari va tushunchalari, fazilatlar, qobiliyatlari, orzu- istaklari, kechinmalari majmuidir. Ma'naviyat insonning falsafiy, huquqiy, diniy-axloqiy g'oyalarini o'zida aks ettiruvchi manba bo'lib, shu asosda odamlarni yaqinlashtiradigan, ularni birdamlikka erishishga yordam beruvchi, jamiyatning yangi qirralarini ochuvchi xazinadir. Ma'naviyat yoshlarni zamonaviy bilimlarni, yuksak tajribalarni puxta egallashga, kelajakda yurt koriga yaraydigan avlod bo'lib tarbiyalanishida asosiy kuchdir. Ma'naviyat chuqur va keng ma'noga ega bo'lib, insonni ongi, idroki va tafakkuri bilan barcha tirik mavjudotlardan keskin ajratib turadi, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, insonparvarlik, saxovatpeshalik ruhida tarbiyalashga chaqiradi. Ma'naviyat qanchalik rivojlangan

bo'lsa, jamiyat farovonligi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha, ma'naviyat qanchalik past bo'lsa, jamiyat oxir-oqibat tanazzulga yuz tutadi. Ma'naviyat – millat va jamiyat taraqqiyotining muhim omili va poydevori. Demak, ma'naviyat juda keng tushuncha bo'lib, ta'lim, madaniyat, axloq, san'at, adabiyotni o'zida mujassam etgan. Ma'naviyatning mazmun-mohiyati shu qadar chuqur, cheksizki, uni o'lchab, chegaralab bo'lmaydi. U insonni, millat va jamiyatni yuksaltiradi. Inson va jamiyat ma'naviyati o'z mohiyatiga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lib, bir-birini to'ldiradi va boyitadi¹⁵.

Inson ma'naviyati, shaxsning ma'naviy kamoloti jamiyatda mavjud imkoniyatlar, shart-sharoitlar, sharoit, ko'p qirrali munosabatlar asosida shakllanadi va amalga oshiriladi. Millat, davlat va jamiyatning madaniy-ma'naviy yuksalishi esa insonning ma'naviy kamolotining asosidir. Ma'naviyat – insonning tarbiyasi, vatanparvarligi, axloq va xulq me'yorlari, mehnatsevarligini aks ettiruvchi ichki tuyg'ular majmuasidir. Zero, ma'naviyat eng qadrlil fazilat va qadriyat bo'lib, jamiyat taqdirida muhim bo'lgan shaxsni shakllantiradi. Inson ma'naviyatining mazmun-mohiyati aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy fazilatlarning uzviy zanjiri ekanligini ko'pchilik olimlar chuqur tahlil qilganlar. Vatanparvarlik, milliy g'urur tuyg'usi kabi fazilatlar; ona tiliga muhabbat, tabiatni asrash, har qanday sharoitda ham qo'llab-quvvatlash, milliy qadriyatlarga, milliy urf-odatlariga, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish bevosita ma'naviyat bilan bog'liq.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, yoshlarda halollik, iffat, burch, vijdon, olijanoblik, fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Axloq keng tushuncha sifatida inson faoliyatining barcha sohalariga ta'sir qiladi. Axloq barcha sohalar: ishlab chiqarish, hayot, oila, odamlarning xulq-atvori, insoniy munosabatlarini tartibga soladi. Axloq ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan farq qilib, iqtisodiy,

¹⁵ Axmedjanov, M. M. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tushunchasi va ehtiyoji / M. M. Axmedjanov, Sh. Sh. Olimov. — Matn: darhol // Yosh olim. - 2010. - No 11 (22). - T. 2. - B. 100-102. — URL: <https://moluch.ru/archive/22/2227/> (kirish sanasi: 09.09.2023).

siyosiy, ma'naviy vazifalarni bajaradi, odamlarni yagona maqsad – jamiyatni mustahkamlash sari yo'naltirishda muhim o'rin tutadi. Axloq dunyoni anglashning o'ziga xos usuli bo'lib, odamlarning xulq-atvorini ezgulik va yomonlik nuqtai nazaridan tartibga soladi. Shaxs uchun muhim bo'lgan xulq-atvor normalarini shakllantirib, ijtimoiy qadriyatlar dunyosiga to'g'ri yondashish vazifasini bajaradi. Axloq odamlarning xulq-atvorini me'yorlashtirish, taqiqlash, baholash orqali vijdon va burch kabi fazilatlarini shakllantiradi. Vijdon insonni ezgulikka chaqiradi, yovuzlikka qarshi turishga, burch esa mumkin bo'lgan mas'uliyatni ado etishga, qadr-qimmat, g'ururni halol va vijdonan saqlashga chaqiradi. Insonning dunyoqarashi bevosita axloqiy vazifalar bilan bog'liq. Bu insonning qadr-qimmatini, dunyodagi o'rnini, hayotning ma'nosini, jamiyatga bo'lgan munosabatini, mas'uliyatini, shuningdek, uning hayot idealini aniqlashni talab qiladi. Axloq - bu odamlarning o'zaro munosabatlarida, oila, jamiyat bilan munosabatlarida o'z ifodasini topadigan xatti-harakatlar, xulq-atvor va odob-axloq majmui. Axloqiy talablarning bajarilishi yoki bajarilmasligi ma'naviy ta'sir shakllari (jamoatchilikdan baholash) bilan belgilanadi. Insoniyat taraqqiyotida axloq alohida o'rin tutadi. Sharqning buyuk ma'rifatparvarlari axloqiy kamolotni, har tomonlama kamolotni, shaxsning ma'naviy qiyofasi shakllanishini jamiyat taraqqiyotining muhim omili deb bilishgan. Inson axloqiy, madaniy-ma'rifiy yuksalish jarayonida turli tarixiy bosqichlarni – vahshiylikdan insoniylikka, shafqatsizlikdan xayr-ehsonga, jaholatdan bilimga o'tadi, jamiyat ham xuddi shu tartibda rivojlanadi. Ikki qarama-qarshi kuch yovuzlik va ezgulik, jaholat hamda kamolotning o'zaro kurashi insoniyat, jamiyat taraqqiyotini belgilab beradi, o'z o'rnida insonning idrok egasi sifatida o'zini o'zi bilishiga olib keladi. Bu ikki qarama-qarshi kuchning jamiyatga nisbatan kurashi unda mavjud ijtimoiy munosabatlarda, shaxsning o'ziga nisbatan esa ehtiros, ruh, aql va telbalikning ichki kurashida namoyon bo'ladi. Axloq ma'lum bir jamiyatda, ma'lum bir bosqichda o'zgarishlarga uchramaydi, rivojlanmaydi va yo'qolmaydi. Har bir millat va elatning o'ziga xos axloqi umuminsoniy axloq me'yori. Bu axloq me'yori jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Axloqning

muhim tushunchalari mavjud bo'lib, ta'lim insoniyatni ularga rioya qilishga yo'naltiradi. Bular yaxshi amallar (sadaqa), sabr-toqat, sabr-toqat, rostgo'ylik, so'zgo'ylik, ota-onaga, kattalarga hurmat, or-nomus va vijdon, fidoyilik va boshqalardir. Salbiy xulq-atvor tushunchalarining mazmun-mohiyatiga ishora qilib, tarbiya ochko'zlik, hasad, manfaatparastlik, yolg'onchilik, takabburlik, g'iybat, xiyonat, buzuvchilik kabi ko'rinishlardan extiyot bo'lishga chaqiradi. Bu tartibda insoniyatning barcha amaliy faoliyati yaxshilik va yomonlikka bo'linadi. Kishilarning o'zaro mehr-oqibat va saxovatpeshalikka da'vat etishi, noloyiq ishlardan o'zini tiyishi ularning axloq-odobga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Hozirgi ta'lim tizimida axloqiy muammolarga katta e'tibor berilmoqda. Shaxslararo munosabatlarda, o'zaro muloqotda, xulq-atvor qoidalarida, urf-odatlar va marosimlarda unutilgan qadriyatlar qayta tiklana boshladi. Insonning borlig'i, hayotining go'zalligi uning yuksak ma'naviyati va ma'rifati orqali namoyon bo'ladi. Inson mohiyati haqida birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" nomli asarlarida: "Bir so'z bilan aytganda, inson o'z timsolida ham moddiy ham ma'naviy xususiyat va alomatlarini mujassam etgan noyob xilqat, yaratganning buyuk va sirli mo'jizasidir. Shuning uchun ham uning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglash va tushunishning o'zi o'ta murakkab bir masala" degan edi.

Ma'naviyat faqat insonga xos bo'lgan hodisa. Inson tashqi ko'rinishi shaklu-shamoili jasadini qanchalik pokizalab chiroyli qilishga intilsa, ichki dunyosi ruhiy holatini ham undan-da go'zal undan-da chiroyli pokiza qilishga intilishi lozim. Inson ichki olami bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarini Qur'oni karim, hadislar, odob-axloq vatan haqidagi kitoblar va fanlar bilan qondiradi. Axloq, ma'naviy meros hamda qadriyatlar ma'naviyatning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Inson axloqi shunchaki salom-alik xushmuomalalikdangina iborat emas, balki u avvalo insof va adolat tuyg'usi, imon halollik deganidir.

Inson ruhida azaldan yaxshilikka,ezgulikka va go'zallikka intilish tuyg'usi kuchli bo'ladi. Ma'naviyatning birlamchi asosi shu. Bu asosni qancha tarbiyalab,

rag‘batlantirilsa, inson shuncha komillikka intilib kamol topadi. Bo‘lmasa aksincha xatti-harakatlari yaxshilik tuyg‘usiga asoslanib qolishi ham mumkin.

Ma‘naviyat va moddiyat o‘zaro munosabatda aloqada bo‘ladi. Yuksak ma‘naviyat bo‘lmagan joyda moddiyat ham rivojlanmaydi, yoki aksincha. Agar insonlar halol, pok aqlli bilimli qonun- qoidaga rioya qilmasa, unday jamiyatning iqtisodiyoti gullab yashnashi moddiy jihatdan taraqqiy etishi qiyin.

Qush bir qanoti bilan ucha olmaganidek ma‘naviyat yo‘q joyda moddiyat yoki moddiyatsiz ma‘naviyat o‘zining cho‘qqisiga chiqa olmaydi. Har bir ma‘naviyatli, ongli insonda vatanidan faxrlanish tuyg‘usi bo‘lishi, unga munosib bo‘lishga harakat qilishi lozim. Uni rivojlantirish, shakllantirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida to‘g‘ri tarbiyalash har bir davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifadir. Bolalarda vatan tuyg‘usini tarbiyalash, ajdodlar o‘tmishi, kechinmalari, madaniyati jahon fan va madaniyati sohasida tutgan o‘rni haqida ma‘lumot berish muhim ahamiyatga ega.

Milliy taraqqiyot hech bir zamonda, to‘siqlarsiz amalga oshmagan. Uning shakllanish jarayonidan boshlab to hozirgacha o‘tgan davrida doimo qiyinchiliklar, muammolarga ro‘baro‘ bo‘lib kelgan. Bu jarayonning xarakterli tomoni shundan iboratki, uning rivojlanishi uchun imkoniyatlar kengayib borgan sari muammolar kamayish o‘rniga, aksincha ularning ko‘lami ham kengayib kelgan.

XIX asrda dunyoda yashayotgan millatlarning aksariyati taraqqiy qilgan mamlakatlar tomonidan bosib olingan va ular XX asrgacha mustamlaka holatida yashagan bo‘lsalar. Ammo XXI asr boshiga kelib insoniyat oldida yangi global muammolar paydo bo‘ldi. U ham bo‘lsa, jahonda avj olayotgan globallashuv bilan bog‘liq muammolardir. Uning ta’siri ostida mamlakatlar va ularda yashayotgan xalqlarning o‘zaro yaqinlashuvi ham tezlashmoqda. U kam taraqqiy qilgan yoki endi taraqqiyot yo‘liga kirgan mamlakatlarning qaram bo‘lib qolish xavfini tezlashtiradi.

I.2. ZARDUSHTIYLIK MAFKURASINING BARKAMOL AVLOD TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI

Millat va jamiyat taraqqiyoti axloqiy tarbiya masalasi bilan chambarchas bog'liq masala ekanligi insoniyat tajribasida o'z isbotini topgan. Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar bilan birga ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, shakl va usullari o'zgarib boradi. Qaysiki xalq axloq masalasiga qadriyatli yondashsa, milliy tarbiya poydevorini mustahkam asoslarda barpo qilsa, shubhasiz jamiyat barqaror rivojlanadi va taraqqiyotga erishadi¹⁶. Uch ming yillik tarix silsilasida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan xalq pedagogikasi namunalari Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, dini, madaniyati, ajdodlarimizning farzand tarbiyasi borasidagi boy tajribalari haqida ma'lumot beruvchi eng qadimgi yozma manba "Avesto"da o'z aksini topgan. Zardushtiylik dinidagi ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganishda Markaziy Osiyoni arxeologik jihatdan o'rgangan tarixchi-arxeologlar xizmati nihoyatda katta. Professor **Iso Jabborov**ning yozishicha, S.P. Tolstov boshchiligidagi arxeologik ekspedisiya qazishmalar paytida Xorazmdagi Tuproqqa'la va Jonbosqa'la xarobalari hududida topilgan ibodatxonalar bir necha binolardan iborat bo'lib, binolarning o'rtasida bir qancha panjara bilan o'ralgan to'rtburchak shaklidagi imorat joylashgan. Shuningdek, ibodatxonalar yonida ikki qavatdan iborat chiroyli uchburchak bino borligi, unda yuzdan ortiq xona borligi aniqlandi. Har bir xona maxsus bezak bilan bezatilgan. Ma'muriy va xo'jalik masalalariga bag'ishlangan xonalardan teri va yog'ochdan yasalgan 140 ta xujjat, 138 ta katta-kichik haykallar, odamlar, qushlar, hayvonlar tasvirlarlari, uchburchak cholg'u asbobida (arfa) chalayotgan ayol haykali topilgan. Otashkad davlatning jamoat, ma'rifiy hayotida alohida o'rin tutgan. Arxeologlar ularda ta'lim muassasalari bilan bir qatorda tibbiy muassasalar ham bo'lganligini aniqlashdi. Otashkadlar turli xujjatlar va diniy kitoblar saqlanadigan maxsus idoralarga ham xizmat ko'rsatgan. Bu yerda Zardusht qasidalari kitobdorlar tomonidan ko'p nusxada ko'chirilib, alohida kitob holida saqlangan. Otashkad muhim marosimlar

¹⁶ Кошанова Н.М. Авесто халқ педагогикасининг қадимий манбаси сифатида.// Academic Research in Educational Sciences Volume 3/Issue5/2022/.-P.830-837.

bajariladigan markaziy joy bo'lib, unda "Sidrapushi", "Qamarbaston" marosim imtihonlari o'tkazilgan. Bunda balog'at yoshiga yetgan har bir zardushtiy e'tiqodli kishi "Yasna" boblari soniga mos ravishda 72 ta jun ipdan tikilgan kamar taqishi lozim bo'lgan. Kamar beliga uch marta o'ralgan¹⁷.

Bundan tashqari jangchilarni safarbar etish, ariqlar qazish, hasharlar, turli bayramlar va sayllarni uyushtirish ham otashkad faoliyati bilan bog'liqligi aniqlandi. Demak otashkad - zardushtiylik dinining asosiy ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy masalalar hal etiladigan markaziy joyi hisoblangan. Otashkada xom va pishgan g'ishtdan qurilgan. Markaziy Osiyoda Urganch, Termiz, Marv, Mexan (Turkmaniston) kabi qadimiy qadimiy shaharlarda uning qoldiqlari topilgan. Mahalliy olimlarimizdan **A.Asqarov** Surxondaryodagi Yorquton xarobalarida olib borilgan qazishmalar davomida yuzlab xujralardan iborat otashkad qoldiqlarini topadi. Zardushtiylar ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan otashkad qoshidagi maktablarda diniy, dunyoviy ahamiyatga ega qo'lyozma kitoblar saqlanilgan va ta'lim jarayonida foydalanilgan. Zardushtiylarda ibodatxonadagi otashkadlar yonida podsholik huzuridagi alohida maktablar, bilim dargohlari tashkil qilingan. Ta'lim tizimida hisob-kitob, astronomiya, tib ilmi, tarix, huquqshunoslik kabi fanlar o'qitilgan.

Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi qadimgi davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy o'ziga xos xususiyatlari mintaqa pedagogikasi rivojida sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Din shakllangan davrda, ya'ni miloddan avvalgi 1-ming yillikda jamiyatdagi iqtisodiy inqirozlar, odamlarni ijtimoiy qarama-qarshiliklardan chiqish yo'llarini izlashga majbur qiladi. Zardushtiylik behuda qon to'kuvchi qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o'troq osoyishta hayot kechirishga, mehnatga dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat qiladi. Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikga qarshi kurash deb hisoblaydi. «Avesto» da moddiy va ma'naviy olamning ajralmas birligi ta'kidlanadi. Inson hayotining istiqboli moddiy emas, balki ma'naviy omillar

¹⁷ Қобилжонов Қ. Сут начального воспитания зороастрицы. Центр научных публикаций (BuxDu .Uz), 8(8) https://journal/buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5942 C-20-31

bilan belgilanadi. Zardushtiylikda insonning mangu, o'zgarmas ma'naviy quvvatga ega bo'lishi, moddiy olamning tartib va intizomi jamiyatning barkamol rivojlanishining shartlaridan biri ekanligi targ'ib qilinadi. Bunda hayotning pirovard maqsadi shaxs o'z mehnati, intilishi, tashabbusi bilan nafaqat hayoti uchun zarur bo'lgan ne'matlarni qo'lga kiritadi, balki odamlarga ham naf beradi, shu orqali umumiy yaxshilikning amalga oshishiga hissa qo'shadi deyilgan¹⁸. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov haqli ravishda ***“Avesto ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat buyuk madaniyat bo'lganligidan guvoh beruvchi tarixiy xujjatdirki, uni hech kim inkor eta olmaydi”***, -degan edilar¹⁹. Zardushtiylik dini ta'limoti bayon qilingan “Avesto” kitobida dunyoni falsafiy idrok etish, ma'naviy ruhiy poklanish, inson ma'naviy - axloqga chuqur kirib borish bilan birga inson burchi, go'zallik, ezgulikni anglash singari masalalar bosh mavzu hisoblanadi.

Ta'lim nafaqat bolalarni hayotga tayyorlash vositasi, balki jamiyatda insonlarning turmush darajasini yaxshilashning eng muhim vositasi sifatida qaraladi. Bunda Zardushtiylik-jamiyatda adolatli munosabatlar o'rnatish, yaxshilikning zulmat ustidan g'alabasini ta'minlashga qarshi qaratilgan ta'limot sifatida yuzaga keldi. Diniy ta'limotga ko'ra ***“Inson bu kurashda oliy kuchlar qo'lidagi o'yinchoq emas, tanlash erkinligiga ega bo'lgan, o'z faolligi bilan dunyoda adolat tantanasiga erisha oladigan shaxsdir”***²⁰. Bunga erishishda esa har bir inson Zardusht ta'limotiga tayanishi lozimligi ta'kidlangan. Ajdodlarimizning bola tarbisidagi boy merosi haqida ma'lumot beruvchi eng qadimiy yozma manba “Avesto” matnlarining asosiy qismi axloqiy masalalarga bag'ishlangan. Shu sababli “Avesto”ni haqli ravishda axloq kodeksi sifatida ta'riflash mumkun. Yodgorlik gatlarining asosiy mazmunini yaxshilikga intilish, halollik, jamoada ishlash, oila axloqining asoslari tashkil qiladi. **M.Xolmatova**

¹⁸ X.X. Муминжанов. Философские проблемы Зороастризма.//докт.дисс.философских наук.2001.Душанбе.

¹⁹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқи.//Мулоқот, –Тошкент:1998, 5-сон.-Б.5-6 .

²⁰ Ислом(Справочник), Тошкент ,1989 йил.Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси , 119.б.

«Yosh avlodni kelajakga ishonch hosil qilish uchun avlodimiz ma'naviy-axloqiy merosini chuqur o'rganib, o'z faoliyat, iste'dod va qobiliyatini hayot yo'nalishini yurt, xalq, davlat maqsadi bilan uyg'unlashtirishimiz lozim», -деган эди²¹.

Zardushtiylik axloqi «Avesto» da yaxshilik va go'zallik, yolg'on, hamda xunuklik inson hayotining qarama-qarshi substansiyasining birligini ifodalaydi. Mazkur dinga ko'ra, axloqiy bo'lgan narsa go'zal, go'zal bo'lgan narsa axloqiydir. Bu birlik ajralgan joyda yolg'on, xunuklik va bevafoqlik boshlanadi. Zero, go'zallikda namoyon bo'ladigan axloqning pirovard maqsadi Axura Mazda obrazini ifoda etuvchi Haqiqat, Ezgulik va Solihlikning ajralmas qismidir²².

“Avesto” matnlaridagi Axura Mazdaning ko'rsatmalarini Zardushtiylikning asosiy axloqiy va estetik g'oyalari sifatida tasniflash mumkin:

- birinchidan, bu g'oyalar yer yuzidagi “Eng buyuk” , “Eng yaxshi” va “eng go'zal” bo'lgan barcha narsalarni rivojlantirishga mustahkam asos bo'ladi;
- ikkinchidan, “eng buyuk”, “eng yaxshi” tushunchalari, albatta, “eng go'zal” tushunchalari bilan bog'liq;
- uchinchidan, zardushtiylik dualizmi mantig'i ezgulik, go'zallikni yovuzlik va xunuklikga qarama-qarshi ko'rsatish bilan bog'liq;
- to'rtinchidan, bu tana illatlari alohida odamlarning illatlari emas, balki Axru Manyuning xiyla-nayranglari va ijodi sifatida qaraladi.

Zardushtiylikdagi tarbiya masalasi, undagi odob-axloq Markaziy Osiyo xalqlarining yuksak ma'naviy qadriyati bo'lib, u yerda inson axloqining asosiy tamoyillari kanonizasiya qilingan:

²¹ Халматова М. Оилавий муносабатлар маданиятини такомиллаштириш ва соғлом авлодни тарбиялаш муаммолари: ф.ф.д. дис. Тошкент Давлат аграр университети. – Тошкент, 1998. 270-бет.

²² Махмудова Г.М. Активный идеал в этике зороастризма в контексте национальной и общечеловеческой духовности. <https://studfile.net/preview/5856403/>

- vatanga muxabbat sifatida yerga muxabbat;
- to'rtta unsur: tuproq, suv, havo, olovga g'amxo'rlik qilish insonning ma'naviy burchining ifodasi sifatida;
- hayoti davomchilari sifatida ayolga va nasliga alohida munosabat;
- mehnatning ulug'lanishi va rag'batlantirilishi;
- nafaqat moddiy dunyoni, balki insonning axloqiy va ma'naviy hayotida ham poklikni tarbiyalash va h.z.

Qadimgi ajdodlarimiz Zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan davrda ta'lim-tarbiya jarayoniga yuksak darajada e'tibor berganligiga "Avesto" matnlari guvohlik bera oladi. Jumladan "Avesto" da kitob o'qishning afzalligi haqida **"Ko'ngil bilan o'qigan pok va ehtiyotkor bo'ladi"**, yoki **"Haomadan nurli farzandlar, solih zurriyotlar dunyoga keladi"**, - deyiladi. Hozirgi kunda texnogen sivilizasiya insoniyat hayotini og'ir mehnatdan xalos qilib kundalik yumushlarini yengillashtirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda yalqovlik, ma'suliyatsizlik, sabrsizlik illatlarini avjlantirmoqda. Ayni paytda yoshlar orasida ilmiy-ommabop va badiiy kitoblarni mutoala qilishga hafsala past darajada. Binobarin, ajdodlarimiz qadimdan kitob mutoala qilish haqidagi o'gitlarini ta'lim-tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashgan. Zardushtiylarning bugungi kungacha bizgacha yetib kelgan **"Dadeston-i Xrad"** (Aql ruhining hukmi), **"Bundahisin"**, **"Arta Viraznoma"**, **"Oyatkor Zareran"** **Viraznoma"**, **"Oyatkor Zareran"**, **"Andaraz - i danag mard"**, **"Rivoyat"**, **"Rost Suxan"** kabi paxlaviy tilidagi qo'lyozmalar ularning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari, ustozning ta'lim oluvchiga, donishmandning yosh avlodga maslahatlarini o'rganish imkonini beradi. Bu qo'lyozmalar ta'lim tizimi, ta'lim jarayoni, ta'lim-tarbiyadagi odob qoidalari, ustozning va ta'lim oluvchilarning vazifalari haqida ma'lumot olish mumkun. **"Andaraz -i danag mard"**(Donishmandlarning nasihati) qo'lyozmasida donishmand o'g'liga yuzlanib **"O'g'lim! Qo'rquvni his qilmaslik uchun gunohsiz bo'ling, loyiq bo'lganingiz uchun minnatdor bo'ling. Boy bo'lish**

uchun aqlli bo'ling. Yaxshi do'stlar borligiga shukur qiling... Ko'rsatma va burchga ko'ra (qarindoshlar va do'stlarga itoat qiling) va ustozingiz bilan janjallashmang...Xotiningiz va bolalaringizga iloji boricha yaxshi va mehribon bo'ling»,-deyilgan. O'g'il farzandning burchlari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi: yaxshi va aqlli do'st topish, o'g'irlik qilmaslik, doimo rostgo'y bo'lish, o'z so'zi va ishlari uchun javobgar bo'lish qobiliyati" va hokazo. «Avesto»da «bola» so'zi 80 dan ortiq marta kelganligi zardushtiylarning bolalarga alohida e'tibor qaratilganligidan dalolat beradi ²³.

«Avesto» da ta'lim hayotning eng muhim ustuni sifatida qaralib har bir inson o'qish va yozishni o'rganib,yuqori darajaga ko'tarilishi uchun bilim olishi kerak deyilgan.²⁴ Zardushtiylikda inson xudoga o'xshashi, ya'ni xudo qudratining bir qismi ekanligi ta'kidlangan. "Avesto" kitob holida to'planayotgan davrda mulkiy tengsizlik kuchaygan va ilk davlatchilik asoslari shakllanayotgan davrga to'g'ri kelganligi bizga ma'lum. "Avesto"ning she'riy tarzda yozilgan matnlarida ko'chmanchi chorvachilikdan ko'ra o'troq chorvachilikning foydali ekanligi, jamiyatga adolatli tartib va boshqaruvning zarurligi, chorva mollarining nobud bo'lishiga olib keladigan qonli qurbonliklarga yo'l qo'ymaslik haqidagi ta'limotlar mavjud. Shu bilan birga, talonchilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchilar hayoti qoralangan. "Yasna"da olamda uchta hayot davri mavjudligi aytiladi:

-birinchi davr - bu ikki dunyoda jismoniy va ma'naviy jihatdan yaxshilik hukmronlik qilgan davr (yer yuzidagi ilk podsho Yima taqiqlangan ishni amalga oshirishi bilan bu davr poyoniga yetgan deyiladi);

-ikkinchi davr - bu davrda yaxshilik va yomonlik ruhlari o'rtasida shiddatli kurash hukm suradigan, ya'ni Axuramazda va Axriman o'rtasidagi kurash davri;

-uchinchi davr - Yaxshilik yovuzlik ustidan g'alaba qozongan davr.

²³ Д.Р. Каримова.Постулаты «Авесты» о правах детей//Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов.2012, 26.11.<http://jurnal.org/article/2012/uri46.html>

²⁴ Маковельский А.О.Авеста-Баку, 1967. –С.28.

“Avesto” da asosiy axloqiy mezonlar **“humata”**-ezgu fikr, **“hukta”**(**gukta**)-ezgu soʻz, **“hvarsha”**-ezgu amaldan iborat. Taniqli tadqiqotchi olim Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi, rus tilshunosi, eron xalqlari folklori va etnografi, shoir va tarjimon Steblin-Kamenskiyning (1954-2018) taʼkidlashicha, Zardusht Axuramazda eʼtiqodini eʼlon qilganida, vaʼzlari yozib olinadi deb oʻylamagan edi. Tadqiqotchi Avestoning dastlab yozib olinmasdan ogʻzaki yetkazilishi sababini qadimgi eroniylarning eʼtiqodi bilan bogʻlaydi. Ular yozuvni Axura Mazdaning dushmani Axru-Manyuning ixtirosi deb oʻylaganliklari uchun muqaddas soʻzlarni yozishmagan degan fikrni bildiradi. “Avesto” da yaxshilik va ezgulik nihoyatda qadrlanganini “Avesto” ning quyidagi matnlaridan anglash mumkun: “Ezgu tafakkur, baraka, hamda ezgu amalni ezgu tafakkur, baraka va ezgu amal bilan ulugʻlayman. Men har qanday ezgu tafakkur, neʼmat va ezgu ishlarga berilib, har qanday yomonlik, tuhmat va yomon ishlardan voz kechaman”²⁵. Tadqiqotchining fikricha, “Insonning yovuzlikga qarshi kurashda ezgu ibtidoaga koʻmaklashuvdagi asosiy burchi, birinchi navbatda, zardushtiylik, ayniqsa, rivojlanishining dastlabki bosqichlarida ibodat va marosimlarini oʻtkazish emas, balki haqiqiy eʼtiqod tomonidan belgilab qoʻyilgan adolatli hayot tarzi: “ezgu fikr”, “ezgu soʻz”, “ezgu ish” boʻlib inson yovuzlik bilan shunday kurashadi”²⁶.

Mazkur din talabiga koʻra, bolalar taʼlim-tarbiyasi diniy-axloqiy, jismoniy, hamda oʻqish va yozishni oʻrgatishdan iborat boʻlgan. Zardushtiylarda boshlangʻich taʼlim 7 yoshdan -15 yoshgacha boʻlgan davrda amalga oshirilgan. Yetti yoshgacha bolalar tizimli ravishda oʻqitilmagan, faqat zardushtiylikning ayrim qonunlari bilan tanishtirilgan. Zardushtiylikda 7 yoshgacha boʻlgan bolalar Axriman (yovuz ruh) gunohlari taʼsiridan xoli boʻladi deb hisoblashgan. Yetti yoshga toʻlgan bolaning yaxshi yomonni ajrata olishi hisobga olinib, unga

²⁵ Авеста:Избранные гимны. /Пер.с.авест.и коммент.проф.И.М. Стеблин-Каменского; Предисл.проф.В.А.Лившица.-Душанбе:”Адиб”,1990,-С.12.(176С)

²⁶ Гафуров Б.Г.Таджики.Древнейшая, древняя и средневековая история. -Душанбе. “Ирфон”:, 1989.- С.78.

muqaddas belgilar bilan maxsus kiyim kiydirilgan. “O‘g‘il bolalar ustozining orqasida quyoshga qarab bir qatorda turishgan holda “Avesto” aqidalarini yod olganlar va “Men fidoiy zardushtiy bo‘lishga qasamyod qilaman, ezgu fikrga, ezgu so‘zga, ezgu ishlarga ishonaman”, deya kuniga besh marta ibodat mashqlarini takrorlashgan. Tojikistonlik akademik **B.G.G‘ofurjonov** fikriga ko‘ra, bu mashg‘ulotlardan maqsad bolalar qalbida barcha ezgulikning yaratuvchisi bo‘lmish Axuramazdaga mehr uyg‘otish va barcha yomonlikning yaratuvchisi Axrimanga nisbatan nafrat uyg‘otish bo‘lgan. Mazkur dinda mehnatsevarlik, adolatlilik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni tarbiyalashga katta e’tibor qaratilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, o‘sha davrlarda ta’limning sinfiy tabiati shundan iborat ediki, agar har bir kishi diniy, axloqiy va harbiy-jismoniy tarbiya olgan bo‘lsa, o‘qish, yozish va hisoblashni o‘rganish faqat imtiyozli sinflarning huquqi bo‘lgan. Aholining boy qatlamlari farzandlari uchun ta’lim olish joyi saroy maktablari, ibodatxonalar bo‘lib, ularga mashhur sarkardalar jang san’atini o‘rgatganlar. Ma’naviy hayotda muhim rol o‘ynagan ruhoniylar o‘qituvchi vazifasini bajargan. Ta’lim berishda ular ko‘rsatish, aytib berish, gapirish usullaridan foydalanganlar. Ovoz chiqarib takrorlash asosida bilimlar mustahkamlangan. Jamoa kuchiga ishonch insonning yovuzlikga qarshi kurashdagi o‘rnini e’tirof etish, mustahkamlashda namoyon bo‘lgan. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, o‘sha davrda insonlar bilim kuchiga, buning natijasida jamiyat hayotida ilm-fan, donishmandlik g‘alaba qozonishga chin dildan ishonishgan. “Avesto” kitobi va uning takomillashuvi qadimgi ajdodlarimiz nafaqat bilim berish bolaning sog‘lom tug‘ilishi haqida qayg‘urganliklaridan dalolat beradi. Zardushtiylikda farzand tarbiyasiga bo‘lgan alohida e’tiborni “Avesto” matnlaridagi quyidagi so‘zlardan bilishimiz mumkun: «Ey, Axura Mazda, ruhingni turli narsalarga gavdalantirgansan, aql-idrok bergansan, tanaga hayot kiygansan. Har kim o‘z hohishiga ko‘ra yo‘l tanlashi uchun amallar va o‘gitlar yaratdi»²⁷. Zardushtiylikda har bir inson tarbiyani hayotning eng muhim ustuni deb bilishi kerakligi ta’kidlangan. “Har bir yosh avvalo odob-axloqni, o‘qishni, keyin yozishni o‘rganib eng yuqori darajaga yetishi

²⁷ Заратустра. Учение огня. Гаты и молитвы. –М.: Эксмо, 2008-С.200.

uchun tarbiyalanishi kerak»²⁸, - deyilgan. Ta'limda dastlab o'qish, yozish, sanash, kamondan otish, otda chopish, diniy qonunlar, qiroat (maxsus intonasiya bilan o'qish) va qo'shiq aytish o'rgatilgan. Sanash va yozish ta'limning eng quyi darajasi, notiqliq va «shirin so'z» boshlang'ich ta'limning eng yuqori darajasi hisoblangan. Voizlar (notiqlar) kotiblar va xattotlarga qaraganda jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lgan. Yozishni va sanoqni yaxshi biladiganlar hunarmandlar qatoriga kirgan, notiqlar esa ruhoniylar va din peshvolari darajasiga erishgan. Mazkur din ta'lim tizimida bilimlarni o'zlashtirish, dars olish va dam olish vaqtlarining aniq ta'rifi ham diqqatga sazovordir. Jumladan, ta'limni kunning boshida va oxirida, kechaning boshida va oxirida bo'lishi kerakligi, ta'lim oluvchining aql-idrokga to'la bo'lishi, oxir-oqibat xudolarni ulug'laydigan, ular sharafiga samimiy so'zlarni aytadigan darajaga yetishi kerakligi ta'kidlangan. Boshlang'ich ta'limni olgan har bir yosh mashg'ulot yakunida qasamyod qildirilgan. Zardushtiylar ta'lim berishning quyidagi usullaridan foydalanganlar: Og'zaki bayon. Bunda matnlarni taqdim etish shakllari: an'analar, afsonalar, qo'shiqlar ko'rinishda bo'lgan. O'rganilgan bilimlarni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar berilgan, jumladan, takror kuylash, yaxshi o'qish, "Avesto" nasklari bo'yicha o'qituvchi va murabbiylar tomonidan savol-javoblar, xususan, sanoq (arifmetika) o'rgatishda tayoqchalar ko'rgazmali qurol vazifasini o'tagan²⁹.

Og'zaki va ko'rgazmali usullar orqali olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida o'quv jarayonida amaliy usullardan ham foydalanilgan (mashqlar, topshiriqlar, muloqat, o'z-o'zini tarbiyalash). Jumladan, harbiy qurollardan foydalanish, ot minish, kurash, she'r o'qish va qo'shiq aytish, cholg'u asboblari chalish, notiqlik, rasm chizish, dasturxon bezash, mehmonlarni qabul qilish, shaxmat, nard o'ynash, ko'zali ichimlik tayyorlash, otashkadada xizmat qilish kabilar. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash muloqat, suhbat orqali amalga oshirilgan va ta'lim oluvchilarning o'quv vazifasini bajarish darajasi tahlil qilingan. "Avesto" ning "Gohi" va "Yashti" qismlari o'z-o'zini tarbiyalash

²⁸ Зороастрийские тексты. Переводы. О. М. Чунаковой. © Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1997.

²⁹ Қ.Қобилжонов .Роль семьи в обучения детей борьбе кураш //“Вестник науки и образования”.2019.

tarzida yoddan o'rgatilgan, o'qish jarayonida talaffuzga, nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Arxeologlar ibodatxona me'moriy tuzilishini o'rgangan holda, ibodatxonalarda akustika qoidalariga rioya qilgan holda qurilgan tebranish, ovoz tovushini ta'minlaydigan maxsus xonalarda mustaqil ravishda qiroat va notiqlik o'rganilgan. "Avesto" ga xos bo'lgan xat ruhoniylar tomonidan sir tutilgan. Shu sababli "Avesto" ning bugungi kungacha yetib kelgan ayrim qismlari yoddan o'rganilgan va xotiralarda saqlaganlarning xizmatidir. Axloq va ma'naviyat masalalariga eng ko'p to'xtalinilgan qismi "Yasna" bo'lib, u asosan Zardushtning o'zi tomonidan yaratilgan gatlar, ya'ni qo'shiqlardan iborat. Mazkur va'zlarning bir qismi - oliy xudo Axuramazdaga murojati she'riy shaklda berilgan bo'lib, dindagi ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, o'limdan keyingi jazoning mavjudligi hamda muqarrarlighi kabi asosiy qoidalarni o'z ichiga oladi.

"Avesto" da yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida qo'llash mumkun bo'lgan hikmatli so'zlar:

1. Dunyoda shukur qilish, har kimga yaxshilik tilash har qanday yaxshilikdan afzaldir.
2. Har bir insonning hayoti shodlik, yerdagi zavq-shavq uchun mo'ljallangan bo'lib, ular bo'lmasa, lekin qo'rquv va yolg'on bo'lsa, bu o'limdan badtardir.
3. Ko'ring ilmi bo'lsa, u ko'ruvchi johildan afzaldir.
4. Men o'zimni Mazdaning muxlisi, haqiqiy qasam va iqror bilan Zardushtiyman deb tan olaman. Qasam bilan yaxshi fikr qilishga, qasam bilan yaxshi so'z qilishga, qasam bilan yaxshi ish qilishga majburman.
5. Nodonni eng yomon odam deb bil va uni baxtsiz deb bil, qasoskor, xasadgo'y bo'lma, xotining, hamda farzandlaringga imkon qadar yaxshi va mehribon munosabatda bo'l. Aqlli xotin, imkon qadar xushmuomala do'stni tanla.
6. Er yuzida odamlar aql kuchi bilan yaxshiroq hayotga, quvonchga, shon-shuhratga va har qanday yaxshilikga erisha oladilar.

7. Bir yo‘l-haqiqat yo‘li, qolgan hamma narsa yo‘l emas.
8. Aql dunyoning barcha boyliklaridan azizdir.
9. Eng yaxshi narsa aqldir, chunki aql bilan jihozlash va osmonni aql kuchi bilan bo‘ysundirish mumkun.
10. Gunoh orqali boylik orttirib, xursand bo‘lgan kishining bu quvonchi baxtsizlikdan ham badtardir³⁰.

Og‘zidan ochko‘zlik, g‘azab, qo‘rqoqlik, nafs va norozilikni olib tashlagan kishi kuchli ekanligi e‘tirof qilinadi. “Avesto” dagi farzandlar tarbiyasi haqidagi qarashlar, o‘qitish va tarbiyalash usullari hozirgi davr ta’lim jarayoni uchun ham namuna bo‘la oladi.

I.3.ZARDUSHTIYLIKDA KOMIL INSON MASALASI VA “AVESTO” PANDNOMALARNING PEDAGOGIK MOHIYATI

Insoniyat jamiyatining eng yuksak va azaliy orzularidan biri komil insonni tarbiyalashdir. Komil inson deyilganda, eng avvalo, dunyoqarashi keng, vatanparvar, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan boshqalarga o‘rnak bo‘la oladigan, ma’suliyatli, har tomonlama sog‘lom insonlarni tushunamiz. Inson faqat tarbiya orqaligina komillikga erisha oladi. Farzandlarimizning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlarimizga oid boy ma’naviy merosimizdan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu jumladan, “Avesto” dagi ma’naviy-ma’rifiy o‘gitlar yoshlar ongida ruhiy poklik, ezgu e’tiqod asoslarini shakllantirishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan eng qadimiy pandnomalardan hisoblanadi. Har bir diniy ta’limotning yuzaga kelishi muayyan ehtiyoj va tarixiy shart-sharoit bilan chambarchas bog‘liq. Zardushtiylik dini yuzaga kelgan paytda ko‘chmanchilar orasida shafqatsizlik, adolatsizlik, qonunbuzarliklar jazosiz qolayotgan paytda jamiyatda axloqni, insoniyat

³⁰ Мудрость тысячелетей. Энциклопедия.-М.: ОЛМА Медиа Групп.2008. автор-составитель В.Балязин.-С. 42-43. (848 с.)

jamiyatida ma'naviyatni qaror toptirish, insonlarning o'z harakatlarini nazorat qila olish ko'nikmalarini shakllantirishda "Avesto" pandnomalarining ahamiyati katta.

Dunyoning eng qadimiy dinlaridan hisoblangan zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"ning jahon madaniyati va dinlar tarixida tutgan o'rnini hisobga olgan holda Yunesko bosh konferensiyasining 1999 yil noyabr oyida Parijda o'tkazilgan 30-sessiyasida "Avesto" yaratilganligining 2700 yilligini nishonlash haqidagi qarori qabul qilindi. Shu asosida mamlakatimizda «Avesto» yaratilganligining 2700 yilligini 2001- yilda keng miqiyosda nishonlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Avesto manbalarda "Apastak", "Ovisto", "Ovusto", "Abisto", "Avasto" shakllarida ham ishlatilib kelingan. U O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon, xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam haqidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim va yagona manbadir. Abu Rayhon Beruniy bergan ma'lumotlarga ko'ra Aleksandr Makedonskiy Avestoning beshdan uch qismini yoqib yuboradi³¹. Milodiy I-II asrda Arshakiylar keyinchalik sosoniylar davrida Avestoni qayta tiklash ishlari amalga oshirilgan. "Avesto" matnlarida Zardusht bevosita Axura Mazdaga savollar bilan murojati va unga berilgan javoblar o'z aksini topgan. Pandnomada odamlarga, hayvonlarga, tabiatga va hatto o'ziga zarar yetkazish inson tomonidan bo'lmasa, ilohiy hukm bilan jazolanishi aytilgan. Insonning ma'naviy -ruhiy tanazzulga yuz tutishidan dahshatliroq narsa yo'q. Dunyoda ikkita ruh Axura Mazda va Axrimanning mavjudligi, haqiqat va adolat, solih hayot, hamda nohaqlik, axloqiy me'yorlarga rioya qilish, axloqsizlik o'rtasida insoniyatning ular o'rtasida axloqiy tanlov zarurligiga olib keladi³². Insonning bu tanlovi unchalik oson va ahamiyatsiz masala emasligi ta'kidlanadi. «Avesto» va boshqa manbalarda har bir xalqning psixik rivojlanishi fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlangan. Shaxs ilm-fanni, bilimni o'zlashtirish jarayonida har tomonlama kamol topadi,

³¹ Беруний, Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар//Беруний А.Р.Танланган асарлар. I том.Т.,1968.

³²Т.С.Расулова.Моральный Закон учении Заратустры.//Интерактивная наука. 12(22) 2017. –С.62.(61-64)

tamaddunga qo‘shiladi. Zardushtiylar fikricha, komil aql har bir insonga xosdir, agar u ilm bilan bog‘liq bo‘lsa³³.

Avestoshunos olimi **G.Mahmudova** yozganidek, “Avesto” qayd etilgan axloqiy g‘oyalar ibtidoiy jamoa tuzumida mavjud bo‘lgan eng qadimgi axloqiy tasavvurlarning qorishmasi bo‘lib, keyingi davrlarda ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga muvofiq ravishda o‘zgargan va boyigan³⁴. “Avesto”da “Bas, dono odamlar uchun eng maqbul tarbiya yaxshiliklarning otasi bo‘lgan Ahurani Ashah – haqiqat siymosida o‘rganmoq, tanimoqdir”³⁵-deyilgan (Yasna,48-Hot;3). Pandnomada odamiylik, inson baxt-saodati uchun kurash ulug‘langan. Muqaddas manbada yaxshi fikr, ilohiy qonun asosida yaqin kishisiga mehribon bo‘lish, muxtojlik va xavf-xatar ostida qolganlarga ko‘maklashishiga shaylik, yovuzlikga qarshi, kishilar baxt-saodati uchun faol kurashishiga shaylik, hamma bilan ahil va totuvlikda o‘z maslakdosh birodarlari bilan do‘stlik va hamjihatlikda yashashga intilish ruhidagi niyatlar targ‘ib qilingan. Inson o‘z fikr -xayolida boshqalarga xasad qilmasligi lozimligiga alohida e’tibor qaratilgan, yaxshi niyatli insonlar amaliy faoliyatlarida hamisha ezgulikni tarannum etib, ma’rifatni targ‘ib qilishi va shu asosda jamiyatda jaholatga qarshi kurashda muhim o‘rin tutishi lozimligi ta’kidlangan. Farzandlarni adolat, haqiqat, ezgulik, bunyodkorlik, ma’rifatparvarlik ruhida tarbiyalash ajdodlarimiz diqqat-e’tiborda bo‘lgan. “Avesto” da haqiqat madh etilgan, ulug‘langan. Chunki, haqiqat qaror topgan joyda o‘zaro ishonch, mehr-oqibat qaror topishini, u yerda barqarorlik, tinchlik va rivojlanish uchun shart-sharoit bo‘lishini ajdodlarimiz yaxshi bilganlar va shu sababli ushbu g‘oyalarini farzandlari ongiga singdirishiga, ularni odobli-axloqli qilib tarbiyalashga alohida e’tibor berganlar. Zardushtiylik ta’limotida axloq yuqori darajaga ko‘tarilgan. Axuramazda va uning farishtalari axloqi - ijobiy, Axri-Manyu axloqi esa salbiy ko‘rinishda aks ettirilgan. Uchinchi holatda, ijtimoiy axloq shaxs axloqi bilan

³³ К.Б.Кадыров.История воспитания,школы и педагогической мысли таджиков древнейших времен до возникновения ислама. Дисс.док.пед.наук.13.00.01.Москва. 1999.-С.394.

³⁴ Махмудова Г.Т. Авестонинг фалсафий моҳияти.-Т.: Ношир, 2015.-Б.155-160.

³⁵ Авесто.-Б.67.

bog'liqligi aytiladi. Har bir insonda salbiy va ijobiy etika yonma-yon mavjud bo'ladi, hamda bir-biriga kirib boradi deyiladi. Jamiyat va shaxs tanlov imkoniyati berilganligi sababli ikkita axloq turidan birini tanlaydi, deyiladi. Zardushtiylik anarxistik mutlaq erkinlikni rad etadi. Tartib, intizom, go'zallik, mutanosiblik, muvofiqlik, farovonlik, inoyat, baxt, poklik, mukammallik, rostlik, halollik, haqiqat, sog'liq va boshqa fazilatlar farovonlik, mo'l-ko'llikni chorlashi ta'kidlangan. Zardushtiylikning axloqiy ta'limoti uning butun mif-diniy dunyoqarashidan kelib chiqadi. Antinomiylar Zardushtiylik etikasiga xos xususiyatga aylanadi. Yaxshilik va yomonlik axloqiy ta'limotning juft antinomiylari hisoblanadi. Antinomiya - yunoncha «antinomiya»- so'zidan olingan bo'lib, qonunning ichki ziddiyati degan ma'noni bildiradi. Mantiqiy isbotlanadigan ikki qonun, mulohaza yoki xulosa o'rtasidagi ziddiyat (antinomiya haqidagi qarashni XVIII asrda nemis faylasufi Kant ishlab chiqadi). Antinomiya real olamning dialektik ziddiyatga ega ekanligini ifodalaydi³⁶. Zardushtiylik tafakkurida o'sishning antinomiylari sifatida haqiqat va yolg'on, yorug'lik, hamda zulmat, go'zallik va xunuklik kabilar ko'rsatiladi. Zardushtiylar bu kategoriyalarni dunyo haqidagi bilimlari sohasida qo'llagan holda, o'z vazifalarini qarama-qarshiliklar kurashi prizmasidan o'tkazib, bu antinomiylarning mohiyatini o'z axloqi orqali aniqlaydilar. Boshqacha qilib aytganda, zardushtiylar dunyoqarashning barcha qirralari, ularning qadriyatlar tizimi axloqiy me'yorlar bilan belgilanadi. Avesto vijdonni (daena) oddiy axloqiy tushuncha sifatida emas, balki o'ziga xos ilohiy ma'naviyat deb biladi, ya'ni inson faoliyatini nazorat qilish uchun berilgan kuch. Hissiyot va har bir shaxsga xos bo'lib, vijdon esa axloqiylikning eng muhim omili sifatida qaraladi. Vijdon kategoriyasining yuqori darajada qaralishi bejizga emas. Chunki vijdonli insonda axloqning boshqa kategoriyalari uyat, ma'suliyat, burch kabi kategoriyalar yonma-yon keladi. Agar bugungi kunda sayyoramizning barcha aholisi barcha vaziyatlarda o'z vijdonlari amriga ko'ra harakat qilsalar, tabiiy, siyosiy, ijtimoiy global muommolar yuzaga kelmas edi. Inson va uning baxti «Avesto» ning asosiy mavzusi hisoblanadi.

³⁶ Комус Инфо энциклопедия..онла <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/antinomiya-uz/>

Ta'limotda inson hayoti, muqaddas, noyob va eng oliydir. Umid, shodlik, baxt ilohiy ne'mat hisoblanib, zamonaviy dunyo dinlaridan farqli o'laroq, bu dunyo quvonchidan mahrum bo'lish va boshqa dunyo baxtiga erishish g'oyasini rad etiladi. Ta'limotiga ko'ra, inson hayotida shodlik, baxt, zavq haqiqatdan ham bo'lishi kerak. Bu ilohiy sovg'a nafaqat minnatdorchilik bilan qabul qilinishi kerak, balki qadrlanishi va uni ko'paytirishga intilishi kerak deyiladi. Zardushtiylikda qat'iy qonunlar yo'q. Din asosan insonning hayotdagi o'rnini o'zi tanlashi lozimligiga urg'u beradi. Din majburlamaydi, faqat noto'g'ri ishlardan ogohlantiradi. Diniy ta'limot bugungi kunda umuminsoniy qadriyatlarga va axloqqa zid emas va shunga qaramay, bu boshqa konfessional axloq kabi dogma yo'naltirilgan axloqdir. Bizning fikrimizcha, axloq-ijtimoiy ongning alohida shakli va ijtimoiy munosabatlarning bir turi, insonning jamiyatdagi harakatlarini normalar yordamida tartibga solishning usullaridan biridir.

Jamiyatning ob'ektiv ehtiyojlari axloqda mustahkamlanib, baholash, umumiy qoidalar va amaliy ko'rsatmalar shaklida bo'ladi. Zardushtiylikda afsonalarga ko'ra (Zurvan) ikkita aka-uka ko'rinadigan va ko'rinmaydigan olamni yaratishi kerak bo'lgan, ammo ulardan biri Axriman o'z tanlovi natijasida yaratishda ishtirok etmadi. Shu sababli ikki dunyoni yaratishni Axuramazda o'z zimmasiga oldi deyiladi. Shunday qilib dunyo yaratilishning negizida Axura Mazdaning ongli tanlovi va ijodi yotishi aytiladi. Axriman esa yovuzlikning mohiyati sifatida belgilangan qarama-qarshi tamoyilning timsoliga aylanadi. "Avesto" dagi dunyo uch qismdan –ma'naviy olam (Menog), jismoniy olam(Gegag), va ikkita olamni bog'lovchi (Ritag) Chin vad ko'prigi sifatida tasvirlangan³⁷. Shunday qilib, har ikki olam – ko'rinuvchi va ko'rinmasdir. U yaratuvchi xudo Axuramazdaga tegishli deyiladi. Dinda moddiy hayot nomoddiy hayotdan yaxshiroq, chunki Axura Mazda komil maxluqlarni unda benuqsonligini olgan deyiladi. Biroq, moddiy dunyo, ruhiy dunyodan farqli o'laroq, yovuz kuchlar oldida zaif hisoblangan.

³⁷ Бердиев Шохназар Пирназарович .Этические проблемы зороастризма.//дисс.философия канд.наук. Душанбе-2011.-С.16)

Markaziy Osiyo tadqiqotchisi P.Sh.Berdiev zardushtiylik uchta davr ta'limoti: yaratilish, Aralashish, bo'linishni o'z ichiga olishini aytadi. Har bir davr 3000 kosmik yil davom etadi va dunyo, hamda insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini aks ettiradi³⁸. Yaratilish davri dunyoning ideal holatda mavjudligini, chalkashlik davri-yovuzlik virusi bilan og'irlashgan dunyoni, ajralish davrini – barcha yaxshilik va yomonlik kuchlarining qutblanishini va ularning buyuk jangini aks ettiradi. Bundan tashqari, inson yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi bu kosmik jangda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zardushtiylik shunday ta'limotki, unda inson yuksaklikga chiqariladi. Bunda inson odam «Xudoning xizmatkori emas», balki umuminsoniylikdagi yovuzlikga qarshi kurashda xudoning hamrohi hisoblanadi. Hayotning har bir daqiqasida yaxshilikning g'alaba qozonishi ortida insonning ongli tanlovi yotishi aytiladi. «Avesto»ning uchinchi bandida zardushtiylik axloqiy ta'limotining mohiyati ochib beriladi.

Zardushtiylikdagi axloqiy tizim, shubhasiz, Markaziy Osiyo falsafasi tarixidagi eng original tizimlardandir. Undagi g'oyalar davrimizning ilg'or tafakkuri bilan yaqin. Agar biz voqelikning dinamik konsepsiyasi haqida gapiradigain bo'lsak, zardushtiylik axloqi zamonaviy axloqning yorqin xabarchisidir. Zardushtiylik axloqining asosiy tamoyillarini tahlil qilinganda, eng avvvalo, payg'ambarning inson hayotining tub ma'nosi haqidagi fikrlari diqqatni tortadi. Bunda inson hayotining tub mohiyati ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amalga asoslanishi kerakligi qayd qilingan. Boshqacha aytganda, inson o'z harakatlarida ezgulikga asoslanishi va unga rahbarlik qilishi kerakligi ta'kidlanadi.

“Avesto”da ruh yaxshi axloqiy tamoyillarga amal qilishi yomonlikdan qochishi kerakligi aytiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, diniy ta'limotda, axloq keng ma'noda yaxshilik ilmini ifodalaydi. Yaxshilik va yomonlikning qarama-qarshiligi axloqqa xosdir, lekin u o'z mazmunini tugatmaydi. Yaxshilik va yomonlik kabi boshqa axloqiy tushunchalar: burch, halollik kabi kategoriyalar o'rtasidagi ijtimoiy

³⁸ Бердиев Шохназар Пирназарович .Этические проблемы зороастризма.//дисс.философия канд.наук. Душанбе-2011.-С.16

munosabatlarning o'ziga xos shakllarini tashkil qiladi. Zardushtiylikning birlamchi manbalarida iroda erkinligi tushunchasi shaxsning o'z harakatlarida o'zini o'zi belgilashini bildiradi. Inson irodasi erkin bo'lib, shaxs o'z harakatlari uchun o'zi javobgardir. Bunda yomonlik xudodan kelmaydi, Axrimandan keladi deyiladi. Zardushtiylikda iroda erkinligi haqidagi qarashlarning mazmun-mohiyati: odamlarga nisbat berilgan barcha yaxshi va yomon narsalar ularning individual harakatlari natijasi hisoblanadi. Inson o'z hohishiga ko'ra yaxshilik va yomonlikni tanlashda mustaqil bo'lib, o'z hohishlariga ko'ra ulardan birini qabul qilishlari, ikinchisini rad etishlari mumkun. Zardushtiylik qonunida aytilishicha, dunyodagi hamma narsa o'zaro bog'liqdir. Inson o'z-o'zini anglash va erkinlikga ega mavjudot, shu jumladan, erkinlik uning tanlagan natijalari bilan chegaralangan. Hozirgi globallashuv sharoitida milliylik xavf ostida qolmoqda. Bunday vaziyatda har xalq ajdodlari tomonidan avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy tarbiya asoslarini yanada mustahkamlashi va uning ilg'or tajribalaridan foydalanishi lozim.

“Avesto” tahlili shuni ko'rsatadiki, zardushtiylikning insonparvarlik va ezgulik g'oyalari faqat Axura Mazda ko'rsatmalarini, qonunini bajarish bilan cheklanib qolmay, balki yerdagi moddiy, hamda amaliy maqsadni ko'zlagan bo'lib, ular qabilalarning moddiy va ma'naviy manfaatlaridan kelib chiqqan. “Avesto”dan bizgacha yetib kelgan ota-bobolarimizning hayotbaxsh, ezgu hikmatlari bugungi kun barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

I.4. ZARDUSHTIYLIK DINIDA POKLIK, VATANPARVARLIK, MEHNATSEVARLIK HAMDA OILA MUQADDASLIGINING ULUG'LANISHI

Ajdodlarimizning tarbiyaviy qarashlarini o'rganishda din muhim omil bo'lib ming yillar davomida ajdodlarimiz hayotida «Avesto», «Qur'oni Karim» kabi jahon madaniyatining noyob yodgorliklari yosh avlodni diniy, axloqiy tarbiyalashning asosiy manbasi bo'lib kelmoqda. Zardushtiylik axloqiy-falafiy tafakkurida inson mohiyati solih mehnat natijasi sifatida tushuniladi. Zardushtiylikda poklanish asosiy muommolaridan biri bo'lib, zardushtiylik

hayotida katta ahamiyatga ega. Poklanish ishlari, garchi ko‘p funksiyali bo‘lsa-da, ammo uning mohiyati axloq normalari bilan belgilanadi ³⁹. Avestoda tiriklik intihosiga yetgan paytda insonlarning har bir so‘zi qilgan amali uchun hisob-kitobdan o‘tishi, bunda yaxshilikga yaxshilik va yomonlikga yomonlik bilan javob qaytaruvchi Axura Mazda pok ekanligi aytiladi (Yasna 43-Hot;5).

Inson butun umri davomida dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchli ekanligiga alohida e‘tibor berilgan. Zardushtiylar o‘zlarining diniy axloqiga va poklanish marosim qoidalariga ega⁴⁰. Hayz ko‘rgan ayollarga yaqinlik qilish mumkin emasligi islomda gunoh sifatida e‘tirof qilinsa, bu holat Zardushtiylarda nopok holat hisoblanib bunga yo‘l qo‘ygan erkak o‘z nasliga nisbatan yomonlik va xiyonat qilishi sifatida e‘tirof qilingan va 60 darra kaltak jazosi berilgan. Hayzdan keyin ayollar kumiz bilan poklanishlari lozimligi e‘tirof qilinadi. Ushbu holatni mazkur dinlarda asosli ta‘qiq ekanligini hozirgi zamon tibbiyoti ham tasdiqlaydi. Zardushtiylikda ibodat tahorat bilan besh mahal amalga oshirilgan va libosning pokizaligiga e‘tibor qaratilgan. Zardushtiylar ibodatini janubga qarab 5 marta maxsus diniy libos sidrapushini kiygan, hamda poklangan holda amalga oshirishgan.

Zardushtiylikda bolaga yozish, o‘qishni o‘rgatish bilan birga ularni jismoniy jihatdan chiniqtirishga va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga alohida jiddiy e‘tibor qaratilgan. Bolalarga mehnat ko‘nikmalari: daraxt ekish, qurol yasash kabi hayotiy zarur faoliyat turlari o‘rgatilgan, hamda erta yoshdan mehnatni ulug‘lash ko‘nikmalari shakllantirilgan. Zardushtiylar jismoniy va mehnat tarbiyasi orqali o‘sib kelayotgan avlodni chiniqtirishni nazarda tutgan. Bizga ma'lumki, mehnat ajdodlarimiz tomonidan doimo ulug‘lanib kelingan. Chunki, mehnat barcha boyliklarning asosi, to‘kinchilikning sababchisi, barcha noz-ne‘matlarning yaratuvchisidir. Shu o‘rinda mehnat odamzodni hayvoniylikdan insoniylikga qadar tarbiyalagan juda katta tarbiyaviy vosita hisoblanadi. “Avesto”da mehnat qilishni

³⁹ Бердиев Шохназар Пирназарович .Этические проблемы зороастризма.//дисс.философия канд.наук. Душанбе-2011.-С.10.(25-б)

⁴⁰ См.: Алимपुर Н. Додгохи Чам: гушахое аз меъморни оромгоххо ва шивахон тадфини пайравони Ашу. Зардушт паёмбари бузург. Техрон, 1384. - С. 18.

xush koʻrmaydigan, yalqov insonlar haqida “Mehnat qilmaydigan odam-sen haqiqatdan ham tilanchilar qatorida yot eshiklarga taʼzim qilib, abadul-abad bosh egib turajaksan. Sening yoningdan turli hil ziroatlarni olib oʻtadilar, bu noz-neʼmatlarning barchasi mehnat qilayotgan, toʻq farovon yashayotgan xonadonga nasib etadi, abadul-abad shunday boʻlajak!”⁴¹, - deyiladi. Yaʼni, bunda inson hayotining goʻzal va farovon boʻlishi bevosita mehnat bilan bogʻlikligi taʼkidlangan. Zardushtiylik dinida qoʻriq yer ochib, uni bogʻu rogʻga aylantirgan odam iloh rahmatiga uchraydi. Aksincha, bogʻlar, ekinzorlarni, sugʻorish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladi deyiladi. Zardushtlik insonlarga tinch-totuv yashashni, halol mehnat qilishni oʻrgatmoqchi boʻladi⁴².

Axura -Mazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib, ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlardan saqlanishga chaqiradi. “Avesto”da “Inson chorvaning koʻpayishiga, yaylovlarning gullab-yashnashiga yordam bergan taqdirdagina, dehqonchilik va sugʻorish ishlarida ishtiyoq bilan mehnat qilgandagina, xudo yoki uning yordamchisining inoyatiga noil boʻlgʻusidir”, - deyiladi. Jumladan, Avestodagi Mitraga qasidalarda yaylovlarning gullab-yashnashiga, chorvaning koʻpayishiga bagʻishlangan qasidalar koʻp. Muqaddas manbadagi mazkur fikrlar ajdodlarimizning bola tarbiyasiga nihoyatda katta eʼtibor qaratganliklari, farzandlarini odobli-axloqli qilib tarbiyalashga, ularga kasb-hunar oʻrgatishga bolaligidan alohida ahamiyat berganliklari haqida maʼlumotlarga ega boʻlamiz. Olam ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurashdan iborat boʻlar ekan bu kurashda inson Axuramazda tomonida turishi kerak deyiladi. Bu fikrlar adolat uchun kurashadigan mehnatkash inson jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili sifatida qaralganini koʻrsatadi. Zardushtiylikda halol mehnat maʼnaviy komillikning asosiy mezoni sifatida qaralganligi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, kim don eksa, u

⁴¹ Б.Б.Сапаров., А.Б.Сапаров Авестода одоб-ахлоқ масаласи. //Academic research in educational sciences volume 1/ Issue 3/ 2020. –Б. 899

⁴² А.Мўминов, Ҳ.Йўлдошхўжаев ва бошқалар. Диншунослик. Ўқув қўлланма. Тошкент-“Мехнат”-2004.- Б.88.(294)

muqaddas narsa ekan bo'radi. Ikki qo'li bilan yerga mehnat qilsa farovonlik keltiradi". - deyiladi Avestoda.

Professor H.Homidiyning yozishicha, o'sha davrda ajdodlarimiz barcha qavm va qabila ahlari orasida "lagomzadan" (otga suvliq solish), "zin zadan" (otni egarlash), "kambarbastan" marosimiga qat'iy amal qilingan. Chorvachilik bilan shug'ullanayotgan qavmlarda ko'proq shu sohaga doir hunar va malakalar o'rgatilgan. Jumladan, qiz bolalarga yungdan ip yigirish, urchuq va charxda ishlay bilish, har xil liboslar to'qish, tikish va yung olishni bilish shart bo'lsa, o'g'il bolalar chorvani boqish, urchitish, ularni boshqara olish, uzoq yaylovlarga suruv haydash, qaroqchilardan muhofaza qilish, ya'ni 32 ta hunarni bilishlari lozim bo'lgan. O'sib kelayotgan yosh avlod ana shu hunarlarni egallagach, qiz bolalar 15 yoshida, o'g'il bolalar 17 yoshida "lagomzadon" va "zin zadan" imtihonidan o'tgan. Imtihon ularning balog'atga yetganliklarini sinovdan o'tkazish maqsadida o'tkazilgan. Qiz bolalar "kadbonu"-uy bekasi, o'g'il bolalar "kadxudo"-uy xojasi, oila boshlig'i bo'lish huquqini qo'lga kiritishgan. Alohida iqtidorli yigitlar esa, chavondozlikda maxsus tayyorlangan, harbiy mashqlarda ishtirok etgan. Bundan asosiy maqsad farzandlarning ona yerini himoya qilishga va mehnat orqali esa mustaqil hayotga tayyorlash hisoblangan. O'g'il bolalarni hayotga tayyorlashda kurash, ot egarlash, qoramol boqish va tuya va otlarni parvarish qilish, chorva mollarini yirtqichlardan himoya qilish uchun 50 dan ortiq qurol-yarog'lardan foydalanish, ot minish va 32 dan ortiq sport turlari o'rgatilgan. Hunarmandchilik ham o'rgatilgan bo'lib, bu holat xususiy va boshlang'ich ta'limning uzliksizligi va uzluksizligidan dalolat beradi. Bu o'z navbatida o'sib kelayotgan yosh avlodning kamolatga yetishida alohida ahamiyat kasb etgan. Ushbu dinda har bir farzand biron kasb bilan shug'ullanishi, band bo'lishi, mehnat qilishiga alohida e'tibor berilgan. Insonlarning birovlariga muxtoj bo'lishi, boqimandachilik, tilanchilik qoralangan. Shu sababli ushbu talablardan kelib chiqib ajdodlarimiz tarbiyani amaliyot bilan bog'lab olib borilishiga jiddiy e'tibor qaratishgan.

Bizga ma'lumki, hayotda qiyinchilik ko'rgan, barcha narsalarga o'z kuchi bilan erishgan insonda boriga shukur qilish, sabr va qanoat shakllanadi. Buyuk hind arbobi **Mahatma Gandi** inson tabiiy emlashdan tashqari qiyinchiliklarga sabr-toqatli bo'lishi uchun ijtimoiy emlanishi lozimligini ta'kidlagan edi. "Avesto" matnlarini tahlil qilar ekanmiz ijtimoiy emlash bizning ajdodlarimiz tomonidan azaldan amalga oshirilib kelinganligiga guvoh bo'lamiz. Zardushtiylikda bolalarni sabr-toqatli, chidamli qilib tarbiyalashda mehnatning o'rniga, olamdagi barcha ezguliklarning va bunyodkorlikning asosi mehnat ekanligiga urg'u beriladi. «Avesto»da Axura Mazdaning insonparvarlik g'oyalari shiori ostida turli qabilalarni birlashtirish, odamlarda ona vatanga, zaminga muhabbat tuyg'usini, solih axloqni singdirishda ma'naviy vosita sifatida o'ylab topilgan. "Avesto" da inson o'zidan yaxshi nom qoldirishi, vatanparvarlik burchini bajarishi uchun ona-erni sevishi, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashi, uni obod qilishi, undan oqilona foydalanib dehqonchilik bilan shug'ullanishi, yerni shudgor qilib, unga sara don ekishi va mo'l hosil olishi uning muqaddas burchi ekanligi, yerdan unumli foydalanish, tuproqni e'zozlash, uni asrab-avaylab, sifatli shudgor qilish haqida o'gitlar mavjud. Darhaqiqat, "Avesto"ning barcha qismlarida yeru ko'kdagi barcha hayotiy nozu-ne'matlarni sevish, ardoqlash va qadriga yetish har bir iymonli insonning burchi ekanligiga urg'u berilgan. Shu sababli biz haqli ravishda "Avesto"ni nafaqat Sharq xalqlarining, balki butun insoniyatning olam haqidagi bilim va tasavvurlar qomusi sifatida ta'riflasak to'g'ri bo'ladi. Bunda inson hayoti va taqdirining ona yer va dehqonchilik bilan bog'liqligi o'z ifodasini topgan. Ona tabiatdagi to'rt unurning e'zozlanishi, yerga ishlov berib, sug'orib, ekin ekish, bog'-rog' bunyod etilishi rag'batlantirilgan. Ming yillar davomida ajdodlarimiz ona yerni nihoyatda e'zozlagan holda, unga ishlov berishgan va farzandlar tarbiyasida ushbu an'anadan foydalanishgan. "Avesto"da bitilgan o'gitlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, yerni e'zozlash, vaqtida shudgor qilib, uning unumdorligini tiklash va saqlash bo'yicha ajdodlarimiz to'plagan tajribasidan foydalanish ayni kunda o'zbek dehqonlarining bugungi kundagi muqaddas vazifasi ekanligini ta'kidlash va uni o'rganish bugungi kunning

talabidir. Bizga ma'lumki, sobiq SSSR davrida ishlab chiqarishni jadallashtirish maqsadida, mexanizasiyalashtirish, kimyolashtirish va melioratsiyalash yo'ldan borib, dalalarga ko'p martalab qishloq xo'jaligi mashina va agregatlari kiritildi, tuproqqa katta miqdordagi o'g'itlar va zaharli moddalar sepildi. Natijada tuproq tarkibi, unumdorligi pasayib zaharli kimyoviy moddalar ta'sirida esa uning makroflorasi faoliyati yomonlashdi. Natijada yer osti suvlarining sathi ko'tarilib, sug'oriladigan yerlarning ko'p qismida ikkilamchi sho'rlanish paydo bo'ldi, yerlar zaxlab, dalalar begona o'tlar bilan ifloslandi. Oqibatda ekin maydonlarining yuqori darajadagi hosildorligi pasaydi ⁴³. Zardushtiylarda yerga bo'lgan kichik bir e'tiborsizlik ham qat'iy qoralangan va yerga munosabat qonun bilan mustahkamlangan. "Avesto" da yerning hosildorligi ko'p omillarga bog'liq deyilgan bo'lib, shudgor qilish shulardan eng asosiysi hisoblangan.

«Avesto» da yerni shudgor qilish mo'l-ko'l hosilning garovi ekanligiga alohida urg'u berilgan. **“-Ey Spiytomon Zardusht! –deyilgan ilohiy kitobda, kimda-kim zaminni chap va o'ng qo'l bilan shudgor qilsa, zamin unga shunday deydi: Ey, meni chap va o'ng qo'l bilan shudgor qilgan zot! Odamlar hamisha bu yerga keladilar va non so'raydilar. Men bu yerda hosilga kiraman, sen uchun turli xo'rak, mo'l-ko'l bug'doy yetishtiraman”.** (“Avesto”, Vandidod, uchinchi fargard, 115 bet). Muqaddas manbada odamlarni ko'proq bug'doy, mevali daraxtlarni ekishga quruq yerlarga suv chiqarishga da'vat etilganligiga guvoh bo'lamiz: **“Ey zaminda hammadan ko'ra baxtiyorroq bo'lgan dunyodagi uchinchi joy qaer? Ahura Mazda javob berdi : -Ey, Spiytimon Zardusht! Bunday joy bir Ashavan hammadan ko'ra bug'doy, mevali daraxtlar ekan, odamlar quruq yerlarga suv chiqargan, suvli yerlarni shudgor qilgan zamindir”** (“Avesto”, Vandidod, ikkinchi fargard, 111, 113 betlar). Bunda “chap va o'ng qo'l bilan” jumlarining ma'nosi qayta-qayta, takror-takror kabi ma'nolarini bildiradi. Har bir ishni sidqidildan, u yoki bu ishga

⁴³ И.П.Хўжамуродов, Б.И.Хўжамуродов, Ш.Б.Кимсанбаева, А.М.Адилова. Тарихий-маданий меросимиз «Авесто»да ерга ва шудгорлашга эътибор//Ўзбекистон аграр фани хабарномаси № 3 (61) 2015.-б.102-106.

kirishganda shahd bilan, g'ayrat bilan ishlashi kerakligi ta'kidlangan. Muqaddas manbada zaminni hammadan ko'p baxtiyor etgan shaxs hammadan ko'p bug'doy, giyoh va mevali daraxtlar ekkan, quruq yerlarga suv chiqargan va suvli yerlarni shudgor qilgan zot deyiladi ("Avesto", Vandidod, uchinchi fargard, 114 bet). Mazkur dinda insonning mehnatsevarligi niyoyatda ulug'langan. Uzoq vaqt ekilmagan omoch tegmagan zamin baxtsiz ekanligi aytiladi. Yerga bo'lgan yaxshi munosabat insonga mo'l-ko'lhilik va farovonlik beradi deyiladi. Mana eshiting: «Ey, Sipiymon Zardusht! Kimda-kim zaminni chap va o'ng qo'l bilan, o'ng va chap qo'l bilan shudgor qilmasa, zamin unga shunday deydi: Ey, Mard! Ey, meni chap va o'ng qo'l bilan, o'ng va chap qo'l bilan shudgor qilmagan zot! Sen begonalar eshigi ostonasida non istovchilar bilan birga bo'lursan. Ko'zlaring yo'l ko'radi. Ular seni eshigi ostonosidan haydab yuboradilar» ("Avesto", Vandidod, uchinchi fargard, 115 bet). Zardushtiyorda dangasa, ishyoqmaslar eng past odamlar qatorida sanalib, ularni tilanchilar deb ataydi. Ota-bobolarimiz tilanchilikdan nafratlanganlar. "Avesto" da ezguliklar ulug'lanadi, qusurlardan nafratlaniladi. Mazkur dinda ona-zamin, tabiat, mehnatning nihoyatda qadrlanishini ko'rishimiz mumkun. Ajdodlarimiz o'z farzandlariga ona yerga bo'lgan yaxshi munosabat, tuproqni ardoqlash inson hayotida naqadar muhim ekanligini uqtirishga harakat qilganlar. Jumladan, "Ey, dunyoni yaratgan zot! Mazda dinini qaysi taom to'yg'uzadi? Axura Mazda javob berdi: -Ey, Sipiymon Zardusht! Bug'doy ekmoq va yana bug'doy ekmoq". "Kimda-kim bug'doy eksa, u Ashahni (Haqiqat) ekadi. U Mazda dinini ko'kartiradi. U Mazda dinini yuzlab hamdu sano, nazru niyoz va o'n minglab qurbonliklar bilan quvvatlantirgandek qudratli qiladi". "Qachonki egatlarda urug' yetilsa, devlar o'rinlardan qo'padilar. Qachonki, bug'doy gurkirab ko'karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar. Qachonki bug'doy un bo'lsa, devlar nola chekadilar. Qachonki bug'doy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo'ladilar. Qay xonadonda bug'doy bosh chiqarsa, u xonadonga devlar yaqinlasha olmaydi. Muqaddas manbada ona zamin tuproqlariga mehr berilsa, u o'z sahovati bilan javob berishi va bu yaxshilikga olib boruvchi yo'l sifatida olqishlangan. Ajdodlarimiz hayoti haqida ma'lumot beruvchi mazkur

muqaddas manba insonlarni tinch, osoyishta mehnat qilish orqali ularni yaratuvchilik faoliyati tana va jondagi nopok kuchlarni quvishi, faqat mehnat, olijanob amallar bilan haqiqat, tinchlik, hamda davlatga erishishi mumkunligi aytiladi. Bu borada mahalliy olimlarimizdan **T. Mahmudov** quyidagi fikrlarni bildiradi “Insonning bunday yaratuvchilik qudratini idrok etish juda qadim zamonlarda yashagan bobokalonlarimizning tafakkur va ma'naviy zakovatidan darak beradi”⁴⁴. Dinda yerga ishlov berish, ona zaminga bo‘lgan yuksak ehtirom va hurmat nihoyatda qadrlangan. Ajdodlarimiz tarixidan so‘zlovchi mazkur noyob yodgorlikda ona-erni, tuproqni e‘zozlash, yerni shudgorlash, unga ehtirom to‘g‘risidagi o‘lmas g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda ⁴⁵. Zardushtiylik insonni tartiblilikga, poklikga, zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarishda halollik, ota-onaga hurmat-ehtirom, dindoshlariga yordam berishga o‘rgatadi. Tadqiqotchilarimizdan **H.Homidiy, G.Mahmudovalarning** fikricha, zardushtiylar tarbiya jarayonida o‘tib kelayotgan avlodning pok niyatli, halol, to‘g‘ri amal bilan voyaga yetishiga alohida e’tibor qaratgan. Shu asosida tarbiyachilar, ustod-mudarrislarining burch va majburiyatlari belgilangan. Ular zimmasiga jamiyatning eng muhim yuki topshirilganligi qayta-qayta uqtirilgan. Ustoz-mudarrislarining o‘z ilmini qanchalik uddalashlari, kasbiga munosabati, fidoiyligi yoki tanballigi, befarq va ma'suliyatsizligiga qarab “yaxshi” va “yomon” ustozlarga ajratilganligi fikrimizni isbotlaydi.

“Avesto”da oila mustahkamligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotinning oiladagi majburiyatlari, nikoh tuzish va uni bekor qilishning tartib -qoidalari batafsil ko‘rsatib berilgan. “Avesto”ning maxsus boblarida Axura Mazda va Zardushtning kelin-kuyovlarga bo‘lgan da'vatlari, murojatlari keltirilgan. Bunda oila qurishda shoshma-shosharlikga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi va ota-onalar, keksalar maslahatiga rioya qilish lozimligi ta'kidlangan. “Avesto” da zardushtiylarning oltin qoidalaridan biri-oila muqaddas sanalgani bois, boshqa ayrim sabablarga ko‘ra masalan, ig‘vo, tuhmat, er-xotinning o‘zaro kelishmovchiligi, ota-ona bilan

⁴⁴ Махмудов Т. Авесто ҳақида. Т., Шарқ, 2000. - 37 б.

⁴⁵ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. Т., Шарқ, 2001, - Б.114- 115.

murosa-madora qila olmaslik kabi bahonalar bilan nikohning bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmagan . Insonning yaxshi taomlanishi sog‘lom nasl qoldirishida muhimligiga alohida urg‘u berilgan. Zardushtiylik dini ortiqcha qurbonliklarga, jonivorlarga ozor berishga qarshi bo‘lib, **A.G.Perixanyan** o‘z tadqiqotlarida zardushtiylik qonunlarning insonparvarligini ta’kidlab, zardushtiylik qonunchiligiga ko‘ra voyaga yetmagan bolalarni ota-onasi ajralishi og‘ir jinoyat hisoblanishini ta’kidlaydi⁴⁶. Bolani nobud qilish maqsadida ayolning sog‘ligiga zarar yetkazish insoniyatga qarshi eng og‘ir jinoyat hisoblangan⁴⁷. Rim qonunchiligidan farqli ravishda “Avesto”da bolaning yashash huquqi ona qornidayoq ta’minlangan.(Yasna, 23-issiq,1-band). Zardushtiylarda bolaning sog‘lom tug‘ilishi, har tomonlama kamol topishi uchun ham barcha sharoit yaratilgan. “Avesto” da bola tug‘ilgunga qadar ota-onaning salomatligi, bolaning xavfsiz tug‘ilishi va yangi chaqaloqni ona suti bilan boqishga alohida e’tibor qaratilgan. Chunki bularning barchasi bolaning normal rivojlanishi uchun zarur omillar hisoblangan (Yasna, 65-qism,2-5 bandlar). Avestolog olim **S.Ganbarov** o‘z tadqiqotlarida “Avesto” voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini shu darajada himoya qilganki, hatto tug‘ilmagan bolalarning huquqlari qonun xujjatlariga kiritilganligini ta’kidlaydi. Tug‘ilmagan bolani ataylabdan nobud qilish og‘ir jinoyat sifatida jazolanganligi, qotillik bilan tenglashtirilganligi, hatto unda ishtirok etganlarning har birining jazolanishi fikrimizning isbotidir. Agar qiz iffatini yo‘qotib, homilador bo‘lib qolsa va sharmandalikdan qo‘rqib o‘ziga qasd qilsa gunohkor bo‘ladi. Agar u bolaning otasi tomonidan majburlangan bo‘lsa, unda gunoh otaning zimmasiga tushadi va qasddan qotillik uchun jazolanishi kerak⁴⁸. (Videvdat,15-fargard,2-qism,12-band) Nomusini yo‘qotgan homilador qizni uyat qilmaslik, balki iloji bo‘lsa homilaga zarar yetkazadigan hech narsa qilmasligi har bir insonning burchi hisoblangan. Oilasi qizga: “Biz bu homiladorlik haqida bilamiz va sizga g‘amxo‘rlik qilamiz”, deyishlari kerak deyilgan. Dindagi bunday

⁴⁶ Периханян А.Г. Общество и право в Иране в парфянский и сасанидский периоды. – С. 248.

⁴⁷ Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Очерки по истории древнего Узбекистана: государственность и право. – Т.: «Адолат», 2000. – С.168-169.

⁴⁸ Авесто.Тарихий-адабий ёдгорлик.Аскар Махкам таржимаси. –Т.:”Шарк”,2001.-С.68.

insonparvarlik munosabati bolaning hayoti uchun g'amxo'rlik bilan bog'liq bo'lgan⁴⁹. "Avesto"da homilador ayolning huquqlari qonuniylashtiriladi. Uni moddiy qo'llab-quvvatlash, parvarish qilish bolaning otasiga yuklangan: "...Bolaning otasi nomussizlarni bola ulg'ayguncha qo'llab-quvvatlashi kerak"...(Videvdat,15-fargard,3-qism,19-band.)

Zardushtiylarda qiz bolalarning ilmi bo'lishiga, tarbiyasiga alohida ahamiyat berilgan, jumladan, "O'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalar ilmu donish o'rganishga jiddiy kirishsinlar. Zeroki, ular ota-onalar ro'zg'orini tartibga solib, ziynat bersalar, jufti haloli manziliga borgach, bolalar tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lmoqlari lozim bo'ladi". Bu dinda qat'iy qonunlar yo'q, bu insonning hayotdagi o'rnini tanlashni o'z ichiga oladi. Din o'zini to'g'ri tutishga majbur qilmaydi, noto'g'ri harakatlardan ogohlantiradi.

Zardushtiylik insonni tartiblilikga, poklikga, zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarishda halollikga, ota-onaga minnatdorchilikga, dindoshlariga yordam berishga o'rgatadi. Tadqiqotchilarimizdan **H.Homidiy, G.Mahmudovalarning** fikricha, zardushtiylar tarbiya jarayonida o'sib kelayotgan avlodning pok niyatli, halol, to'g'ri amal bilan voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratgan. Shu asosida tarbiyachilar, ustod-mudarrislarning burch va majburiyatlari belgilangan. Ular zimmasiga jamiyatning eng muhim yuki topshirilganligi qayta-qayta uqtirilgan. Ustoz-mudarrislarning o'z ilmini qanchalik uddalashlari, kasbiga munosabati, fidoiyligi yoki tanballigi, befarq va ma'suliyatsizligiga qarab "yaxshi" va "yomon" ustozlarga ajratilganligi fikrimizni isbotlaydi.

Bizga ma'lumki, dinni qabul qilish so'z berish bilangina cheklanmaydi, u amalda ham ma'lum harakatlarni bajarish yoki ulardan o'zini tiyishni talab qiladi. "Avesto" da yolg'on so'zlash va yolg'onchilar so'ziga quloq solishning oqibati yomon bo'lishi ta'kidlangan. (Yasna 31-Hot. 40 bet). **Jumladan, "Har kim andisha, so'z yoxud ikki qo'li bilan durvand-yolg'on bilan kurashsa, uning**

⁴⁹ Муминов А., Йулдошходжаев Х., Диншунослик/Под ред. Н.И. Ибрагимова.-Ташкент : "Меҳнат", 2004.- С.88-96.

izdoshlarini yaxshi yo'lga boshlay olsa, Mazda Axuraning ishonchini qozonadi",-deyiladi⁵⁰.

“Avesto” da agar inson o'zgalarga yaxshilik qilsa, unga ham yaxshilik nasib qiladi, o'zgalarga yorug'lik istagan kimsalarga yorug'lik nasib qiladi deyiladi. Inson tiriklik safidan ketganida, hisob-kitob soatida har bir qilingan amal, ya'ni yaxshilarga yaxshilik, yomonlarga yomonlik mukofoti berilishi aytilgan⁵¹. Zardushtiylikda olam chin va yolg'on olamdan iboratligi, inson chin, haqiqiy, rost olamni tanlashi lozimligi aytiladi. Jumladan, “Dev (Axriman)ni ixtiyor etganlar ham ikki olamdan rostni emas, yolg'onni tanladilar, yomon niyatga bo'ysundilar va odam hayotini tubanlashtirmoq qasdida birlashgan quyi g'azabga tomon shitob etdilar”⁵² (Yasna,30-Hot). Dinda doimo yaxshilik g'alaba qozonishi, yolg'on domiga ilinganlar bundan ranj va ziyon ko'rishi, buning oqibati nihoyatda xunukligi, inson boshiga tushgan bu kabi sinovlardan keyin baribir to'g'rilik va yaxshilikga oshno bo'lishi aytilgan. (Yasna,31-Hot) Avestoda yaxshi niyatli insonlarga olamni yaratuvchisi doimo qo'llashi va ularning saodatga erishishi takidlangan. Avestoda yolg'onga ergashgan kishi o'zini qanchlik pokdamon ko'rsatmasin saodatga erisholmasligi aytiladi (Yasna 31-Hot). “Avesto” da yaxshi ustozlar sog'lom aql -hushli farzandlarni, jasur, dono va turli tillarni biladigan o'g'il qizlarni, o'z yurtini balo-qazolardan himoya eta oladigan o'g'lonlarni, yaxshi kelajak, porloq hayotni, ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan avlodni tarbiyalashi ta'kidlangan. Tarbiyachi-ustozlar bolalarda o'z dini, yurtiga mehr uyg'otishi, halol mehnat evaziga rizqu ro'zini topib yashashga o'rganishi, pokdomonlik, hamkorlik, insonlarga yaxshilik istash faqat donishmand ustozlardan yuqishi aytilgan. Dualistik qarashlarga ega bo'lgan muqaddas manbaning Hot va Yasht qismlaridagi parchalarda yaxshilik yomonlikga, adolat zulmga, donolik nodonlikga zid qo'yib tasvirlanib, birinchisi olqishlanib, ikkinchisi illat sifatida qoralanganidek, yaxshi ustozlar nodon ustozlarga qarshi qo'yib tasvirlangan.

⁵⁰“Авесто” А.Маҳкамов таржимаси.-Б.47.

⁵¹ “Авесто” А.Маҳкамов таржимаси.-Б.52.

⁵² А.Маҳкамов таржимаси.Авесто.Тошкент.Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.Б.39.(732)

Zardushtiylikda yomon tarbiyachilar qoralanib, ular yoshlarni to'g'ri yo'ldan adashtiruvchilar sifatida tanqid qilingan: **“Yomon tarbiyachi o'z ta'limi bilan ilohiy so'zlarni teskari qiladi va tiriklik idrokini xarob qiladi. Haqiqatda u odamlarni rostlikning bebaho sarmoyasidan va ezgu niyatidan bahrasiz aylaydi”**⁵³ (Яснa ,32-хот; 9.45-6) . Avestoda yaxshi ustoz yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlamog'i, yaxshilik yo'lida rahnomalik qilishi, ularning qalbiga hayotga muxabbat singdirishi lozim bo'lgan. Ta'limning eng yaxshisi haqida **“Haqiqatda eng ezgu ta'lim rostlik ilmi va dinagohlikdir”** , -deyilgan. “Ey, ilm olmoq niyatida uzoq yaqindan kelgan insonlar! Alhol barchangiz quloq solingiz, mening oshkora so'zlarimni tinglangiz va yodingizda mahkam saqlangiz: “Yomon tarbiyachi hech qachon hayotingizni tubanlashtirmasin, devparast durvandlar avraguvchi til bilan sizlarni gumroh qilmasin”. Zardushtiylik dini mehnatsevarlikni ulug'lab boqimandalik holatini qoralaydi. Din ko'chmanchi chorvadorlar orasida dastlab tarqalganligi, ularning hayoti og'ir, mashaqqatli bo'lganligi bois dehqonchilkg dinda ko'proq rag'bat berilganligi, ular hayotini yaxshilash maqsadida qilinganligini ko'rishimiz mumkun. Zardushtiylikda tabiatning tozaligini, sofligini ta'minlashda 4 ta unsur: yer, suv, havo va olovning muqaddaslashtirilishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Yerga tuflash, suvni nopok narsalar bilan bulg'ash, hatto olovga ham nopok narsalarni tashlash ta'qiqlangan. Bu esa o'z navbatida insonlarning tabiatga munosabatida ehtiyot bo'lishini ta'minlash bilan birga, tabiatning sofligining saqlanishini, tozaligini ta'minlagan.

⁵³ Авесто.А.Махкамов таржимаси.-Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, ,2015. –Б.45 (732)

II BOB. ISLOM PEDAGOGIKASI SHAKLLANISHIDA TARIXIY JARAYONLAR TAHLILI

- ❖ islom mafkurasining shakllanishidagi tarixiy jarayonlar rivoji
- ❖ Islomda farzand tarbiyasiga doir pedagogik qarashlar shakllanishining tarxiy-nazariy asoslari
- ❖ Madrasalarning ma'rifat markazlari sifatidagi faoliyati
- ❖ “Sharq renessansi” davrida islom pedagogikasi taraqqiyoti

II.1. ISLOM MAFKURASINING SHAKLLANISHIDAGI TARIXIY JARAYONLAR RIVOJI

Har bir dinning yuzaga kelishiga muayyan bir ehtiyoj va shart-sharoit sabab bo'ladi. Islom dinning yuzaga kelishini dunyoviy tahlil qiladigan bo'lsak, milodiy 1-ming yillik o'rtalarida Arabiston yarim orolida yuzaga kelgan chuqur siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va ma'naviy inqiroz tarqoq qabilalarni birlashtiruvchi kuchli diniy mafkuraga ehtiyoj mavjud edi. “Islom (o'zagi “salama”- Allohga itoat etish) bu avvalo din, so'ngra davlat va nihoyat, madaniyatdir”, deb yozadi **R. Sharl'**⁵⁴. Olimning ushbu ta'rifi e'tiborga molik. Chunki islom mazmunini chuqur o'rgangan ko'plab xorijiy olimlar dinning ma'rifatparvarlik, insonparvarlik xususiyatiga yuqori baho beradilar.

Inson tarbiyasi masalasi, ularni nuqsonlardan, hayvoniy qusurlardan qutqarish ajdodlarimizning azaliy qayg'usi bo'lib kelgan. Shaxs, millat, insoniyat ma'naviyatining holati va darajasi jamiyat taraqqiyotiga turlicha ta'sir etishi mumkunligi qadim zamonlardan beri ma'lum. Jamiyat hayotidagi barcha yuksalishlar, komil inson shaxsining shakllanishi muayyan imkoniyatlar bilan bog'liq. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotidagi tushkunliklar, turg'unlik holatlari, iqtisodiy, siyosiy omillardangina emas, balki kishilarning ongi, e'tiqodi, dunyoqarashi, axloqiy kamoloti darajasidan ham izlash kerak. Shu sababli har bir millat va xalqning dono allomalari taraqqiyotda birlamchi omil inson shaxsini

⁵⁴ Шарль Р. Мусульманское право. Пер. с франц. С.И. Волка.- Москва: Изд-во. “Иностранная литература”. 1959. -11.

ma'naviy yuksaltirish lozimligini yaxshi tushunishgan. Har bir xalq nafaqat moddiy boyligi, eng avvalo yuksak ma'naviyati, madaniyati bilan ham kuchlidir. Islomiy marosimlar, tarbiya haqidagi ta'limotlari asrlar davomida avloddan avlodga yetkazilib xalq pedagogikasining xazinasini tashkil qilmoqda. Odob masalasini insoniyat tarixida to'laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning o'z odobi bor. Dunyoda odobga bag'ishlangan asarlarning asosini va ko'pligini Islom bilimdonlari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan zarracha mubolag'a yo'q.

Islomdagi tarbiya masalasi ming yillar davomida butun dunyo olimlarini o'zining mukammaligi, insonparvarligi, adolatligi o'zining ijobiy ahamiyati e'tiborni tortib kelmoqda. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov 1995 yil fevraldagi Oliy Majlisning 1-sessiyasidagi ma'ruzasida: “ Islom dini-bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham imon, ham axloq, ham ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar. Musulmonlar mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-hurmat tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar”⁵⁵. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, Islom ta'limoti kishilik jamiyatida o'z o'rnini topib, uning dunyoviy va diniy hayotida amaliy tatbiqini topgan ilk saodat asridan boshlab yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib keladi.

Islom va Qur'onning vujudga kelishi tarixi bilan bog'liq bo'lgan muommolar va ularning yechimlari XIX asrning o'rtalaridan boshlab avvalo, Sharq so'ngra Yevropa islomshunosligida o'rganila boshlangan. Yevropa va Amerika islomshunosligi va Qur'onshunosligida olib borilgan tadqiqotlarning ko'pchiligi, aniq dalillarga boyligidan qat'iy nazar ularning barchasi uslubiy jihatdan cheklangan.⁵⁶ Islom madaniyatining kirib kelishi turkiy, eroniy, arabiy xalqlar yashagan ulkan hududda siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hamkorlikni bir-biriga tanitdi va yaqinlashtirdi. Islom axloqi necha-necha asrlar davomida

⁵⁵ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари// Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Том.-3. Тошкент: Ўзбекистон, 1996.35-б.

⁵⁶ Э.А. Абдусаматов. Диншунослик. Ўқув қўлланма. Тошкент-2008.-Б.9.(244)

shakllangan ming yillar davomida qancha nasllar sinovidan o'tib, o'zining hayotiyiligini, har bir davr uchun muvofiqligini, kishilik jamiyati manfaatlariga mosligini, insoniy kamoli va ma'naviyat taraqqiyotiga xizmat qilishini amalda tasdiqlagan, shu tufayli davrlaru ellar e'zozini qozonib, zavol bilmay yashab kelayotgan o'lmas ta'limot, umumbashariy hayot dasturi, ijtimoiy faoliyatning betakror qoidalari.⁵⁷

Markaziy Osiyo xalqi hayotiga islom kirib kelgan davrdan boshlab tashkil etilgan maktab, madrasa va diniy dorilfununlar Sharq Rennessansida ijobiy ahamiyat kasb etib, Islom sivilizatsiyasi ta'sirida ilm-ma'rifatga yo'l ochiladi. Bizga ma'lumki, diniy e'tiqod shakllari muayyan davrda jamiyat ma'naviy hayotini barqarorlashtiruvchi omil vazifasini o'tagan. Shu jumladan, islom dini vujudga kelgan paytdayoq Muhammad payg'ambar tomonidan ma'naviy muommolarni hal qilishga, axloqiy mezonlarni ishlab chiqishga e'tibor qaratilganligi bejiz emas. U Olloh bandalarini yo'lga solish uchun yuborilgan elchi sifatida faoliyatini olib borar ekan, "Men faqat go'zal axloqni mukammallashtirmoq uchun yuborildim"⁵⁸, - deydilar. Islom axloqi, avvalo, har bir insonni o'z insoniylik burchiga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Musulmonlarning Alloh va payg'ambar oldidagi, vatani, xalqi, millati, ota-onalari, yaqinlari, umuman olganda insoniyat oldidagi, hamda o'zining oldidagi burchlari mufassal bayon qilingan. Dinda insonparvarlik har bir insonning doimiy odatiga alanishi, doimo yaxshilik qilishi, jamiyat manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yilishi taqozo qilinadi. Hadislarda "Xulqi yaxshi bo'lgan musulmon imon jihatdan eng mukammal musulmondur", -deyilgan. Shu jumladan insonning o'zi oldidagi eng muhim burchilaridan biri ruhini kamol toptirish ekanligi ta'kidlangan. Mazkur dinda insonda ikki xil xastalik, ya'ni jismoniy va ma'naviy xastalik borligi, ma'naviy xastaliklar inson tanasida ko'rinmasligi, shuning uchun inson g'iybat, yolg'onchilik, tuhmat, takabburlik, xassislik va yalqovlik kabi xastaliklardan saqlanishi lozimligi aytiladi⁵⁹.

⁵⁷ Абдурахмон Қоя.Ислом ахлоқи.Анвар Ҳожиахмад таржимаси "Моварауннахр", Тошкент.1997.-Б.44.

⁵⁸ Закои Кунрапа.Алвидо дунё!Ассалом охират.Учинчи китоб, Тошкент,Моварауннахр,1996, 53-6.

⁵⁹ Ислом ахлоқи.-Б.3.

Islomda inson boshqa mavjudotlardan farqli ravishda ongi va ma'naviyati bilan yaratilganligi ta'kidlanadi. Farzand tarbiyasi insoniyat taraqqiyoti tarixining ajralmas qismi bo'lib, o'z o'rnida pedagogik g'oyalar tarixi esa madaniyat va maorif taraqqiyoti tarixidan ajralmasdir. Islomdagi pedagogik tizimiga asos bo'lgan asosiy tamoyillar islom dini yuzaga kelgan davrda, o'rta asrlarda ishlab chiqilgan. O'rta asrlarda islom pedagogikasi shakllanayotgan davrda arab tili eng qiyin tillar sirasiga kirgan. Islom dini tarqalgan hududlarda diniy manbalar arab tilida o'qilishi joiz bo'lganligi sababli, ta'lim maskanlarida o'quvchilar ravon, ifodali, ongli o'qish, imloni to'g'ri yozishga o'rgatilib, o'z fikrini o'rganilayotgan tilda bayon etishga ko'niktirish, yodlash va ongli ravishda o'zlashtirish talab qilingan⁶⁰. Axloqiy tarbiyalash masalasini hal qilish bevosita ularning ta'lim salohiyatini oshirish holati bilan bog'liq bo'lgan. Inson xulq-atvori bilim va majburiyatga bog'liq⁶¹. Pedagogik madaniyat insoniy fazilatsiz bo'lmaydi. O'rta asrlarda insonni tarbiyalash va o'qitishning eng asosiysi insoniy fazilatlarni shakllantirish hisoblangan. Bizga ma'lumki, fazilat - bu yaxshilik qilish qobiliyati hisoblanadi. Islom dini oilaviy munosabatlarning hayot haqiqatlariga, adolat tuyg'usiga va insonparvarlikga asoslangan ma'naviy mezonlarni yaratdi. Ayollarning oila va jamiyatdagi haq-huquqlari bilan birga, ularning onalik burchlari, bolalari uchun tarbiyachi sifatidagi roliga alohida ahamiyat qaratildi. Islomda bola tarbiyasi jarayoni hadislarida o'ziga xos tarzda, bino g'ishtining qo'yilishiga talqin qilingan, hamda uning izchilligi, shaxsiy axloqiy fazilatlar va yaxshi odatlarning to'planish ketma-ketligi sifatida talqin qilinadi. Muhammad payg'ambar faoliyati haqidagi esdaliklardan kelib chiqadiki, farovon oila farzandi, yetuk o'smir tarbiyalashda insonga ta'sir qilishning eng muhim usuli sifatida rag'batlantirish usuli ko'rib chiqiladi. Islom ta'limi tizimida og'zaki ta'sir qilish

⁶⁰ Б.Р. Гилы утдинов. Тенденции развития и педагогические условия использования прогрессивной мысли ислама в современной школе. // дисс. Канд. пед. наук. 13.00.01. автореферат. Казан-2002.-С 14.(260.

⁶¹ Ходжиева Ф.А. Педагогическая условия ответственности родителей за воспитание детей в исламе, созвучные современным нравственным нормам светского общества // 13.00.01. автореферат дисс. канд. пед. наук. Душанбе. 2009. С. 28.

usullari o'ziga xosdir: suhbat, Qur'on va Hadis matnlarini bayon qilish tabiati o'zini-o'zi rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur manbalardagi keltirilgan so'zlarning chuqur ma'noliligi, hissiyotlilik insonni o'ziga jalb qiladi. Qur'on matnlarining maftunkorligi va obrazlilik axloqiy ma'noni bola ongiga yetib borishini osonlashtiradi. Islom dinining axloqiy merosi tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, ilmiy pedagogika bu tajribadan butun insoniyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qila oladigan barcha qimmatli narsalarni o'z ichiga oladi. Islom dinining diniy-axloqiy qarashlari shaklanishining tarixiy-pedagogik tahlili shuni ko'rsatadiki, u kishilar hayotida ko'p asrlar davomida yuksak darajada rivojlangan axloqiy tizim sifatida faoliyat ko'rsatgan⁶². Islom ta'limotining farzandlar tarbiyasida salohiyati nihoyatda kuchli. So'nggi yillarda ayniqsa pandemiya sharoitida din insonlar ongining ma'naviy "shifokori" sifatida faol pozitsiyani egalladi. Mahalliy tadqiqotchilardan U.Alimov islom ma'rifatiga shunday baho beradi "Bu ta'limot va uning yo'l-yo'riqlari jamiyat asosi, ummat istiqboli sanalgan yoshlarning har tomonlama komil inson bo'lib yetishishlarini ta'minlaydi".. "Bunda muqaddas manbalarida farzand Alloh taolo insonga bergan eng ulug' ne'matlardan bo'lishi barobarida, u ota-ona uchun omonat ekanligi aytiladi"⁶³. Alloh sizlar uchun o'zlaringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun o'g'illar va nabiralar paydo qildi (Nahl surasi 72-oyat). Nasl bardavom bo'lishi, jamiyatning tanazzulga uchramasligi uchun islomda oila qat'iy-qonun qoidalar asosida himoya qilingan. Bu o'z navbatida quyidagi shartlarning bajarilishiga bog'liq:

- oilaning bir-biriga munosib odamlardan tashkil topishi;
- er-xotin o'rtasida o'zaro hurmat va totuvlik;
- erkak kishi o'zining oila ustuni ekani hamda rahbarlik ma'suliyatini his etishi va bunga amal qilib yashashi;
- kishining oila ichki holatlariga ma'sulligi;

⁶² Ибрагимов А.И.Абед Халил. Использование нравственного потенциала ислама в воспитании учащихся подросткового возраста.автореферат дисс.канд.наук.13.00.01.1996.-С.194.

⁶³ У.Алимов. Оилада фарзанд тарбияси. "Моварауннахр" нашриёти.Тошкент.2014.-.Б.5. (456)

- ota-ona farzandlarining rioyasini qilib, ularga adolatli bo'lishi;
- farzandlarining ota-onalariga yaxshiliq qilishi va h.z.

Bu buyuk ne'matga sazovor bo'lgan ota-onalar uning qadriga yetishlari, shukrlar aytib, farzand oldidagi ota-onalik burchlarini puxta ado etishlari, ya'ni unga chiroyli ism qo'yishlari, ta'lim-tarbiya berishlari va oxir-oqibatda alloh roziligini topadagan, millati, vatani, ota-onasiga munosib o'g'il-qiz, tengdoshlari hurmati va muhabbatini qozongan yetuk inson bo'lishi borasidagi ma'suliyatli vazifalarni chin ixlos va sadoqat bilan ado etishlari lozimligi ta'kidlangan.

Islomda eng oliy ma'naviy burch Allohga xizmat qilish hisoblanadi. Hozirgi kunda ayrim G'arb mamlakatlarida ba'zi ta'lim muassasalarida diniy va dunyoviy ta'lim elementlarining kombinasiyasi mavjud. Jumladan, Shvetsiyadagi professional o'rta va undan yuqori ta'limni bunga misol qilishimiz mumkun⁶⁴. Islom pedagogikasining maqsadi ma'naviy va jismoniy jihatdan yetuk va uyg'un rivojlangan sog'lom shaxsni tarbiyalashdir. Islom ta'limida bolaga ta'lim berishda quyidagi jihatlarning e'tiborga olinishi belgilangan:

- bolaga tug'ilishidan iymonga keltirish, ya'ni unga islom va shariat asoslarini o'rgatish;
- bola shaxsiyatiga axloqiy tamoyillarni tizimli singdirib borish;
- oilasini, jamiyatni himoya qila oladigan jismoniy sog'lom inson sifatida tarbiyalash;
- doimo ta'lim olishini rag'batlantirish;
- bolada sog'lom va barqaror ruhiyatni tarbiyalash: jasorat, mustaqillik, mukammallikga, yaxshilikga, muxabbatga intilish va h.z.


Islomda insonning o'z shaxsiyatiga nisbatan ham majburiyatlari mavjud.
Bular:

- o'zgalarga va o'ziga nisbatan ham zo'ravonlikga yo'l qo'ymaslik;

⁶⁴ Койчуев Айтек Алим – Джашарович. Педагогический потенциал ислама в светских образовательных практиках. // дисс. док. пед наук (13.00.01). 2008. - С. 326.

- insonning ta'lim olishida, aql-idrokini shakllantirishda vaqtning isrof qilmasligi, ya'ni vaqtdan unumli foydalanish va h.z.

Islom pedagogikasining asosi quyidagicha:



Bu formuladan dunyoviy ta'limda foydalanish ijobiy samara bera oladi. Islom tarbiyasi insonparvarlik tamoyilining ustivorligi bilan ajralib turadi. Islomda taqvodorlik farz hamda shart qilinadi. Insonning o'zini-o'zi takomillashtirishi, o'z-o'zini anglashiga, jumladan, insonning dunyoga kelishi uni hayotda yashashdan maqsadi nima ekanligi, oliy maqsadini anglashiga yordam beradi.

Islom maorifida intellektual rivojlanish juda muhim rol o'ynaydi. Allohu taollo insonni iymon bilan birga ilmi qilib yaratganligi, ilm bilan quvvatlanmagan iymon yuzaki ekanligi aytiladi. Abdulloh Umar Nosifning fikricha, islom ta'limi umuminsoniylik, taraqqiyotga intilish bilan ajralib turadigan gumanistik tabiatga ega. Islom pedagogikasi nazariyasida tarbiya deyilganda ta'lim funksiyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan jarayon, ya'ni shaxs rivojlanishining barcha tomonlari: ma'naviy, intellektual, jismoniy, ilmiy takomillashtirish jarayoni, axloqiy fazilatlarni shakllantirish, shaxsiy va jamoat manfaatlariga xizmat qilish, faollik, chidamlilik, bag'rikenglik, o'zini tuta bilish, umuman olganda farovonlikga yordam beradigan boshqa fazilatlarni tarbiyalash kabilar kiradi. Yuqoridagilarni

muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa insonning o'z ustida bir umr ishlashi va o'z-o'zini takomillashtirishi zarurligi ta'kidlangan. Muqaddas manbalarda "Beshikdan to lahadgacha ilm izla",-deyilganligi bejizga emasligini ko'rishimiz mumkun. Ko'pchilik olimlar dinni jamiyatda axloqni mustahkamlashning muhim vositasi va ma'lum darajada madaniyatni tiklashning omili bo'lishi mumkun deb hisoblaydilar. Shu o'rinda oilaviy tarbiyaning xususiyati shundaki, ta'lim jarayonida to'plangan ma'naviy boylik avloddan avlodga o'tadi, qayta ishlanadi, rivojlanadi, takomillashadi va boyitiladi.

Musumon ota-onalarining an'analariga quyidagilar kiradi:

- o'z-o'zini tarbiyalashni bosqichma-bosqich amalga oshirish va javobgarlik;
- oila a'zolarining bir-birini hurmat qilishi;
- hatti-harakatlarning oqilona chegaralari;
- mukofat va jazolardan adolatli foydalanish va h.z.

Islomda ilm olish burch sifatida qaraladi. Bizga ma'lumki burch bu-bajarilishi majburiy bo'lgan vazifadir. Ilm olishni ixtiyoriy, ya'ni o'rganishim shart emas, qabilida qarash noto'g'ri ekanligi bundan ma'lum.

II.2. ISLOMDA FARZAND TARBIYASIGA DOIR PEDAGOGIK QARASHLAR SHAKLLANISHINING TARXIY-NAZARIY ASOSLARI

Inson kamoloti ko'p qirralidir. Uning buyukligi va kamoloti shubhasiz, ma'naviy kamolot darajasi bilan belgilanadi. Tarixiy taraqqiyotning barcha burilish davrlarida buyuk shaxslar jamiyat hayotida keskinlashayotgan ziddiyatlardan chiqish yo'llarini izlash bilan bog'liq bo'lgan ta'limotlarida inson ma'naviy kamolotining muayyan qirralariga alohida etibor qaratganlar ⁶⁵. Inson tarbiyasi masalasi, ularni nuqsonlardan, hayvoniy qusurlardan qutqarish ajdodlarimizning azaliy qayg'usi bo'lib kelgan. Shaxs, millat, insoniyat ma'naviyatining holati va darajasi jamiyat taraqqiyotiga turlicha ta'sir etishi mumkunligi qadim zamonlardan beri ma'lum. Jamiyat hayotidagi barcha yuksalishlar, komil inson shaxsining

⁶⁵ Э.Юсупов.-Б.9-10.

shakllanishi muayyan imkoniyatlar bilan bog'liq. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotidagi tushkunliklar, turg'unlik holatlari, iqtisodiy, siyosiy omillardangina emas, balki kishilarning ongi, e'tiqodi, dunyoqarashi, axloqiy kamoloti darajasidan ham izlash kerak. Shu sababli har bir millat va xalqning dono allomalari taraqqiyotda birlamchi omil inson shaxsini ma'naviy yuksaltirish lozimligini yaxshi tushunishgan. Har bir xalq nafaqat moddiy boyligi, eng avvalo yuksak ma'naviyati, madaniyati bilan ham kuchlidir. Islomiy marosimlar, tarbiya haqidagi ta'limotlari asrlar davomida avloddan avlodga yetkazilib xalq pedagogikasining xazinasini tashkil qilmoqda. Odob masalasini insoniyat tarixida to'laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning o'z odobi bor. Dunyoda odobga bag'ishlangan asarlarning asosini va ko'pligini Islom bilimdonlari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan zarracha mubolag'a yo'q.

Islomdagi tarbiya masalasi ming yillar davomida butun dunyo olimlarini o'zining mukammaligi, insonparvarligi, adolatligi o'zining ijobiy ahamiyati bilan e'tiborni tortib kelmoqda. Birinchi prezidentimiz **I.A.Karimov** 1995 yil fevraldagi Oliy Majlisning 1-sessiyasidagi ma'ruzasida: ***“Islom dini-bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham imon, ham axloq, ham ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar. Musulmonlar mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-hurmat tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar”***⁶⁶. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, Islom ta'limoti kishilik jamiyatida o'z o'rnini topib, uning dunyoviy va diniy hayotida amaliy tatbiqini topgan ilk saodat asridan boshlab yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib keladi. **R.Sharl'** dinga shunday ta'rif beradi: ***“Islom” –bu avvalo din, so'ngra davlat va nihoyat, madaniyatdir***⁶⁷. Olimning ushbu ta'rifi e'tiborga molik. Chunki islom mazmunini chuqur o'rgangan ko'plab xorijiy olimlar dinning ma'rifatparvarlik,

⁶⁶ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари// Ватан саждагоҳи каби муқаддасдир.Том.-3.Тошкент:Ўзбекистон, 1996.35-6.

⁶⁷ Шарль Р.Мусульманское право.Пер.с.франц.С.И.Волка.-Москва:Изд-во. “Иностранная литература”.1959.-С.11.

insonparvarlik xuxuiyatiga yuqori baho beradilar. Mahalliy tadqiqotchilardan У.АЛИМОВ islom ma'rifatiga shunday baho beradi **«Bu ta'limot va uning yo'l-yo'riqlari jamiyat asosi, ummat istiqboli sanalgan yoshlarning har tomonlama komil inson bo'lib yetishishlarini ta'minlaydi.. «Bunda muqaddas manbalarida farzand Alloh taolo insonga bergan eng ulug' ne'matlardan bo'lishi barobarida, u ota-ona uchun omonat ekanligi aytiladi»⁶⁸. Alloh sizlar uchun o'z'laringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun o'g'illar va nabiralar paydo qildi (Nahl surasi 72-oyat). Nasl bardavom bo'lishi, jamiyatning tanazzulga uchramasligi uchun islomda oila qat'iy-qonun qoidalar asosida himoya qilingan. Bu o'z navbatida quyidagi shartlarning bajarilishiga bog'liq:**

- oilaning bir-biriga munosib odamlardan tashkil topishi;
- er-xotin o'rtasida o'zaro hurmat va totuvlik;
- erkak kishi o'zining oila ustuni ekani hamda rahbarlik ma'suliyatini his etishi va bunga amal qilib yashashi;
- kishining oila ichki holatlariga ma'sulligi;
- ota-ona farzandlarining rioyasini qilib, ularga adolatli bo'lishi;
- farzandlarining ota-onalariga yaxshiliq qilishi va h.z.

Bu buyuk ne'matga sazovor bo'lgan ota-onalar uning qadriga yetishlari, shukrlar aytib, farzand oldidagi ota-onalik burchlarini puxta ado etishlari, ya'ni unga chiroyli ism qo'yishlari, ta'lim-tarbiya berishlari va oxir-oqibatda alloh roziligini topadagan, millati, vatani, ota-onasiga munosib o'g'il-qiz, tengdoshlari hurmati, muxabbatini qozongan yetuk inson bo'lishi borasidagi ma'suliyatli vazifalarni chin ixlos, sadoqat bilan ado etishlari lozimligi ta'kidlangan.

Islom dinida birovni haqorat qilish, ko'ngliga ozor berish boshqa musulmonlarga tugul hatto o'ziga ham ziyon yetkazish gunoh sanaladi ⁶⁹. Islomda tarbiya ota-

⁶⁸ У.Алимов. Оилада фарзанд тарбияси. “Моварауннахр” нашриёти.Тошкент.2014.-Б.5. (456)

⁶⁹ У.Сувонова, Н.Рахмонова. Ислом таълимотида оила этикаси//SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME2/ISSUE5/2021. -P.416-419

onalarning burchi va farzandlarning haqqi ekanligi aytiladi. “Tarbiya” soʻzi arabcha “robba” feʼlidan olingan boʻlib, “oʻstirdi”, “ziyoda qildi”, “rioyasiga oldi”, rahbarlik qildi va isloh qildi maʼnolarini bildiradi. Musulmon ulamolar “tarbiya”ning bir necha xil taʼrif keltirganlar. Jumladan, imom **Bayzoviy** quyidagicha taʼriflaydi: **“Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga yetkazishdir”**. Rogʻib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha taʼrif qiladi: **“Tarbiya bir narsani bir bir holdan keyingisiga yetkazishdir”**. Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq tarbiyaning maʼnolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uygʻunlik hamda muvozanat ila oʻstirishdir”-deya haqli taʼrifni beradilar. Islomda bolalar tarbiyasi ota-otaning eng maʼsuliyatli va uzoq, davom etadigan burchi hisoblanadi. Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq ushbu burch boshqa ishlardan bardavom boʻlishi bilan farq qilishini, ota-onalarning haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya maʼsuliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqishini taʼkidlaydi. Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq tarbiyaning ibtidosini ona qornida homila paydo boʻlishi bilan emas, balki yigit va qiz bir-birini juft sifatida tanlashidan boshlanadi deya juda asosli fikrni aytadilar. Islomda juft tanlaganda yigit va qiz bir-birining 4 jihatiga eʼtiborli boʻlishi taʼkidlangan. Bular:

1. Nasl
2. Mulk
3. Husn
4. Taqvodorlik

Naslga eʼtiborli boʻlish kerakli islomda ota-onadan bolaga irsiy belgilar oʻtishi ming yillar oldin ham ota-bobolarimiz tomonidan anglanganligini koʻrishimiz mumkun. Hozirgi zamonaviy tibbiyotda ham bola irsiy bilish orqali bola ota-onaning xususiyatlarini oʻziga merosiy olishi asoslangan. Islomda bolaning ham ruhiy-maʼnaviy jihatdan, ham jismoniy sogʻlom oʻsishi toʻgʻrisida qaygʻurish bola hali dunyoga kelmasidan avval, balki homila boʻlmasidan avval boshlanadi. Shu sababdan, biz bola tarbiyasi u tugʻilishidan oldin boshlanishi haqidagi

ulamolarning fikrini to'g'ri deb hisoblaymiz. Shu o'rinda tarbiya tushunchasiga o'z mualliflik ta'rifimizni ishlab chiqdik:

Tarbiya -jamiyat extiyoji va talablaridan kelib chiqqan holda, shaxsga qaratilgan bo'lib unda jismoniy, axloqiy, ruhiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan holda, tarbiya sub'ekti (ota-ona, tarbiyachi va boshqalar) tomonidan shaxsiy namuna asosida, turli usul va vositalar yordamida ijobiy natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladigan murakkab ijtimoiy jarayondir.

Islomda kishining o'z farzandini chiroyli odob-axloq bilan tarbiyalashi ko'p miqdordagi nafl sadaqa berishidan yaxshiroqdir deyilgan. Xudoning bergan buyuk ne'mati sifatida farzand e'tirof qilinib ota-onaning farzand ne'matiga haqiqiy shukuri bu farzandini allohga itoatli qilib tarbiyalash bilan kaechadigan amaliy shukuri sifatida ko'rsatiladi. Boshqa bir hadisda "Ota bolaga go'zal odobdan yaxshiroq narsani bera olmaydi deyiladi (Termiziy rivoyatlari).

Islom har bir ota-ona Olloh bergan buyuk ne'mat- farzandga bo'lgan shukronaligini farzandini solih inson sifatida tarbiyalash bilan javob berishi lozimligini ta'kidlanadi. Islomda bolaga mehribonchilik qilish ota-onaning vazifasi va bolaning haqqi sifatida e'tirof qilingan.

Rivoyat qiladilarki Muhammad payg'ambar o'z huzurida Aqra' ibn Hobis Taymiy o'tirganida Hasan va Alini o'pdilar. Shunda Aqra' "Mening o'nta bolam bor. Ulardan birontasini o'pganim yo'q"-deydi. Muhammad payg'ambar "Rahm qilmaganga rahm qilinmas"-degan javobni aytadilar. Islomda qiz bolalarga hurmat va mehr bilan munosabatda bo'lish lozimligi qayta-qayta uqtiriladi. Ma'nan yuksak, go'zal xulqqa ega bo'lgan ota-onalar farzandlari ham odobli bo'lishi aytilgan. Qizlar ojiza hisoblanib ular tarbiyasida mehr va hurmat bilan munosabatda bo'lish lozimligi uqtirilgan. Islom tarbiyasida ota-onalarning bolalariga munosabatda adolatli bo'lishi muhim ahamiyatga ega ekanligi, ya'ni birini boshqasidan ustun qo'yish orqali ularni bir-biriga dushman qilib qo'yish mumkunligi aytiladi. Islomda farzand tarbiyasida jinslarga ajratmaslik, adolatli bo'lish bola tarbiyasi va uning shaxsiyatiga katta ta'sir ko'rsatishi aytilgan. Ammo, islomda birini ikkinchisidan ko'proq sevish yoki e'tiborli bo'lishiga istisno

tariqasida faqat biri kasal, biri sog‘ yoki biri boy, biri kambag‘al bo‘lgan holatdagina ruxsat beriladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, islomda bola tarbiyasidagi yondashuvlar o‘zining insonparvarligi, adolatliligi bilan ahamiyatlidir. Islom ta’limotida bolaning go‘zal tarbiyali bo‘lishi berilgan to‘g‘ri tarbiyaga daxldorligi ta’kidlangan. Tarbiya masalasida ota-onalar farzandlariga yaxshi bilan yomonning, halol bilan haromning, ma’rifat bilan jaholatning, sahovat bilan bahillikning farqini aniq tushuntira bilishi va har vaqt ularni yomonlikdan qaytarishi, ezgulikga chorlashi lozimligi uqtirilgan. Falsafaning taraqqiyot qonunlariga ko‘ra har bir narsaning me’yori va chegarasi bo‘lgani kabi ota-onalar uchun islomda rag‘batlantirish, jazolash va tarbiyalashning me’yori ko‘rsatilgan. Mahalliy tadqiqotchi **U.Suvonova** islomda tarbiya uch qismdan: badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiyadan iborat ekanligi, bolalar axloqiy tarbiyasi u yashayotgan muhit bilan bog‘liqligi keltirib o‘tgan holda, bolalarga beriladigan tarbiyani suvga qiyoslaydi. Suvni qaysi idishga solsang shu idish shaklini olishini aytadi. Musulmon oilasida farzand tarbiyasi avvalo bolaga salom berishni, insonlarga ezgu niyat, ya’ni sog‘lik va tinchlik tilashni o‘rgatishdan boshlanadi. “Salom” bu Allohning 99 ta ismlaridan biri bo‘lib, hadis shariflarda ham har qanday so‘z salomlashgandan keyin boshlanishi lozimligi aytiladi. Salomga javob qaytarmaslik qoralanib, alik olmaydiganlar bizdan emas deyiladi. Shuning uchun ham hadisi shariflarda “Salomdan avval gap boshlamang”,⁷⁰ - deyilgan. Qur’oni Karimda tarbiya uch ildizdan bahra oladigan abadiy daraxtga qiyoslangan. Uning birinchi ildizi-tavhid, ikkinchi ildizi axloq va uchinchi ilm deyilgan. Bunda, har bir musulmon uchun e’tiqod, axloq va tafakkur hamma narsadan ustuvor ma’naviy hodisa sifatida qaraladi⁷¹. Musulmon oilasidagi urf-odatlar deyarli barchasida amalga oshiriladigan odatlarning barchasi tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan: kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish, otaning oilaga nisbatan huquqi va ma’suliyati ustuvor o‘ringa egaligi, hatto ota-ona turgan uy tomiga farzandning chiqmasligi ham o‘ziga xos yuksak axloqiylikning belgisidir.

⁷⁰ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. “Бахтиёр оила”, Т.: “Шарк”, 2012. –Б. 504.

⁷¹ Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил Ал-Бухорий .Ҳадис. 1. Ал-Жомий Ас-Саҳих .Т.: “Қомуслар бош таҳририяти”, 1997.-Б.560.

Islomda farzand tarbiyasining asosi avvalo ota-onaning tarbiyalanganligi, ularning namunasi, amallari, e'tiqod va dunyoqarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Islomda ota-onalarning farzandi nechta bo'lsada ularga tenglik qilish, muomalada ham barobar qarash kerakligi, ya'ni adolatli bo'lishi lozimligi ta'kidlangan. Farzandlar ham o'z navbatida ota-onalarga yaxshi munosabatda bo'lishi lozimligi, ularning aytganlari qilishlari kerakligi uqtirilgan. Musulmonlarda kelin tanlashda nimalarga e'tibor berilishi lozimligi xususida Abu Hurayradan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh (sollalohu alayhi va sallam): **“Ayol to‘rt narsasi: moli, hasabi, jamoli va dini uchun nikohlanadi. Bas, sen dindorini tanla ,omon bo‘lgur”**, deganlar (Imom Buxoriy, Abu Dovud, Termiziy, Nasoiy). Shu jihatlardan eng muhimi nima deganlarida Muhammad payg‘ambar dini, ya'ni taqvodorligi deb javob beradi. Dinda, ushbu jihatlarning ba'zilari o'tkinchi bo'lib, ularga nisbatan qiziqish vaqt o'tishi bilan susayadi. Dindorlik esa, insonni insoniylikga undovchi omil bo'lishi bilan birga, doimiy ajralmas sifati tarzida qaraladi. Islomda serfarzand bo'lish rag'batlantirilgan. Ma'qal ibn Yasordan rivoyat qilingan hadisda keltirilishicha, bir kishi payg‘ambar huzuriga kelib “Ey Allohning Rasuli, bir jamolli va hasabli ayol topdim, ammo u tug‘mas ekan, shunga uylanaveraymi?,”-deb ikki marta kelganida “Yo‘q” deganligi va uchinchi marta kelganida esa “Eriga muxabbat qiladigan va ko‘p tug‘adigan ayolga uylaninglar, men boshqa ummatlarga sizlarning ko‘pligingizni ko‘z-ko‘z qiluvchiman”, deganligi aytilgan (Abu Dovud, Nasoiy, Hokim). Islom shariati ko‘rsatmasiga ko‘ra farzand tarbiyasida ota-ona birdek ma'sul deyiladi. Ammo bizga ma'lumki, ko'pchilik otalar farzand tarbiyasida ko'proq moddiy ta'minotiga ma'sul sifatida o'zini ko'radi va tarbiyaning og'ir yukini onalar gardaniga yuklaydi. Islomda ham bola tarbiyasida asosan ma'suliyat onaning zimmasiga tushadi. Islomda ota-onalik hodisasining o'ziga xos xususiyatlari o'rganadigan bo'lsak, farzand tarbiyasida onaning roliga ko'proq e'tibor qaratiladi va otaning o'zni haqida kam gapiriladi. Ammo otaning o'zni haqida Rasululloh sollalohu alayhi vasallam “Otaning farzandiga bergan eng go‘zal narsasi go‘zal

tarbiyadir⁷²”-deydilar. Islomda musulmon odam takabburlik, jizzakilik, yolgʻonchilikdan va feʼl atvoridagi boshqa qusurlardan xalos boʻlishi lozim deyiladi⁷³. Islom taʼlimotiga koʻra, oʻgʻrilik, aldamchilik, poraxoʻrlik bilan topilgan har bir narsa, oʻzi qancha pok boʻlsa ham topuvchiga xaromdir deyilgan. Toʻgʻri yoʻl bilan topilgan har bir narsa hallol ekanligi aytiladi. Aldamchilik, firibgarlik, poraxoʻrlik, bosqinchilik, tovlamachilik, axloqsizlik, zinokorlik yoʻli bilan topilgan har qanday boylik harom hisoblanib, musulmonlarga taʼqiqlangan⁷⁴.

Maʼlumki, barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning barqarorligi, undagi sogʻlom muhit eng muhim omillardan hisoblanadi. Birinchi prezidentimiz, “Avvalo biz, yaʼni, xalqimiz va davlatimiz, har qaysi inson, nimaniki oʻz oldimizga maqsad qilib qoʻygan boʻlmaylik, qanday buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmaylik, barcha olijanob harakatlarimizning negizida nima buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmaylik, barcha olijanob harakatlarimizning negizida nima turishini oʻylab koʻraylik. Tabiiyki, barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham maʼnaviy jihatdan sogʻlom qilib oʻstirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini koʻrish, dunyoda hech kimdan kam boʻlmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi. Aynan mana shunday har tomonlama yetuk avlodgina butun hayot oldimizga qoʻyayotgan oʻta murakkab, ogʻir sinov va qiyinchiliklarni yengish, biz koʻzlagan yuksak marralarni egallashning eng asosiy sharti ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz”, -deb taʼkidlab oʻtganlar.

Islomda otaning farzandiga maʼnaviy taʼminoti moddiy taʼminotidan ustun turishi taʼkidlanib “Hech bir ota oʻz farzandiga goʻzal odobdan ham ortiqroq hadya bera olmaydi”, -deyiladi (Termiziy rivoyati).

⁷² Муртазина Э.И., Минуллина А.Ф. Установки на воспитание и семейную роль у отцов в Исламе//Современные проблемы науки и образования.-2014.-№3. URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=13817> id=13817

⁷³ А.Рахмонов, А.Рахмонов, Ислам ҳуқуқи.Тошкент-2007.-Б.86. (500)

⁷⁴ Ислам ҳуқуқи.-Б.94.

Ma'lumki, solih farzandlar osmondan tushmaydi. Balki ota-ona nazoratida oila ichida tarbiyalanib, voyaga yetishadi. Bolalarning yosh vaqtlarida ularning tarbiyasiga beparvo bo'lish, yomon kishilarga aralashib yurishlariga yo'l qo'yish zararli oqibatlariga olib keladi. Islomda bola tug'ilganidan yetti kun o'tib uning sochi olinishi birinchidan, bolaning sog'lom o'sishi, kuch-quvvatga to'lishi, hid bilishi, va eshitish kabi sezgilari mukammal bo'lishi uchun, ikkinchidan, ijtimoiy hikmat bo'lib, jamiyatda bola o'z o'rnini topishi, ijtimoiy adolatning qaror topishi va kelajakda bolaning qo'li ochiq bo'lishi uchun ham qilingan. Islom ta'limotida yosh avlodning jismonan va baquvvat bo'lib ulg'ayishiga jiddiy ahamiyat berilgan. "Farzandlaringizga suzish va kamon otishni, qizlarga ip yigirishni o'rgatinglar", deyilgan (Bayhaqiy rivoyati). Muhammad payg'ambar "Ota-ona o'z farzandlariga yaxshi axloq-odobdan yaxshiroq meros qoldira olmaydi"⁷⁵,- degan edilar. Mahmud Hasaniy tarjimasidagi "Odob bo'stoni va axloq gulistoni" asarida tarbiya ta'sir qiladigan kishilarni 3 toifaga ajratadi ⁷⁶:

1. Hanuz oq bilan qorani tanimagan bola. Uning tabiati yomonlik g'ubori bilan bulg'anmagan bo'lib nasihat tez ta'sir qiladi.
2. Oq bilan qorani ajrata oladigan bola. Ulardan ba'zilari o'z nafsining g'alabasi bilan yaxshilik tomonga burila olmay yurgan bo'ladi. U qilayotgan ishining yomonligini biladi. Bunday odamni tarbiyalash birinchisiga nisbatan qiyinroq, ammo unga doimiy tarbiya berilib, har xil nasihatlar va tanbehlar berilsa albatta yaxshi bo'ladi.
3. Oilada botil hayot va fosiq fikrlar bilan ulg'aygan kishi. U umr bo'yi nohaq ishlarni haq deb bilib kelgan va shunga astoydil e'tiqod qo'ygan bo'ladi. Bunday kishini tarbiyalash juda qiyin.

Ota-onaning burchlari haqida "Odob bo'stoni va axloq gulistoni" asarida quyidagilar keltiriladi:

⁷⁵ М.Куръонов.Оталар китоби.Тошкент. "Ўзбекистон" 2007.-Б.14.(80)

⁷⁶Махмуд Ҳасаний таржимаси .Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони.Тошкент.ЎзФА "Фан" нашриёти.1994.- Б.9.(220)

- farzandiga yaxshi va chiroyli ism qo'yish;
- farzandini ilm-ma'rifatli qilish;
- o'z farzandining nomusli ayoldan tug'ilishiga harakat qilish orqali, odamlarning shu farzandga turli ta'nalar qilishidan saqlash;
- farzandini halol taom bilan o'stirish orqali uni xaromxo'rlikdan saqlash va h.z.⁷⁷.

Islom tarbiya masalasida juda mukammal dasturga ega deya olamiz. Bunga misol agar onaning suti yetarli bo'lsa, bola ikki yoshgacha emishga haqli deyiladi. Agar ona suti yetarli bo'lmasa, sut berishda uzrli bo'lsa, enaga, doya yollashi mumkun, ammo xunuk, tentak, aybli doya yollashi kerak emasligi aytilgan. Bunda bolani tarbiyalashda ona sutining ham nechog'lik ahamiyatli ekanligiga e'tibor qaratilgan. Bola asosan yetti yoshlargacha erkin qo'yilib yetti yoshdan ilmu odob, xat-savod o'rgatilishga jalb qilingan. Farzandarni yomon va bilimsiz kishilar bilan doimo hamsuhbat bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi deyiladi. Chunki bola nimani ko'rsa va eshitsa unga ergashadi. Hujjatul islom Imom Abu Homid G'azzoliy **“Kimyoi saodat”** asarida “Inson farishta va hayvon orasidagi maxluqdir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yo'q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunui uning o'zi pok ilohiy nurdan iborat. Faqat insonlardagina rivojlanish, ruhiy kamolot xislati mavjud”,-deya asosli ta'rifni beradilar. Bunda G'azzoliy inson tarbiyalanmasa hayvondan farqi bo'lmasligi, moddiy tubanlikga yuz tutishiga shama qilib tarbiya, ma'rifatli bo'lish masalasi ustivor masala sifatida qaraydi⁷⁸. Islom dini payg'ambari «Ikki kunini bir xil o'tkazgan kishi zarar ko'radi», -degan fikrlari orqali haqiqiy musulmon har kuni oldinga qarab harakat qiluvchi va doimo o'zini kamol toptiruvchi insonligi, ko'p mehnat qilgan, hamda ko'p izlangan odam o'ziga, millatiga va diniga foydali bo'lishi aytiladi. Islomda insonni ota-onasi, ustozlari va boshqalar tarbiyalashdan tashqari insonning o'zini o'zi tarbiyalashi lozimligiga e'tibor qaratiladi. O'zini yaxshi tarbiyalagan inson o'zining oldidagi

⁷⁷ Махмуд Ҳасаний таржимаси .Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони.Тошкент.ЎзФА “Фан” нашриёти.1994.-Б.32.(220)

⁷⁸ Комил инсон ҳақида тўрт рисола.-б.4.

burchini ado qilgan inson sanaladi. Jamiyatda ota-onalarning burchlari faqat farzandni dunyoga keltirishdan iborat bo‘libgina qolmay, balki, yaxshi tarbiyalash, dini va millati uchun foydasi tegishini ta'minlamoq deyiladi. Payg‘ambarimiz Hadislarda “Farzandingizni yaxshi boqingiz, ularni yaxshi tarbiya qilingiz” deb marhamat qilganlar⁷⁹. Islom dinida farzand tarbiyasi belgilangan axloqiy me'yorlarga amal qilishni talab qiladi. Farzand tarbiyasi ota-ona uchun farz bo‘lib, oxiratdagi sharmandalik insonning o‘z zurriyotini tarbiyalash qobiliyatiga ega bo‘lmasligi bilan bog‘liqlikligi ta’kidlanadi. Bolalarni tarbiyalash, o‘qitishda ota-ona birdek ma'sulligiga e'tibor qaratiladi. Islomda bola tarbiyasi bola tug‘ilganidan yoki ona qorniga tushganidan emas, balki yigit va qizning bir-birini juft sifatida tanlashidan boshlanadi deyiladi⁸⁰.

Islomda farzand tarbiyasining asosi avvalo ota-onaning tarbiyalanganligi, ularning namunasi, amallari, e'tiqod va dunyoqarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Islomda ota-onalarning farzandi nechta bo‘lsada ularga teng qarash lozimligi, muomalada ham barobar qarash kerakligi, ya'ni adolatli bo‘lishi lozimligi ta’kidlangan. Farzandlar ham o‘z navbatida ota-onalarga yaxshi munosabatda bo‘lishi lozimligi, ularning aytganlari qilishlari kerakligi uqtirilgan. Musulmonlarda kelinni tanlashda nimalarga e'tibor berilishi lozimligi xususida Abu Hurayradan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): “Ayol to‘rt narsasi: moli, hasabi, jamoli va dini uchun nikohlanadi. Bas, sen dindorini tanla ,omon bo‘lgur”, deganlar (Imom Buxoriy, Abu Dovud, Termiziy, Nasoiy). Shu jihatlardan eng muhimi nima deganlarida Muhammad payg‘ambar dini, ya'ni taqvorligi deb javob beradi. Dinda, ushbu jihatlarning ba'zilari o‘tkinchi bo‘lib, ularga nisbatan qiziqish vaqt o‘tishi bilan susayadi. Dindorlik esa, insonni insoniylikga undovchi omil bo‘lishi bilan birga, doimiy ajralmas sifati sifatida qaraladi. Islomda serfarzand bo‘lish rag‘batlantirilgan.

⁷⁹ Ислом ахлоқи .-Б.46.

⁸⁰Шайх Муҳаммад Юсуф Муҳаммад Содик .Бахтиёр оила.Тошкент, Ҳилол-нашр.2021.-Б.518.

Ma'lumki, barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning barqarorligi, undagi sog'lom muhit eng muhim omillardan hisoblanadi. Birinchi prezidentimiz, "Avvalo biz, ya'ni, xalqimiz va davlatimiz, har qaysi inson, nimaniki o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan bo'lmaylik, qanday buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmaylik, barcha olijanob harakatlarimizning negizida nima buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmaylik, barcha olijanob harakatlarimizning negizida nima turishini o'ylab ko'raylik. Tabiiyki, barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi. Aynan mana shunday har tomonlama yetuk avlodgina butun hayot oldimizga qo'yayotgan o'ta murakkab, og'ir sinov va qiyinchiliklarni yengish, biz ko'zlagan yuksak marralarni egallashning eng asosiy sharti ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz", -deb ta'kidlab o'tganlar.

Ma'lumki, solih farzandlar osmondan tushmaydi. Balki ota-ona nazoratida oila ichida tarbiyalanib, voyaga yetishadi. Bolalarning yosh vaqtlarida ularning tarbiyasiga beparvo bo'lish, yomon kishilarga aralashib yurishlariga yo'l qo'yish zararli oqibatlarga olib keladi. Islomda bola tug'ilganidan yetti kun o'tib uning sochi olinishi birinchidan, bolaning sog'lom o'sishi, kuch-quvvatga to'lishi, hid bilishi, va eshitish kabi sezgilari mukammal bo'lishi uchun, ikkinchidan, ijtimoiy hikmat bo'lib, jamiyatda bola o'z o'rnini topishi, ijtimoiy adolatning qaror topishi, kelajakda bolaning qo'li ochiq bo'lishi uchun ham qilingan. Islom ta'limotida yosh avlodning jismonan va baquvvat bo'lib ulg'ayishiga jiddiy ahamiyat berilgan.

Payg'ambarimiz Hadislarda "Farzandingizni yaxshi boqingiz, ularni yaxshi tarbiya qilingiz" deb marhamat qilganlar⁸¹. Islom dinida farzand tarbiyasi belgilangan axloqiy me'yorlarga amal qilishni talab qiladi. Farzand tarbiyasi ota-

⁸¹ Ислом ахлоқи .-Б.46.

ona uchun farz bo'lib, oxiratdagi sharmandalik insonning o'z zurriyatini tarbiyalash qobiliyatiga ega bo'lmasligi bilan bog'liqligi ta'kidlanadi.

Islom dinida tarbiyadan ko'zlangan maqsad ota-onalarning farzandlarini sog'lom, go'zal xulqli, o'z burchiga sadoqatli, jamiyatda ma'suliyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan fazilatlarga ega qilib tarbiyalash hisoblanadi. Dinda akakalar, opa-singillar, umuman olganda tug'ishganlarning bir-biriga dushman bo'lib qolishida asosiy aybdor sifatida ota-onalar ko'rsatiladi. Agar ota-onalar farzandlariga mehr ko'rsatishlarida adolatli bo'lmasalar ularni bir-biriga qarshi qilib qo'yiladi deyilgan. Bu borada Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq "Baxtiyor oila" asarida bolalar orasda adolat qilish ham ota-onaning vazifasi va bolalarning haqqi sifatida ko'rsatiladi⁸². Agar ota-onalar bolalaridan biriga ko'proq ikkinchisi va boshqalariga ozroq e'tibor bersa, adolatsizlik qilinsa bolalar orasida hasad va fitna kuchadi deyilgan. Islomda ota-ona bola uchun qiladigan hech bir harakati ajrsiz, savobsiz qolmasligi ta'kidlangan.

Islomda Xudoning kitobi hisoblangan "Qur'oni Karim" bayon etilgan hukmlar inson odobini shakllantirish uchun eng muhim mezon hisoblanadi.

II.3. "SHARQ RENNESANSI" DAVRIDA ISLOM PEDAGOGIKASI TARAQQIYOTI

Ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasida yuzaga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Islomda shariat normalarida tarbiya ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqi sifatida belgilangan. Qadimgi Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar, g'oyalar muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda. Markaziy Osiyo Uyg'onish davri mutafakkirlari o'zining ta'lim tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni

⁸² Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq .Бахтиёр оила.334-б.

insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do'stlik, sahiylik kabi umuminsiniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Shu sababli bugungi globallasuv davri yoshlarini tarbiyalashda ajdodlarimiz ko'rsatmalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki ota-bobolarimizdan qolgan ma'naviy meros nafaqat millatimizning o'tmishi, shuningdek kelajagi uchun ma'naviy kuch va fidoiylik manbai hisoblanadi⁸³. Har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga oid an'analari borki, ular pedagogik tafakkur taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi, hamda bola tarbiyasidagi tasavvurlar va qarashlarini ifoda etadi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari o'zidan yuksak madaniyat, axloq-odob saboqlarini meros qoldirganlarki, haqli ravishda har bir davrda farzand tarbiyasida dasturamal bo'la oladi, deya olamiz.

Islomda farzand tarbiyasiga doir pedagogik qarashlar "Sharq renessansi" davrida yanada boyib, takomillashadi. Bu davrda yaratilgan axloqiy-didaktik asrlardagi qarashlar islom tarbiya mezonlariga asoslanganligini ko'rishimiz mumkun. Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak-axloqiy sifatlari ulug'lanadi, hamda shunday fazilatlariga ega bo'lishga da'vat qilinadi.

Islom axloqiy mezonlariga tayanilgan pedagogik qarashlar rivoji ayniqsa Sharq Rennesansi davrida IX-XII, XIV-XV asrlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bizga ma'lumki, Rennessans hodisa sifatida dastlab Sharqda o'zini namoyon qiladi. Buni ma'lum bir tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'liqligini izohlashimiz mumkun. **Birinchidan**, arab sivilizatsiyasining yuzaga kelishi natijasida islom dini tarqalgan hududlarda arab alifbosining joriy qilinishi sababli ko'plab Sharq allomalarining asarlari bilan tanishish imkoniyatining yuzaga kelishi; **ikkinchidan**, Somoniylar, Qoraxoniylar, Temuriylar kabi markazlashgan ulkan turkiy davlatlarning yuzaga kelishi; **uchinchidan**, Buyuk Ipak yo'lining faol harakati natijasida fan va sohalar yutuqlari bo'yicha tajriba almashish imkoniyatining mavjudligi va hokazo. Sharq uyg'onish davrining yuzaga kelishiga islom

⁸³ A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar.T.:Muharrir, 2008 y.-B.47.

omilining ta'siri beqiyosdir. Jumladan, **Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri"** asarida shaxs ma'naviy kamolotini adolatli jamiyat qurishning asosiy sharti sifatida belgilaydi. Farobiy ilm-ma'rifatli yetuk inson bo'lish uchun har uni yoshligidan boshlashi, buning uchun sog'ligini yaxshi saqlashi, so'zining uddasidan chiqishi, yomon ishlardan saqlanishi, barcha qonun-qoidalarini bilishi, notiq, ilimli va dono kishilarni hurmat qilishi, ahli ilmdan mol-dunyasini ayamasligi lozimligini nasihat qiladi. Farobiyning fikrlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ta'lim-tarbiyada yoshlarni mukammal inson sifatida tarbiyalashda xususan, bilim, ma'rifat, albatta yaxshi aqliy-axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi. Uning fikriga ko'ra bilim, ma'rifat va yaxshi aql bilan bezanmog'i lozim, aks holda kutilgan natijaga erishilmaydi. Mahalliy tadqiqotchilardan M. Inomova o'z tadqiqotlarida Abu Nasr Farobiyning ilmiy merosini o'rganar ekan Farobiyning "Ijtimoiy va biologik tomonlar o'zaro munosabatining birligi qoidasi" haqidagi qarashlariga alohida to'xtalib o'tadi. U bola xulqi shakllanishida oila va atrofdagilarning o'zaro munosabatining qay darajada bo'lishi asosiy ijtimoiy omillardan ekanligini ta'kidlaydi. **Abu Nasr Farobiy** bola tarbiyasi bir maqsadga qaratilishi lozimligini, **Abu Rayhon Beruniy** esa ota-onaning farzandlariga insonparvarlik go'yasini singdirilishi muhim ekanligini ta'kidlaydi. Buyuk mutafakkirlarimizdan Abu Rayhon Beruniy asarlarida ota-onaning bolaga bo'lgan munosabatida muhim fikrlarni bayon qilib, bola xulqini mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g'azablanishdan, qo'rqitish va xafalikdan saqlash orqali erishish mumkunligini aytib, bolalarga hohlagan foydali narsani topib berish, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligi uqtiriladi. U yomon xulq mijozning buzilishiga olib kelishi, bola organizmida o'zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkunligini asoslagan holda, bola xulqining mo'tadilligi tan va ruh sog'lomligining garovi sifatida ko'rsatadi. Abu Rayhon Beruniy ota-onalarning farzandlariga e'tiborli bo'lishlari, ularning moddiy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirishlari zarurligi, bolaga bo'lgan munosabatdagi qattiq talabchanlikning salbiy ta'siri, ota-onalarning farzandlarini boricha qabul qilish lozimligi, bola

shaxsiga hurmat bilan qarash, uni yaxshi ko'rish va u bilan ko'proq vaqtni o'tkazish, ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi. Aks holda bolada jizzakilik, tushkunlik holatlarining paydo bo'lishiga va bu esa o'z-o'zidan undagi bilish jarayonlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ruhiy, hamda jismoniy rivojlanishiga, hamda shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini aytib o'tadi.

XI asrda yashab ijod qilgan **Yusuf Xos Xojib** “**Qutag'du bilig**” asarida ota-ona hamda bolaning o'zaro munosabati borasida shunday deydi: “Ota-ona farzandini tergap tarbiyalasa, uning fe'li yo'rig'i yaxshi bo'ladi, ota va onaning yuzi yorug' bo'ladi. Ota-ona farzandini kichikligidan nobakor qilib qo'ysa, farzandda gunoh yo'q barcha ayb otaning o'zidadir ”⁸⁴.

Buyuk mutafakkir Abu ali Ibn Sino farzand tarbiyasi haqida “Yosh bola ta'lim-tarbiya oladigan joyda odob-axloqli, turish-turmushi namunali bolalar bo'lishi lozimligini yosh bolaning har bir narsani ularga taqlid qilib o'rganishi bilan asoslaydi”⁸⁵. Ibn Sino bolani tarbiyalash ota-onaning asosiy maqsad vazifasi sifatida tavsiflab, axloqoy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama-yakka suhbatda bo'lishi, unga nasihat qilish ekanligini aytadi. U bolaning axloqiy xususiyatlari mehnat, jismoniy, aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni, uni inson sifatida kamol toptirishda muhim deb hisoblaydi. Farzand tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i kerak, shundagina uning noo'rin hatti-harakat qilishining oldi olinishi mumkun deydi. Buyuk tabib, mashhur alloma **Abu Ali Ibn Sino** “**Tib qonunlari**”, “**Amaliy hikmat**” kabi asarlarida sog'lom avlod tarbiylashda ota-onalarning jismoniy salomatligi muhim ahamiyatga egaligini ilmiy asoslab beradi. Bundan tashqari ota-onalarning o'zaro munosabatlaridagi muhitning sog'lomligi, bolani qo'pol so'zlarsiz tarbiyalash lozimligi, haddan ziyod hayajonlantirishning ruhiyatiga salbiy ta'siri, ota-onalarning vazifalari haqida mulohaza qilgan. Xususan, “**Tib qonunlari**” asarida

⁸⁴ Yusuf Xos Xojib .Qutag'du bilig. T.: “Yangi asr avlodi”, 2015.-B.560.

⁸⁵ У.Алимов.Оилада фарзанд тарбияси.”Моварауннахр “нашриёти.Тошкент .2014.-Б.5.(456)

tarbiyachining diqqati bola xulqini yaxshilashga, bolaga qattiq g'azab qilmaslik, qo'rquvni uyg'otadigan munosabatdan chekinish, bolaning hohishini, uning qiziqishlarini hisobga olish, hamda uni oldida unga yoqmaydigan harakatlarni qilmaslik lozimligi uqtiriladi. **Abu Ali Ibn Sinoning "Tadbir al manozil"** asarida ota-onalarning bola tarbiyasidagi vazifalariga to'xtalinilgan. Asarda ota-onalarning farzandlarini mehnatsevarlikga, kasb-hunarga o'rgatishlari lozimligiga alohida urg'u berilgan. Ibn Sino buning yordamida ikki yoqlama foydaga erishishini ta'kidlaydi: birinchidan, bolada uning ilk bolalik davridan boshlab, kuchli ijobiy harakter shakllandi; ikkinchidan, bolaning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ibn Sino farzand tarbiyasida jismoniy, ruhiy, ma'naviy tarbiyaning bir-biriga uzviy bog'liqligiga e'tibor qaratadi.

XI asrda yashab ijod qilgan **Yusuf Xos Xojib "Qutag'du bilig"** asarida ota-ona hamda bolaning o'zaro munosabati borasida shunday deydi: "Ota-ona farzandini tergap tarbiyalasa, uning fe'li yo'rig'i yaxshi bo'ladi, ota va onaning yuzi yorug' bo'ladi. Ota-ona farzandini kichikligidan nobakor qilib qo'ysa, farzandda gunoh yo'q, barcha ayb otaning o'zidadir". **Yusuf Xos Xojib "Qutag'du bilig"** asarida oilaviy maishiy muommolarga ham alohida e'tibor beradi. Ota-ona nazoratida bo'lgan bolalarda ma'suliyat hissi rivojlanib borishini ta'kidlab, tarbiyada ota-onaning mavqei asosiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi .

Ahmad Yassaviyning ma'naviy axloqiy qarashlari bugungi kunda ham ahamiyatli bo'lib, uning nuqtai nazariga ko'ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari orqali u insonlarga rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi, zaxmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo'ladi degan fikrni ilgari suradi. Uning hikmatlari insonlarni xushyorlikga, faol harakatlanishga, fitnalar va fisqu-fasod ishlardan o'zini olib qochishga undaydi⁸⁶.

⁸⁶ M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat.T.:2004y.

Yana bir yirik allomalardan **Burxoniddiy Marg'iloniyning** axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida diyonat, imon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g'oyalari shaxsni har tomonlama, uyg'un rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda XI asrda yashagan islom ta'limotining yirik namoyondasi Burxoniddin Marg'iloniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida asosan erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, imon-e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik asosiy o'rin egallaydi⁸⁷. Uning axloqiy-huquqiy qarashlari musulmon ma'naviyati, shu jumladan xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shgan. Jumladan, uning "Agar sen hoh unga adab o'rgatg'il, hoh o'rgatmag'ul turmush mashaqqatlarning o'zi unga o'rgatur. Undoqkim debdurlar, ota-ona tarbiyalanmasa, kecha-kunduz uni tarbiyalaydur" kabi fikrlari e'tiborga molikdir⁸⁸. Mazkur fikrlari orqali otalarning namunali, tarbiyali bo'lishi farzand tarbiyalash jarayonida yaxshi samara berishini aytib o'tadi.

Islom pedagogikasi haqida gaprilganda **Kaykovusning** 44 bobdan iborat bo'lgan "Qobusnoma" asari qimmatli manbadir. U ota-onalarning farzand tarbiyasidagi vazifa va burchlari, farzandlarning ota-onaga munosabati, insonlar o'rtasidagi muomila odobi, axloqiy munosabatlar, haqorat, qo'pollik kabi yomon odatlardan saqlanish zaruriyati bilan bir qatorda, bola tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish, uning kelajagi uchun ota-onaning ma'sulligi kabi masalalarga keng urg'u beradi. Islom ilohiyotchi olimlaridan Imom al-G'azzoliy komil insonni barcha insonlarning haqiqati, ya'ni odamiylar odamiysi ekanligini aytib har bir inson mana shu haqiqatga intilishi kerakligini ta'kidlaydi. Ajdodlarimiz kamolot tushunchasini har xil talqin qilganlar, jumladan, **Nasafiy** inson kamolotini ilm o'rganish va tariqat maqomlarini bosib o'tishida desa, **Koshifiy** esa kamolotni odamning

⁸⁷ M.Shoxadjayev. Buehoniddin Marg'iloniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: "Fan va texnologiya". 2008 y.

⁸⁸ M.Hamdanova. Ma'naviyat asoslari. T.: "Fan va texnologiya". 2008 y.

odamga nafi tegishi, o'zini boshqalarning baxti uchun fido qilishida deb hisoblaydi.

XIV-XV asrlarda Sharq Rennesansi davri ikkinchi bosqichining yuzaga kelishida Temuriylar saltanatida ilm-fanga berilgan yuksak darajadagi e'tibor va rag'bat, hamda ulkan markazlashgan davlatning barpo qilinishi bevosita ta'sir qilgan deya olamiz. Bu davrda yashagan olimu fozillar qatorida Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Voiz al-Koshifiy shular jumlasidandir. Mirzo Ulug'bek bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqishi va xavasini uning oilaviy muhiti bilan bog'liqligi, o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishlariga alohida e'tibor berishlari lozimligi, bola uchun tarbiya muhiti yetakchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam berishi, u insonning kishilar bilan munosabatida, ayniqsa kishilarning bir-birlariga bo'lgan ruhiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topishini alohida ta'kidlaydi.

Jaloliddin Davloniyning fikricha, oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, ularning ushbu jabhada teng ishtirok etishi, bolaning yaxshi xulq, odob qoidalarini, hamda muayyan kasbni egallashiga ko'maklashishi, ilm-fan va kasb - hunar egallashning moddiy asosi bo'lmish oziq-ovqat, kiyim-kechak, kerakli buyumlarni yetkazib berishlari uchun jonbozlik ko'rsatishlari kerak.

O'z davrining yetuk mutafakkirlaridan biri **Muslixiddin Sadi Sheroziyning tarbiyaviy qarashlari** oilani bolaning baxti va kelajagi uchun zamin yaratuvchi makon sifatida ta'riflaydi. Uning asosiy tayanchi ota bo'lib, ma'suliyatli bo'lishi farzandlarini tarbiyalashi, bilim berishi va kasb o'rgatishi lozim. Sadi Sheroziy fikricha, bola qobiliyatli va kamqobiliyatli bo'lishi mumkun. Bolaning rivojlanishi uchun tarbiyalanishi kerak, tarbiyalanmasa qobiliyati so'nadi. Adib tarbiyani asosan uch turga aqliy, nafosat va jismoniy tarbiyaga bo'ladi, hamda tarbiyani erta bolaligidan boshlashni tavsiya qiladi.

Mustaqillikga erishganimizdan keyin tarixiy, milliy-madaniy merosimizni o'rganishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi milliy qadriyatlarimizning mazmunidagi axloqiy g'oyalarini bilishga bo'lgan xalqimiz qiziqishlarining ortib borayotganligi bilan bog'liq. Markaziy Osiyo mutafakkirlari o'z asarlarida shaxs ma'naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga doir o'z qarashlarini bildirganlar.

Ismoil al-Buxoriy hadislarida ota-onaning farzandga munosabati bo'yicha shunday deyiladi: “Tangridan qo'rqinglar va farzandlaringizga bir xil mehrda bo'linglar! (Ularga kiyim va taomlarni barobar taqsimlaganlar)”. Yuqoridagi hadisni tahlil qiladigan bo'lsak, islomda ota-onalarning farzandlariga bo'lgan munosabatlarida adolatli bo'lishi, birini-ikkinchisidan ustun qo'yish asnosida ularni bir-biriga dushman qilib qo'ymasliklari, tugishganlarning nizolasib qolishlari ko'p holatlarda mehrning bir xil taqsimlanmaganligi bilan bog'likligi bayon qilingan.

Muhammad ibn Muhammad Jomiy aytadi: “Har bir ota-onaning farzand oldidagi muhim burchi bu -ota o'z farzandini nomusli ayoldan tug'ilishiga harakat qilsin, toki tug'ilganidan keyin odamlar farzandga turli ta'nalar qilib yurmasin, ota-onalar o'z farzandlariga ilmu ma'rifat o'rgatishi, hamisha halol ovqat bilan boqishi lozimligini, ona esa harom va noravo ovqatlardan, nosha'riy ishlardan tiyilishi kerakligini ta'kidlaydi.

Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatnomai sultoniyy” va “Axloqi muhsiniyy” asarlari 500 yil davomida ta'lim maskanlarida axloq -odob dasturi, ya'ni inson kamolotining bir dasturi sifatida qo'llanilib kelingan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. “Futuvvatnomai sultoniyy” asarida “futuvvat” so'zini istiloh qilar ekan uning uch martabasi bor deydi:

1. Sahovat-bor narsasini hech kimdan qizg'anmaslik.
2. Safo-qalbni kibru havo, gina qudrat va g'azabdan pokiza tutish.

3. Vafo-hamma vaqt xalq xizmatida turish.

Bunda futuvvatga barchaga insof ko'rsatish evaziga hech narsa talab qilmaslik, ya'ni bor kamchiliklar va ayblarni o'ziga nisbat berish, ammo vujudga kelgan voqealardan o'zini xorijda hisoblash deya ta'rif beradi. Mutafakkir "Kimdagi futuvvat sifatlari namoyon bo'lsa, uni "fatiy"deydilar. Bu so'z yosh yigitga nisbatan qo'llaniladi. Majoziy ma'noda esa insoniy fazilatlar nuqtai nazaridan kamolot chegarasini zabt etgan odamga nisbatan qo'llaydilar"⁸⁹, - deydi. Koshifiy futuvvat, ya'ni kamolotning 71 ta sharti, oltita zohiriy va oltita botiniy ruknlari mavjudligini ta'kidlaydi. Bunda muallif kamolot (futuvvat)ning zohiriy ruknlariga quyidagilarni kiritadi:

1. Insonning tilini g'iybatdan va behuda so'zlardan tiyishi.
2. Nojo'ya va nomaqbul so'zlardan qulog'ini berkitish.
3. Ko'rish nojoiz hisoblangan narsalardan ko'zini yumish.
4. Harom narsalardan, xalq ozoridan qo'lni tortish.
5. Man qilingan noshoista joylardan oyoqni tortish.
6. Xarom ovqatlardan og'izni, zinodan a'zoni bekitish.

Kamolot(futuvvat)ning botiniy ruknlariga quyidagilar kiritiladi:

1. Saxovat-tilamasdan burun o'z mahalida baxshida etmoq..
2. Tavoze, boshqalarni o'zidan afzal bilmoq, barchaga kamtar va hokisor bo'lish.
3. Qanoat.
4. Avf va marhamatni xalqga iloji boricha shafqat ko'rsatmoq, kishilar gunohini kechirmoq va iloji boricha ularga yaxshilik va muruvvat ko'rsatish.

⁸⁹ Husayn Voiz Koshifiy " Futuvvatnomayi sultoniyy" O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti, Toshkent-2011. (376 6)

5. Havobalandlik va g'ururni tark etish. Ya'ni qanchalik ma'qul va maqbul ishlarni amalga oshirsa ham mag'rur bo'lmaslik.

6. Qurb va vaslat maqomiga butun vujudi, dilu joni bilan erishish.

Voiz Al-Koshifiy o'zining pedagogik qarashlarida bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishga alohida e'tibor beradi. Ota-onalar, muallimlardan bu masalaga alohida e'tibor berishlarini talab etadi. Bola tarbiyasida oila muhitining katta rol o'ynashi, farzandlarni tarbiyalashda va'daga vafoli, to'g'ri so'z, yaxshi xulqli qilib tarbiyalash lozimligini ta'kidlaydi. Islom ma'naviyati va Hadis ilmining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan ulug' zotlar **Burhoniddin Marg'inoniy, Moturidiy, Xoja Axror, Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband** kabilar yaratgan ma'naviy va madaniy merosi, avvalo, jamiyat ma'naviyati, milliy qadriyatlarining shakllanishi, hamda boyishiga xizmat qilgan. Ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish orqali komil insonni tarbiyalashga qaratilgan.

Tadqiqotlarimiz davomida Sharq allomalari ilmiy merosida oila, ota-ona va bola munosabatlari hamda mazkur munosabatlarning bola shaxsi shakllanishiga ta'sir etish muammosi muhim o'rin egallaganligining guvohi bo'ldik.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari bolaning jamiyatda munosib avlod sifatida kamol topishida oila ma'naviy muhiti, ota-onalar asosiy ta'lim sub'ekti sifatida ma'suliyatli bo'lishi, bolaning beg'uborligiga, uning orzu-umidlariga qarshi bormaslik, o'ziga xosligini hurmat qilish va bu borada o'z burchlarini anglashlari lozimligiga asosiy e'tiborlarini qaratganligining guvohi bo'ldik.

II.4. MADRASALARNING MA'RIFAT MARKAZLARI SIFATIDAGI FAOLIYATI

Islom kirib kelgan hududlarida o'rta va oliy ta'lim madrasalarda amalga oshirilgan. "Madrasa" atamasi arab tilidan kelib chiqqan bo'lib, o'zagi "darasa"- « o'rganmoq, o'qimoq, dars olmoq» degan ma'nolarini anglatadi. Madrsalarda

ulamolar, maktabdorlar, davlat xizmatchilari, xattotlar tayyorlangan. Hozirgi kunda esa faqat din xizmatchilari tayyorlanadi. Islomning ilk davrlarida VII-IX asrlarda Islom ulamolari masjidlarda va boshqa jamoat joylarida musulmonlarga ilohiyot masalalarini sharhlab berganlar. Islom dini taraqqiy etgan sayin ilohiyot masalalarini odamlarga o'rgatadigan alohida muassasaga ehtiyojning kuchayadi. Islomda ilk rasmiy madrasa XI asrning ikkinchi yarmida Bag'dodda, Saljuqiylar davlati bosh vaziri Nizomulmulk tomonidan, Markaziy Osiyoda esa Qoraxoniylar hukmdori Tamg'och Bug'roxon Ibrohim tomonidan Samarqandda qurilgan.

Madrasalar, shuningdek yo'nalishi bo'yicha ikki xil bo'lgan:

1. Umumiy diniy ta'lim muassasalari.
2. Maxsus ta'lim madrasalari.

Bularda Islom dinining alohida jihatlari kengaytirilgann dastur asosida o'qitilgan. Shular jumlasiga Daloyilxonani misol qilish mumkun⁹⁰. Bu o'quv muassasasida ilohiyot, falsafa, islom qoidalarining inkor etib bo'lmas dalillari o'qitilgan. Talabalar 12-40 yoshgacha bo'lganlarni qamrab olgan. Tolibi ilmlar kunduzgi va sirtqi bo'limlarga bo'lingan. Madrasa talabalarining katta qismi hujralarda istiqomat qilib ulardan tag-joy, ya'ni ijara puli olinmagan. Bitta hujrada ikkitadan-to'rttagacha tolibi ilm istiqomat qilib, mashg'ulotlar sentyabrdan-mart oyigacha davom etgan. Yilning qaysi fasli bo'lishidan qat'iy nazar Ramazon oyida ta'til berilgan. Haftaning dushanba, seshanba, shanba, yakshanba kunlari tahsil kunlari hisoblangan. Chorshanba va payshanba kunlari o'tilgan darslarni takrorlash va mustahkamlash bilan shug'ullanishgan, hamda juma dam kuni hisoblangan. Darslar bomdod namozidan keyin boshlangan, o'rtada nonushta qilinib, peshin namozigacha, tushlikdan so'ng asr namozi

⁹⁰M.Q.Nabiyev. O'rta asrlarda madrasalar faoliyati va ularda o'qitilgan fanlar//Talqin va tadqiqotlar Respublika ilmiy-uslubiy jurnali .T.: 2022. 8-son. B. 17-20. [https://cyberleninka.ru > article](https://cyberleninka.ru/article)

paytigacha davom ettirilgan. Madrasa o'quv dasturining umumiy jixatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilgan keyinchalik takomillashtirilib borilgan.

Ta'lim 3 bosqichda: boshlang'ich (adno), o'rta (avsat) va yuqori (a'lo) guruhlarida olib borilgan.

Madrasa ta'limi talabalar iqtidoriga qarab, 7-12 yil davom etgan. Ilk madrasa binolari bir qavatli bo'lib, o'rtasi hovli va uning atrofi hujralardan iborat bo'lgan.

Ba'zan madrasalar yonida gumbazli go'rxona qurilib, unga madrasaga homiylik qilgan kishi ko'milgan. Temuriylar davrida XIV-XV asrlardan hashamatli madrasa binolarini qurish avj oladi. Jumladan Samarqanddagi Registon maydonidagi Ulug'bek madrasasi ikki qavatli bo'lib, 54 hujradan iborat bo'lgan. Keyinchalik u vayron bo'lgan va hozirgi ta'mirlangan binosi bir qavatli hisoblanadi. Madrasalarda tartib-intizomga alohida e'tibor berilgan. Madrasalarda Nizomni buzgan talabaga 3 marta ogohlantirish berilgan, agar yana qoidani buzsa madrasadan haydalgan. Madrasaning ichki hayotiga oid masalalar mutavalli, mudarrislardan iborat iborat hay'at kengashi tomonidan hal qilingan⁹¹. Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, islom olamida madrasalarning buyuk allomalar, qomusiy olimlar, islom darg'alarini yetkazib berishida o'rni beqiyosdir. Shunisi e'tiborliki, madrasa toliblari, bo'sh vaqtlarini unumli tashkil qilib hunar bilan ham shug'ullanganlar. Ayniqsa Amir Temur va Temuriylar davrida madrasalar faoliyati yangi rivojlanish bosqichiga kiradi. Bu o'z navbatida yangi-yangi iste'dodlarning o'sib chiqishiga zamin tayyorladi. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining bola tarbiyasi borsidagi qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, Markaziy Osiyo mutafakkirlari jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini yuksaltirish, birinchi navbatda shaxs ma'naviyatini yaxshilash masalasi sifatida qaraganligiga guvoh bo'lamiz.

⁹¹ Muhammad Yahyoxon Xo'qandiy – Xo'qandi Latif Manoqibi. – T:Movarounnahr.2018

III BOB. ISLOMDA IJTIMOIIY MUNOSABATLAR, MA'NAVIY-AXLOQIY TAMOIYILLAR

- ❖ Islomda vatanparvarlik, mehnatsevarlik hamda oila muqaddasligining ulug'lanishi
- ❖ Islomda poklik masalasi
- ❖ Farzandni riyokorlik va yolg'onchilik kabi yomon illatlardan qaytarishda islom ta'limoti

III.1. ISLOMDA VATANPARVARLIK, MEHNATSEVARLIK HAMDA OILA MUQADDASLIGINING ULUG'LANISHI

Tadqiqotimiz jarayonida islom ta'lim nazariyasida mehnat tarbiyasiga katta ahamiyat berilganligining guvohi bo'ldik. Jumladan, ko'plab oyat va hadislarda **“Islom mehnatni ulug'laydigan dindir”** ,-degan havolalar fikrimizni tasdiqlaydi. Masalan: **“Haqiqiy musulmon baxt uchun yer yuzida ishlashi kerak”, “Yaxshi niyat bilan qilingan har qanday ish muqaddas din hisoblanadi”** va h.z. Islom ta'lim tizimida mehnat tarbiyasi yuksak axloqiy ma'noni o'zida mujassam etib, mehnat axloqi adolat tamoyiliga asoslanadi va o'zaro yordam, hurmat ruhi singdirilgan. Islom tarbiyasida mehnat orqali oilasini tarbiyalashga muhim o'rin berilgan. Bu albatta bejizga emas. Zero mehnat insonni sabr-toqatini, irodasini mustahkamlanishida muhim ahamiytga ega. Hadislarda **“Odam sarf qiladiganning eng yaxshisi farzandlariga sarf qilingani”**. Bunda sarf qilish deyilganda nafaqat pul haqida, balki vaqt haqida ham fikr yuritilmoqda. Bu haqida Muhammad ibn Muhammad al-Jomiy ***“Agar sening moling qancha ko'p bo'lsa ularni farzandingning ilmu hunar yo'lida sarfla, chunki molu davlatga ishonib bo'lmaydi, hunar esa hech qachon o'lmaydi. Ilm va hunar o'rganmay o'tiruvchi kishilar haqida olimlar 3 ta sabab borligini aytadilar. Bunday kishilar yo zohid, yo tanbal, yo takabbur kishilardir”***,-deydilar. Islomda oila qurish sunnat hisoblanib yolg'izlik faqat Allohga xosligi aytiladi.

Oilada ota-onalarning asosiy burchi farzandni kamolga yetkazish ekanligi ta'kidlanadi. Ammo islom bilimdonlaridan Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq ota-onalar farzandini parvarish qilish bilan cheklanayotganliklari, tarbiya nihoyatda keng va murakkab jarayon ekanligini aytadi. Hozirgi kunda aksariyat ota-onalar tarbiya masalasida biryoqlama harakat qilayotganligini ko'rishimiz mumkun. Ota-onalar bolani moddiy tomonlama tarbiyalashga e'tibor qaratgan holda o'z burchlarini ado etgandek bo'lyaptilar. Aslida ularga ko'proq vaqt ajratish, ko'proq suhbatlashish lozimligini unutib qo'ymoqdalar.

III.2. ISLOMDA POKLIK MASALASI

Qur'oni Karimning Naml surasi, 8-oyatida **“Robbi - Alloh pokdir!”**, deyiladi. Islomda dunyoni yaratgan iloh pok ekanligi va uning poklik bor joyga nazar solishi, xayr-baraka berishi ta’kidlanadi. Shu sababli insonlarning har bir hatti-harakati, yurish turishi maxsus diniy qoidalar bilan tartibga solingan. Islomda ibodat 5 mahal amalga oshirilib, bunda libosning va inson tanasining pokligiga katta e’tibor qaratiladi va ibodat Kaba tomonga yuzlangan holda ado etiladi. Islomda ibodat (namoz) qilishdan oldin yuvinib poklaniladi. Dinda inson tanasi va ruhiy pokligiga ham e’tibor qaratiladi. Rasululloh sallolohu alayhi va sallam odamlarga bu borada **“Birortangiz uyingizning oldidan oqib o’tadigan daryoda(yoki soyda) har kuni besh mahal yuvinsangiz, badanimda kir qolmish deb ayturmisiz?”**,-dedilar. Odamlar: Sira kir qolmagaydir”, deyishdi. Janob Rasulluloh: “Besh vaqt namoz ham shunga o’xshash bo’lib, Alloh taolo ular tufayli gunohlarni kechirgaydir”,deb aytdilar”(al-Buxoriy “Al-Jomi' as-sahih”).

Poklik tushunchasi islomda moddiy va ma'naviy poklikga bo‘linadi. Yaratganga sajda qilish ma'naviy poklik bo‘lsa, ibodatni toza libos, toza tana va toza joyda ado etish moddiy poklik hisoblanadi.

Insonning jismini va hatti-harakatlarini uning ruhi boshqarib turadi. Demak, uning moddiy pokligi ma'naviy pokligidan kelib chiqadi. Islom dini poklik masalasiga ustivor masala sifatida qarab, bu borada musulmonlar Qur'oni Karim va payg‘ambar sunnatlariga e’tibor qaratadilar.

Islomdagi 5 ta arkonning har biri poklik ramzi hisoblanadi:

1. Iymon –inson qalbini kufrdan, shubhadan poklash .
2. Namoz –o‘zini o‘zi fahsh ishlardan poklash.
3. Ro‘za-qalbni, jismni isrofdan saqlash

4. Mol-mulkni muhtojlarning haqqidan poklash.
5. Haj va umra - insonlarning borlig'ini bu dunyoning o'tkinchi tashvishlaridan poklash.

Ro'za tutish musulmonlar uchun ko'p asrlardan buyon odat tusiga kirgan bo'lib, uning inson tanasi uchun muayyan foydasi haqida ilohiyotshunoslar ta'kidlab kelishmoqda. Ro'za tutib taomdan o'zini cheklash inson organizmi uchun, hamda undagi sabr-toqatni shakllantirishda, insonning jismonan va ruhan poklanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi bizga ma'lum. Bu inson organizmi chiqindilardan tozalanib, ruhi yengillashishini ta'minlaydi. Shu sababli dindorlar bilan birga islomning diniy talablarini to'liq bajarmaydigan insonlarda ham ro'za tutishga moyillik bor. Islomda poklik bor joyda xayr va baraka bo'lishi, nopoklik esa umumbashariy qirg'inlar, turli ofatlarga sabab bo'lishi aytiladi. Islomdagi deyarli barcha amallarga sog'lom turmush tarzining rasmiylashtirilgan tizimi, qoidalari singdirilganligini ko'rishimiz mumkun. Bunda taomlanish qoidalari, tozalikga doimo riyo qilish, tana va qalb pokligi masalasining yuqori qo'yilishi, pok yurish, besh vaqt ibodat jarayonida qat'iy tartibga solingan jismoniy harakatlar, mashqlarning amalga oshirilishi, insonni sarxush, mast qiluvchi moddalarning ta'qiqlanishi tartibli axloqiy hayot kechirish talablari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Diniy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini ezgulik va poklikga da'vat etuvchi g'oyalar tashkil qiladi. "Biz musulmonchilikning ulug'- madaniy qadriyatlari huquqini qayta tikladik, binobarin, qalbimiz bu bebaho xazinani chuqurroq idrok qila borgan sayin xalqining hayoti ma'naviy jihatdan boyroq va axloqiy jihatdan pokizaroq bo'lib boradi" ,- degan edi birinchi prezidentimiz⁹². Islom - ozodalikga g'oyat jiddiy e'tibor qiladigan, poklik tushunchasi mukammal ifodasini topgan din hisoblanadi. Islomda joy pokligi, libos pokligi, shaxsiy gigiena, atrof-muhit tozaligi, yuvinadigan suvlarning tohir pokizaga yoki tahir-pokizalovchiga ajratilishi, bir kunda besh vaqt namozdan oldin tahorat bilan poklanish, janub bo'lganida albatta g'usl qilish, poklanishga chaqirilishi va inson

⁹² Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.3-jild. T.: O'zbekiston, 1996.-B.283.

tanasidan xushbo'y hid chiqib turishi uchun xushbo'yliklardan foydalanishning targ'ib qilinishi dinda orastalikga va pokizalikga yuksak darajada e'tibor qaratilganligini bildiradi. Musulmon kishining orasta kiyinishi, soch -soqoliga parvarish berishi Allohga ma'qul ish sifatida qaraladi. Hadisu sharifda **“Alloh pokdir, poklikni yaxshi ko'radi. Bas uylaringizni toza tutinglar”**-deyiladi (Termiziy rivoyati). Islomiy hadislarda shaxsiy tozalik bilan birga atrof - muhit tozaligiga ham katta ahamiyat qaratiladi. Qur'oni Karimning Muddassir surasi, 3-4-oyatida **“Yolg'iz Parvardigoringizni ulug'lang va kiyimlaringizni pok tuting!”**-deyilgan. Islomda poklikga bo'lgan e'tibori shu darajadagi, Muhammad alayhissalom bir hadislarida **“Poklik (tahorat) iymonning yarmidir” deyilar (Sahihi Muslim, 223-ҳадис)**. Islomda poklik moddiy poklikning o'zi bilan cheklanib qolmaydi, balki insonning barcha ma'naviy illatlardan, razolatu qabohatlardan pok bo'lishi ham tushiniladi. Islomda ma'naviy poklik qalb, fikr, niyat pokligi, xalqum pokligi, kasbini halol amalga oshirishga yuqori darajada urg'u beriladi. Ma'naviy poklik borasida Qur'oni Karimning Baqara sur'asi 172-oyatida **“Ey, iymon keltirganlar! Allohgagina ibodat qiluvchi bo'lsangiz, sizlarga biz rizq qilib bergan pokiza narsalardan yeb, unga shukur qilingiz!”**-deyilgan. Moida surasi 4-oyatda **“Sizdan (oz'lariga) halol qilingan narsalar haqida so'raydilar. Ayting: “Sizlarga pokiza narsalar halol qilindi”, deb marhamat qilinadi. Bizga ma'lumki ma'naviy poklik qo'ldan boy berilsa jamiyat tanazzulga yuz tutadi, turli razilliklar, axloqsizlik va jinoyatlar avjlanadi. Tarixdan bizga ma'lumki, Salib yurishlari davrida Yevropaliklar musulmonlarning pokiza hayot tarzini ko'rib hayratlanganlar, hamda o'zlariga ijobiy ta'sir olganlar.**

Imom G'azzoliy aytadilar: “Kishi zohiriy nopokliklardan saqlanish bilan birga botinini ham pok tutmog'i lozim. Chunki botiniy illatlar kishini nafaqat bu dunyoda halokatga boshlaydi, balki oxiratda ham alamli azobga duchor bo'lishiga sabab bo'ladi. Poklikni istovchi qalb go'yo bir oshiyon, farishtalar qo'nadigan makon. Gina, hasad, kibr, g'araz, g'azab kabi kasalliklar bilan illatlangan qalbdagi farishtalar qanday qo'nim topsinlar!”.

Tabiatni muhofaza qilish Islom dinining asosiy ta'limotlaridn biri bo'lsa Islomda poklik va poklanish iymondan hisoblanib, poklanish ishlariga boshqa dinlarga nisbatan o'ta jiddiy qaraydi. Chunki boshqa hech bir din, tuzum va falsafasida ozodalik va poklikni iymon darajasiga ko'tarilmagan. Jumladan Yevropada masihiy dini hukmronlik qilgan paytda poklik gunoh hisoblangan. Kishilar o'ziga, kiyim-boshiga uzoq vaqt suv tekkizmaganlaridan faxrlanganlar. Islomda poklik bo'lmasa bandaning ibodati qabul qilinmaydi. Bunda asosan barcha ibodatlarining qabul bo'lishi insonning qalbi va niyati pokligi bilan bog'liq deyiladi. Ajdodlarimiz e'tiqod qilib kelgan Zardushtiylikda va Islom dinlarining har ikkalasida ham poklik insonning fikrlashidan boshlanishi deyilgan. Hatto insonning fikri, qalbi toza bo'lishi shu asosida amali ham unga mutanosib bo'lishi lozimligi ta'kidlangan.

III. 3.FARZANDNI RIYOKORLIK VA YOLG'ONCHILIK KABI YOMON ILLATLARDAN QAYTARISHDA ISLOM TA'LIMOTI

Insonni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, uni nuqsonlardan, gunohlaridan qutqarish islomda asosiy masalalardan biridir. Ayniqsa tasavvufda inson tarbiyasi, insonni riyozatlar bilan poklash markaziy o'rinni egallab kelgan. Insonni poklash va kamol toptirish ilmi bo'lgan tasavvuf kishidagi barcha salbiy xislatlarni nafs tushunchasiga bog'lab izohlaydi va unga jihd e'lon qiladi. Inson nafsini tubanlikga, manmanlik va jaholatga yetaklovchi kuch sifatida baholaydi. Shuning uchun insonning birinchi vazifasi o'z nafsini jilovlash va tiyish hisoblanadi⁹³. Yolg'onchilik islomda qattiq qoralanadi. Bir kuni sahobalar Payg'ambarimiz sallolohu alayhi vassalamdan so'rashdi: **“Ey Allohning Rasuli, mo'min odam baxtli bo'lishi mumkunmi? “Payg'ambarimiz «Ha bo'lishi mumkun», dedilar. Yana ular "Ey Allohning Rasuli, musulmon odam qo'rqqoq bo'lishi mumkunmi?. Payg'ambarimiz: "Ha qo'rqqoq bo'ladi", dedilar. Sahobalar: “Ey Allohning Rasuli, musulmon odam yolg'onchi bo'ladimi? Payg'ambarimiz "Yo'q", deb javob berdilar, -deyiladi. Qur'oni Karimning**

⁹³ N.Komilov tarjimasi.Komil inson haqida to'rt risola.Toshkent."Ma'naviyat", 1997. -B.5.(280)

Hahl surasining 105-oyatida Alloh taolo shunday deb xabar beradi: **«Yolg'on so'zlarni faqat Allohning oyatlariga iymon keltirmaydigan kimsalarga to'qurlar. Ana o'shalarning o'zlari ham yolg'onchilar»**, - deyiladi. Hadislarda Rasululloh sallollohu alayhi vasallam: "Mo'min kishi xiyonat, yolg'onchilikdan boshqa barcha xislatlarga tobe bo'ladi", deganlar. Mazkur Hadisu Sharifni ulamolar quyidagicha tahlil qiladilar: "Mo'min kishida xiyonatkorlik hamda yolg'onchilik xususiyatlarining mavjud bo'lishligi uning mo'minlik tabiatiga xilof ishdir, musulmon kishi bunday xulqga ega bo'lmaydi. Islomda yolg'onchining yonidan farishta uzoqlashishi va gunoh ekanligi, Alloh oldida najot topmasligi aytiladi. Qur'oni Karimning **Nahl surasi 116-oyatida** shunday deb marhamat qilinadi: **«Alloh sha'niga yolg'on to'qish uchun tillaringizga kelgan yolg'onni gapirib, bu halol, bu harom demanglar. Chunki Alloh sha'niga yolg'on to'quvchi kimsalar hech qachon najot topmaslar»⁹⁴**". Islomda munofiqlikning uchta belgisi ko'rsatiladi: yolg'on so'zlash, va'dasining ustidan chiqmaslik va omonotga xiyonat. Islomda Alloh uchun eng yaxshi so'z rost gapirish deyiladi. Boshqa bir hadisda Payg'ambar alayhissalom: **«Gunohlarning eng kattasi Allohga shirk keltirmoqlik, nohaq qon to'kmoqlik, ota-onaga oq bo'lmoqlik va yolg'on guvohlik bermoqlik deyiladi»**, -deganlar. Demak Islomda yolg'on gapirish eng yomon ishlardan hisoblanadi. Farzand tarbiyasida ota-onalar farzandlariga yolg'on gapirishi, va'da berib uni bajarmasliklari bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qilishi, rostgo'ylik ezgulikga boshlashi, ezgulik esa jannatga olib borishi aytiladi. Riyokorlik Islomda eng katta gunohlardan bo'lib, islomda riyo qilivchida xolis niyat va ixlos bo'lmaydi deyiladi. Agar mo'minning ibodatiga zarracha riyo aralashsa, ushbu ibodatdan zarracha foyda yo'qligi aytiladi. Kishi riyo bilan namoz o'qisa, ro'za tutsa, hajga borsa Allohu taologa osiy bo'lgani qoladi deyiladi. **«Ey iymon keltirganlar molini odamlar ko'rsin deb beradigan, Allohga oxirat kunida ham ishonmaydigan kimsaga o'xshab bergan**

⁹⁴ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2001.

sadaqalaringizni minnat va ozor bilan chiqarmang. U riyokor ustini tuproq bilan qoplagan silliq qoyaga o'xshaydi, ustiga jala yoqqanida tuproq yuvilib sip-silliq toshning o'zini qoldiradi. Ular topgan va sarflagan boyliklaridan hech narsa narsaga ega bo'la olmaydilar (*Baqara, 264-oyat*). Islomda o'z obro'sini o'ylab islomiy harakatlarni bajargan shaxsga u dunyoda mukofot berilmaydi deyiladi. Jumladan, bu haqda Payg'ambarimiz shunday marhamat qiladilar: "Kim bu dunyoda biror amalni odamlar eshitsin, deb qilsa, Alloh uni odamlarga eshittirib qo'yadi. Kimki odamlar ko'rsin deb qilsa, Alloh uni odamlarga ko'rsatib qo'yadi" (*Naso'iy rivoyati*). Demak, bu dunyoning obro'sini istab qilingan amalga faqat bu dunyoning o'zidagina mukofot beriladi, oxiratda esa nasiba bo'lmaydi.

Alloh taolo: «...**Bas, shunday namozxonlar holiga voyki, ular namozlarini "unutib" qo'yadilar, riyokorlik qiladilar...**» (*Mo'un, 4–6*) deya ogohlantirgan.

Insonlarning tanasi sog' bo'lib bironlarga muxtoj bo'lishi, boqimandachilik, tilanchilik qilishi qoralangan. Inson hayotida mehnat, halol rizq masalasi, yuqori o'ringa qo'yilib, yolg'onchilik va riyokorlik jamiyatga ziyon keltiruvchi salbiy illat sifatida qaralgan.

Xalqimiz ming yillardan buyon farzand tarbiyasida ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan usul va vositalar, ajdodlarimizning bilim va ko'nikmalaridan unumli foydalanib kelmoqda. Ming yillar davomida "Qur'oni Karim", Hadisu shariflar jamiyatga munosib avlod tarbiyalashda dasturamal vazifasini bajarib kelmoqda. Islomda ta'lim olish hatto ibodatdan ham afzal ekanligi e'tirof qilinib bu dunyoda unga asqotishi bilan birga, u dunyo saodatiga ham erishishi ta'kidlangan. Islomgacha jaxolat davrida ayollarga munosabatning juda yomon bo'lganligi, aksariyat jaxolatparast erkaklarning qiz farzandlarini tiriklayin ko'mishlari oqibatida islom o'z muqaddas manbalarida solih qiz farzandlarni tarbiyalagan ota-onalarga jannatni va'da qilganligi, millat tarbiyachilari hisoblangan ayollarga munosabatni yaxshilash, ularni qadrlash maqsadida amalga oshirilgan tadbir deya olamiz. Islomda sog'ligi yetsada oila qurmaslikning qoralanishi, nikohning joiz qilinishi xalq va qavmlarning

bardavomligini saqlash, ta'minlash insonlardagi moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish maqsadida amalga oshirilgan. Dinda bolani nobud qilish, uning ruhiyati, jismoniy holatiga salbiy ta'sirga ega holatlatlarga yo'l qo'yishning qoralanishi diniy mafkuraning insonparvarlik tamoyiliga asoslanganligidan dalolat beradi. Ushbu dinlarda mehnatsevarlik, hallollik, poklik, rostgo'ylik, ilmning ulug'lanishi barkamol avlod tarbiyalasha uning ijobiy imkoniyatlaridan unumli foydalanidshni taqozo qiladi, Dunyoga ko'plab qomusiy olimlarni yetkazib bergan xalqning boy ma'naviy meratini o'rganish avvalo, uning farzand tarbiyalashdagi tajribalarini o'rganishdan boshlanishi lozim.

FOYD

ALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Normativ-huquqiy xujjatlar va metadalogik ahamiyatga molik nashrlar

1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдр.3-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1996.-Б.283.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-иҷтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари// Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир.Том.-3.Тошкент:Ўзбекистон, 1996.35-б.
3. Ислом(Справочник), Тошкент ,1989 йил.Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси , 119.б.
4. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
5. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий – тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 56 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
7. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
8. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.

Monografiya , ilmiy maqola, patent, imiy toplamlar

9. А.Аширов.Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари.Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси босмахонаси.Тошкент-2007.-Б.276.
- 10.Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. Т., Шарқ, 2001, - Б.732.
- 11.Қуръони Карим маъноларининг таржимаси. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Т.: «Тошкент ислом университети» нашриёти, 2001.
- 12.У.Алимов. Оилада фарзанд тарбияси. “Моварауннахр” нашриёти.Тошкент.2014.-.Б.5. (456)
- 13.Абдулла Авлоний.Туркий гулустон ёхуд ахлоқ.Тошкент.”Ўқитувчи”.1992.-Б. 14 (168)
- 14.Абдурауф Фитрат.Оила ёки оилани бошқариш тартиблари.Тошкент “Маънавият”. 2000. –Б.5. (112)
- 15.Э.А.Абдусаматов.Диншунослик.Ўқув қўлланма.Тошкент-2008.- Б.9.(244)
- 16.Абу Абдуллох Муҳаммад Ибн Исмоил Ал-Бухорий .Ҳадис. 1. Ал-Жомийъ Ас-Саҳиҳ .Т.: “Қомуслар бош таҳририяти”, 1997.-Б.560.
- 17.Беруний, Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар//Беруний А.Р.Танланган асарлар. I том.Т.,1968.
- 18.Бартольд В.В.История культурной жизни Узбекистана.Соч.Т.11, ч.1,М.:ИВЛ,1963.-657с.
- 19.Р. Каримова.Постулаты «Авесты» о правах детей//Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов.2012, 26.11.<http://jurnal.org/article/2012/uri46.html>
- 20.Кошанова Н.М. Авесто халқ педагогикасининг қадимий манбаси сифатида.// Academic Research in Educational Sciences Volume 3/Issue5/2022/.-Р.830-837.
- 21.Н.Комилов таржимаси.Комил инсон ҳақида тўрт рисола.Тошкент.”Маънавият”, 1997. -Б.5.(280)
- 22.И. Кант.Педагогика тўғрисида. М.Акбаров таржимаси. “Niso-Pligraf”/Тошкент.2013.-Б.34.(232)

23. А.Мўминов, Ҳ.Йўлдошхўжаев ва бошқалар. Диншунослик. Ўқув қўлланма. Тошкент-“Меҳнат”-2004.-Б.88.(294)
24. Махмудов Т. Авесто ҳақида. Т., Шарк, 2000. - 37 б.
25. Ҳ.Х. Муминжанов. Философическое проблемы Зороастризма.//докт.дисс.философских наук .2001. Душанбе.-С.224.
26. Максуд К.М.Назидание воспитывает несовершенных /"Оиузгор",1992,№6 (на тадж.яз.).15С.Макдиси Дж.Суннитское возрождение.Мусульманский мир.(950-1150).М.:"Наука",1981.
27. Махмудова Г.М. Активный идеал в этике зороастризма в контексте национальной и общечеловеческой духовности. <https://studfile.net/preview/5856403/>
28. Махмудова Г.Т. Авестонинг фалсафий моҳияти.-Т.: Ношир, 2015.- Б.155-160.
29. Маҳмуд Ҳасаний таржимаси .Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони.Тошкент.ЎзФА “Фан” нашриёти.1994.-Б.9.(220)
30. Муҳаммад Яхёхон Хўқандий-Чўқанди Латиф Маноқоби. -Т.: Моваруннахр.2018.
31. У. Нажмиддинова. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. Монография.Тошкент. “Адолат”.2016.-Б.6.(224)
32. Низами Арузи Самарканда.Собрание редкостей или Четыре беседы.М. :Изд.вост.лит.,1963.- 173с.
33. M.Q.Nabiyev. O'rta asrlarda madrasalar faoliyati va ularda o'qitilgan fanlar//Talqin va tadqiqotlar Respublika ilmiy-uslubiy jurnali .Т.: 2022. 8-son. В. 17-20.
34. А.Рахмонов, А.Рахмонов, Ислом ҳуқуқи.Тошкент-2007.-Б.86. (500)
35. Т.С.Расулова.Моральный Закон учении Заратуштры.//Интерактивная наука. 12(22) 2017. –С.62.(61-64
36. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Очерки по истории древнего Узбекистана: государственность и право. – Т.: «Адолат», 2000. – С.168-169.
37. Б.Сапаров., А.Б.Сапаров Авестода одоб-ахлоқ масаласи. //Academic research in educational sciences volume 1/ Issue 3/ 2020. –Б. 899

- 38.У.Сувонова, Н.Рахмонова. Ислом таълимотида оила этикаси//SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME2/ISSUE5/2021. -P.416-419
- 39.М.Хажияева. Хожа Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat.T.:2004y.
- 40.И.Р.Хўжамуродов, Б.И.Хўжамуродов, Ш.Б.Кимсанбаева, А.М.Адилова. Тарихий-маданий меросимиз «Авесто»да ерга ва шудгорлашга эътибор//Ўзбекистон аграр фани хабарномаси № 3 (61) 2015.-б.102-106.
- 41.Халматова М. Оилавий муносабатлар маданиятини такомиллаштириш ва соғлом авлодни тарбиялаш муаммолари: ф.ф.д. дис. Тошкент Давлат аграр университети. – Тошкент, 1998. 270-бет.
- 42.М.Shoxadjayev. Burhoniddin Marg'iloniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari.Avtoreferat.T.: “ Fan va texnologiya “.2008 y.
- 43.Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. “ Бахтиёр оила”, Т.: “Шарк”, 2012. –Б. 504.
- 44.Кобилжанов Қ.Сут начального воспитания зороастрицы. Центр научных публикаций(BuxDu .Uz), 8(8)https://journal/buxdu.Uz./index.php/journals_buxdu/article/view/5942 C-20-31
- 45.К.Кобилжанов .Роль семьи в обучения детей борьбе кураш //“Вестник науки и образования”.2019.
- 46.М.Қуръонов.Оталар китоби.Тошкент. “Ўзбекистон” 2007.-Б.14.(80)
- 47.А.Naydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar.T.:Muharrir, 2008 y.-B.47.
- 48.М.Намдамова.Ма'naviyat asoslari. Т.: “Fan va texnologiya”. 2008 y.
- 49.Хусайн Воиз Кошифий “Футувватномаи султоний”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат нашриёти,Тошкент-2011.(376 б)

Xorijiy adabiyotlar:

- 50.Асад Бежан.Чашмандози тарбият дар Эрони пеш аз ислом. (Взгляд на воспитание доисламского Ирана) .Тегеран,I3I5C1937), на персидском языке.- 172с.
- 51.Абдурахмон Қоя.Ислом ахлоқи.Анвар Ҳожиахмад таржимаси “Моварауннахр” ,Тошкент.1997.-Б.44.

52. Авеста. Избранные гимны. (Пер. с авест. и коммент. проф. И. М. Стеблин-Каменского. Душанбе.: Д., 1990. - 176 с.
53. См.: Алимпур Н. Додгохи Чам: гушахое аз меъморни оромгоххо ва шивахои тадфини пайравони Ашу. Зардушт паёмбари бузург. Техрон, 1384. - С. 18.
54. Бердиев Шохназар Пирназарович. Этические проблемы зороастризма. // дисс. философия канд. наук. Душанбе-2011. - С. 25.
55. Гафуров Б., Прохоров Н. Таджикский народ в борьбе за свободу и независимость своей Родины. Госиздат при (Ж Тадж. ССР. Сталинабад, 1944. 212 с.
56. Гафуров Б. Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. - Душанбе. "Ирфон":, 1989. - С. 78.
57. Заратустра. Учение огня. Гаты и молитвы. - М.: Эксмо, 2008. - С. 200.
58. Ибрагимов А. И. Абед Халил. Использование нравственного потенциала ислама в воспитании учащихся подросткового возраста. автореферат дисс. канд. наук. М.: 13.00.01. 1996. - С. 194.
59. Койчурев Айтек Алим - Джашарович. Педагогический потенциал ислама в светских образовательных практиках. // дисс. док. пед наук (13.00.01). 2008. - С. 326.
60. Мудрость тысячелетий. Энциклопедия. - М.: ОЛМА Медиа Групп. 2008. автор-составитель В. Балязин. - С. 42-43. (848 с.)
61. Б. Р. Гилы Утдинов. Тенденции развития и педагогические условия использования прогрессивной мысли ислама в современной школе. // дисс. Канд. пед. наук. 13.00.01. авторефе. Казан-2002. - С. 14. 26.
62. Закои Кунрапа. Алвидо дунё! Ассалом охират. Учинчи китоб, Тошкент, Моварауннахр, 1996, 53-б.
63. Маковельский А. О. Авеста-Баку, 1967. - С. 28.
64. Муртазина Э. И., Минуллина А. Ф. Установки на воспитание и семейную роль у отцов в Исламе // Современные проблемы науки и образования. - 2014. - № 3. URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=13817> id=13817

65. Периханян А.Г. Общество и право в Иране в парфянский и сасанидский периоды. – С. 248.
66. Струве В.В. Восстание в Маргиане при Дарии I. М., 1949.
67. Шарль Р. Мусульманское право. Пер. с франц. С.И. Волка. - Москва: Изд-во. "Иностранная литература". 1959. - С. 11.
68. Ходжиева Ф.А. Педагогическая условия ответственности родителей за воспитание детей в исламе, созвучные современным нравственным нормам светского общества // 13.00.01. автореферат дисс. канд. пед. наук. Душанбе. 2009.
69. К.Б. Кадыров. История воспитания, школы и педагогической мысли таджиков с древнейших времен до возникновения ислама. Дисс. док. пед. наук. 13.00.01. Москва. 1999. - С. 394.
70. Зороастрийские тексты. Переводы О.М. Чунаковой. © Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1997.

Internet saytlari:

71. <https://daryo.uz/2021/01/20/shavkat-mirziyoyev-ijtimoiy-gumanitar-fanlar-rivoji-zamondan-ortda-qolmoqda/>
72. Қомус Инфо энциклопедия..онла <https://qomus.info/encyclopedia/cata/antinomiya-uz/>
73. Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021 ISSN 2181-063X 530 <http://oac.dsmi-qf.uz/> <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>

MUNDARIJA:

Kirish	4
I BOB. “AVESTO”DAGI TARBIYAVIY QARASHLAR VA ULARNING KOMIL INSONNI TARBIYALASHDAGI O’RNI	
1.1. Din-ma’naviy-ruhiy tarbiyalashda muhim omil	9
1.2. Zardushtiylilik mafkurasining barkamol avlod tarbiyalashdagi ahamiyati.....	19
1.3. Zardushtiylilikda komil inson masalasi va “Avesto” pandnomalarning pedagogik mohiyati.....	29
1.4. Zardushtiylilik dinida poklik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik hamda oila muqaddasligining ulug’lanishi.....	35
II BOB. ISLOM PEDAGOGIKASI SHAKLLANISHIDA TARIXIY JARAYONLAR TAHLILI	
2.1. Islom mafkurasining shakllanishidagi tarixiy jarayonlar rivoji.....	47
2.2. Islomda farzand tarbiyasiga doir pedagogik qarashlar shakllanishining tarxiy-nazariy asoslari.....	54
2.3. “Sharq renesansi” davrida islom pedagogikasi taraqqiyoti.....	66
2.4 Madrasalarning ma’rifat markazlari sifatidagi faoliyati.....	75
III BOB. ISLOM DINIDA IJTIMOIIY MUNOSABATLAR, MA’NAVIY-AXLOQIIY TAMOIYILLAR	
3.1. Islom dinida vatanparvarlik, mehnatsevarlik hamda oila muqaddasligining ulug’lanishi.....	79
3.2. Islomda poklik masalasi.....	80
3.3. Farzandni riyokorlik va yolg’onchilik kabi yomon illatlardan qaytarishda islom ta’limoti	83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	87

GLOSSARIY

AVESTO (“Apastak”, “Ovisto”, “Ovusto”, “Abisto”, “Avasto”) -joriy qilingan qat’iy qoidalar, sanskrit tiliga yaqin o‘ziga xos avesto tilida yozilgan zardushtiylikning muqaddas kitobi.

AKEM MANA – yomon fikr, adashtirish ma'budi, Axriman tarafdori.

AQIQA – (arabcha, “qorin sochi”) tug‘ilgan chaqaloqning sochini olish va tavalludi munosabati bilan so‘yiladigan qo‘yga aytiladi.

AMERETAT – zardushtiylikda baxt, abadiylik ma'budi, Axura Mazda tarafdori.

AMESHA SPENTA (abadiy muqaddas) – zardushtiylikda Axura Mazda yaratgan 7 maxluqdan biri. Boshqa fikrga ko‘ra, Amesha Spenta – Axura Mazdaning timsoli.

ANJUMANI MOG‘ONE IRON – zardushtiy ruhoniylar ierarxiyasidan tashkil topgan Eron Mobadlari kengashi.

ANXRA–MAYN'YU (yunoncha, Axriman) – zardushtiylikda yomonlik, yovuzlik, buzg‘unchilik ibtidosi, zulmat egasi bo‘lib, ezgulik va yorug‘lik sohibi Axura Mazda va uning tarafdorlariga qarshi bosh ko‘targan ma'bud.

AXURA MAZDA (yunoncha, Ormuzd) – zardushtiylikda donishmandlik sohibi, yaxshilik, ezgulik, yaratuvchanlik ibtidosi, yorug‘lik sohibi bo‘lib, yovuz Axriman va uning tarafdorlariga qarshi doimiy kurashda. **ASHA VAXISHTA** – zardushtiylikda adolat, haqiqat ma'budi, Axura Mazda tarafdori.

VISPARAD – “Avesto”ning 24 bobdan tashkil topgan ma'budlar sha'niga o‘qiladigan duo va pand–nasihatlardan iborat bo‘limi. **VISHNU** – vedalarda zikr qilingan va keyinchalik unutilgan xudolar orasida abadiy hisoblangan va hozirda butun Hindistonda ulug‘lanuvchi quyosh xudosi. **VOJIB** –Qur'oni karimda to‘g‘ridan–to‘g‘ri buyruq kelmagan holda bajarilishi shart bo‘lgan amallar.

VOHUMANAH (Behmen) – zardushtiylikda aql, ezgu fikr, tushunish yazati (farishtasi).

GOVMARD (forsche, ho‘kiz–odam) – zardushtiylik ta'limotiga ko‘ra, birinchi inson. **GOHI** – zardushtiylikda kunning muayyan qismida bajariladigan (Xavan goh – tongdan peshingacha, Raptivin goh – peshindan so‘ng, Uzarin goh – kun botishdan oldin, Aivisrutrim goh – kun botgandan so‘ng, Ushaxin goh – yarim kechadan tongacha ibodatlar)

DAXMA – zardushtiylikda yerdan 4–5 metr balandlikda silindr shaklida bo‘lgan maxsus joy bo‘lib, unga o‘liklar ustma–ust tartib bilan yotqiziladi.

DAEN – zardushtiylikda imon, yaxshi amal, u inson vafotidan so‘ng go‘zal qiz qiyofasida ko‘rinib, uni Chinvanda ko‘prikdan olib o‘tishga yordam beradi. **DEV VIZARESH** – zardushtiylikda inson vafotidan so‘ng uning qilmishi yovuzlik bo‘lsa, jazo beruvchi, do‘zaxga tashlovchi ma'bud.

DODGOH – zardushtiylikda hamma uchun ochiq bo‘lgan muqaddas olov yoniq turadigan xona.

DRON – zardushtiylikda ibodat marosimlari uchun maxsus tayyorlangan non.

DRUDJ – zardushtiylik dinida yolg‘on so‘z.

DUJVARTSHTA – zardushtiylik dinida yovuz fikr.

DUJMATADAN – zardushtiylik dinida yovuz amal.

DUJUXTA – zardushtiylik dinida yovuz so‘z.

JABROIL – Alloh bilan payg‘ambarlar o‘rtasida elchi vazifasini bajaruvchi farishta.

JEBRLAR – zamonaviy zardushtiylikning Erondagi vakillari.

ZAURVI – zardushtiylikda qarilik, o‘lim ma'budi, Axriman tarafdori.

ZEND (parfiyoncha, “sharhlangan matn”) – milodiy III asrga oid qonunlardan iborat Avestoning sharhi.

QUR'ONI KARIM – Islom dinining birlamchi muqaddas manbasi bo‘lib, 23 yil mobaynida Muhammad payg‘ambar (a.s.)ga Jabroil farishta (a.s.) orqali ba'zan oyat–oyat, ba'zan esa to‘liq sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitob.

KUSHTI – zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi shaxs diniy marosimlarda taqishi lozim bo‘lgan maxsus kamar

MAVZU' – Rasululloh (a.s.)ga nisbat berilib to‘qilgan yolg‘on hadis

MITRA (avesto, do‘stlik, kelishuv) – inson vafotidan so‘ng uning ruhini himoya qiluvchi ezgulik yazatlaridan biri. **MOBAD** – diniy marosimlarni avloddan avlodga saqlab qolish mas'uliyatini olgan, ruhoniylar oilasi, o‘rta maqomli ruhoniylar.

MOBADAN MOBAD – mobadlarning mobadi, mobad oilasiga mansub zardusht ruhoniylari tabaqasining yuqori vakili. **MOBADYO'R** – mobadlardan bo‘lmagan diniy ma'lumotga ega xirbadlardan keyin turuvchi martaba.

NAMOZ – har bir musulmon kishining kuniga besh mahal poklanib, qibla tomonga yuzlangan holda amalga oshiradigan farz ibodati.

NOUS – inson vafotidan so‘ng undan qolgan suyaklar saqlanadigan maxsus quticha bo‘lib, u daxmaga qo‘yilgan.

RATU (avesto, namuna, rahbar) – zardushtiylikning himoyachisi, mas'um mobad, zardusht ruhoniylari tabaqasining eng yuqori vakili.

RASHNU – zardushtiylikda inson vafotidan so‘ng uning ruhini himoya qiluvchi ezgulik yazatlaridan biri.

SOG'DID – zardushtiylikda it yordamida amalga oshiriladigan odamdan devlarni quvish va poklash marosimi.

SPENTA ARMAITI – zardushtiylikda muhabbat, ishonch, rahm, fidoyilik ma'budi, Axura Mazda tarafdori.

SPENTA–MAN'YU – zardushtiylikda yorug‘lik, yaralish ibtidosi ma'budi, Axura Mazda tarafdori. **SRAOShA** – zardushtiylikda inson vafotidan so‘ng uning ruhini himoya qiluvchi ezgulik yazatlaridan biri. www.ziyouz.com kutubxonasi — 307

SUNAN – Hadislar «tahorat» bobidan «vasiyatlar» bobigacha fiqh tartibi bo‘yicha jamlangan to‘plamlar.

SUNNAT – islom shariatiga ko‘ra, zimmaga yuklanmagan, lekin bajarilishi talab qilingan amal. U Payg‘ambar (a.s.)ning pokiza sayratlari, turmush tarzlari.

Koshanova Nilufar Maxsudovna

«MA'NAVIY TARBIYANING TARIXIY ASOSLARI»

MONOGRAFIYA

Nash.lis. AI № 276, 15.06.2015
Bosishga ruhsat etildi: 20.12.2023 yil
Bichimi 60x84^{1/16}. «Times New Roman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabog'i 6.1. Adadi 100. Buyurtma № 22-12
TeЛ: (99) 832 99 79; (99) 817 44 54
“LESSON PRESS” MCHJ nashriyoti,
100071, Toshkent, Komolon ko'chasi, 13.
«IMPRESS MEDIA» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shaxri, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.